

616-056.4
к 500

**M. B. Xoljigitova, J. A. Ismailov,
Sh. X. Ziyadullaev, R. B. Abdullaev**

KLINIK ALLERGOLOGIYA



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI




**M. B. Xoljigitova, J. A. Ismailov, Sh. X. Ziyadullaev,
R. B. Abdullaev**

KLINIK ALLERGOLOGIYA

Darslik

**Bilim sohasi: 500000-sog'liqni saqlash va ijtimoiy taminot
Ta'lim sohasi: 510000-Sog'liqni saqlash
Ta'lim yo'nalishi 5510100- davolash ishi**



Toshkent – 2024

UO·K 616.24(07,85)

KBK 54.12ya72

X-51

Xoljigitova M.B. va boshq.

Klinik allergologiya. Darslik. M.B. Xoljigitova, J.A. Ismailov, Sh.X. Ziyadul-laev, R. B. Abdullaev. – T.: “DIMAL” nashriyoti, 2024-y. – 234 b.

Tuzuvchilar:

- Xoljigitova M.B.** – SamDMU 2-son davolash fakulteti 4-son ichki kasalliklar kafedrası dotsenti, PhD;
- Ismailov J.A.** – SamDMU 4-son ichki kasalliklar kafedrası mudiri, PhD;
- Ziyadullaev Sh.X.** – SamDMU 1-son ichki kasalliklar kafedrası mudiri, t.f.d., professor;
- Abdullaev R.B.** – TTA Urganch filiali ichki kasalliklar, rehabilitologiya va xalq tabobati kafedrası professori, t.f.d.

Taqrizchilar:

- Agababyan I.R.** – SamDTU DKTF ichki kasalliklar, kardiologiya va funksional diagnostika kafedrası mudiri, t.f.n., professor;
- Fayzullayeva N.Y.** – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Immunologiya va inson genomikasi instituti yetakchi ilmiy xodimi, t.f.d.

Darslikning o‘quv informatsion qismida immun tizimning tuzilishi, anatomiya va fiziologiyasi, shuningdek allergik kasalliklarining etiologiyasi, patogenezi, klinikasi, tasnifi aks ettirilgan. Allergik kasalliklarga tashxis qo‘yish uchun zarur laboratoriya va instrumental tekshirish usullari keltirilgan. Laboratoriyada o‘tkaziladigan tahlillarga alohida e‘tibor qaratilgan. Darslik tibbiyot oliy ta‘lim oliygohlari 6-kurs davolash ishi studentlariga, magistratura-rezidentlari, klinik ordinatorlar, terapevt va umumiy amaliyot shifokorlari, kadrlar malakasini oshirish va ulami qayta tayyorlash malaka oshirish tinglovchilariga, allergologlarga mo‘ljallangan.

Samarqand davlat tibbiyot universitetining 2023 yil “7”-dekabrdagi A/F 575-sonli buyrug‘iga asosan darslik nashr etishga ruxsat berildi.

ISBN 978-9943-723-08-7

© M.B. Xoljigitova, J.A. Ismailov,
Sh.X. Ziyadul-laev, R. B. Abdullaev, 2024
© “DIMAL” nashriyoti, 2024

MUNDARIJA

QISQARTMA SO‘ZLAR	5
KIRISH	7
I BOB.....	10
1.1. Allergologiyaning rivojlanish tarixi. Allergenlar haqida tushuncha	10
1.2. Hujayraviy va gumoral immunitet. Allergik reaksiyalarning 4 turi	22
1.3. Allergologik va immunologik kasalliklarning in vivo va in vitro tekshiruv usullari. Teri sinamalari, provokatsion sinamalari ko‘rsatma va qarshi ko‘rsatma. Laborator tekshiruv usullari	43
II BOB	55
2.1. Birlamchi immuntanqislik kasalliklari. Etiologiya. Patogenez. Klinika. Tashxislash va davolash prinsiplari. Profilaktikasi	55
2.2. Ikkilamchi immuntanqislik kasalliklari. Etiologiya. Patogenez. Klinika. Tashxislash va davolash prinsiplari. Profilaktikasi	59
III BOB	72
3.1. Nafas tizimining funksional tekshiruv usullari. Spirometriya, pikfloumetriya o‘tkazish qoidalari, ko‘rsatma va qarshi ko‘rsatmalari	72
3.2. Laboratoriya va instrumental tekshirish usullari	85
IV. BOB.....	98
4.1. Bronxial astma. Etiologiya. Patogenez. Klinika. Tashxislash va davolash prinsiplari. Profilaktikasi	98
4.2. Bronxial astmaning asoratlari. Status astmaticus. Etiologiya, patogenezi, klinika, birinchi yordam ko‘rsatish va davolash prinsiplari	119
4.3. Aspirinli bronxial astma. Etiologiya. Patogenez. Klinika. Tashxislash va davolash prinsiplari. Profilaktikasi	123
V BOB	137
5.1. Allergik rinit etiologiya, patogenezi, klinika, in vivo va in vitro tekshiruv usullari, davolash prinsiplari.....	137
5.2. Pollinoz. Etiologiya. Patogenez. Klinika. Tashxislash va davolash prinsiplari. Profilaktikasi.....	151

VI BOB	160
6.1. Anafilaktik shok. Etiologiya. Patogenez. Klinika. Tashxislash va davolash prinsiplari. Profilaktikasi. Birinchi yordam ko'rsatish texnikasi.....	160
Engil anafilaktik shok.....	168
O'rta darajadagi anafilaktik shok belgilari.....	169
Og'ir anafilaktik shok.....	169
VII BOB	186
7.1. Dori allergiyasi etiologiyasi, patogenezi, klinika, <i>in vivo</i> va <i>in vitro</i> tekshiruv usullari, davolash prinsiplari	186
7.2. Allergologiyada jadal holatlar. Kvinke shishi. Etiologiya. Patogenez. Klinika. Tashxislash va davolash prinsiplari. Profilaktikasi. Birinchi yordam ko'rsatish texnikasi	195
VIII BOB	208
8.1. Qavarchiqlar va atopik dermatit etiologiya, patogenezi, klinika, <i>in vivo</i> va <i>in vitro</i> tekshiruv usullari, davolash prinsiplari.....	208
GLOSSARIY	227
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	229

QISQARTMA SO'ZLAR

JSST – Jaxon sog'liqni saqlash tashkiloti
Ig G – immunoglobulin G
Ig M – immunoglobulin M
PZR – polimeraza zanjirli reaktsiya
INF – interferon
Ig A – immunoglobulin A
PV – protrombin vaqti
AD – atopik dermatit
ACTH – adrenokortikotrop gormon
AO – angioedema
APC – antigen taqdim qiluvchi hujayralar
AR – allergik rinit
AS – astmatik holat
ABA – aspirinli bronxial astma
BA – bronxial astma
O'SV – o'pkaning sun'iy ventilyatsiyasi
TTUS – tezkor turdagi yuqori sezuvchanlik
IL – interleykin
ONE – o'tkir nafas etishmovchiligi
AIK – aylanma immun komplekslari
EKG – elektrokardiogramma
EchT – eritrositlarning cho'kish tezligi
GKS – glykokortikosteroidlar
UDXK – ursodezoksixolevaya kislota
NYaQDV – nospesifik yallig'lanishga qarshi dori vositalari
IFT – immunofermentli tahlil
SRG – sekin rivojlanadigan gipersezgirlik
AQB – arterial qon bosimi
AG – antigen
AT – antitelo
TB – ta'sir birlik
ASIT – antigenspesifikimmunoterapiya
IFA – immunoferment tahlil
BIT – birlamchi immunitet tanqisligi
IIT – ikkilamchi immunitet tanqisligi
NORH – nafas olishning rezerv hajmi
NCHRH – nafas chiqarishning rezerv hajmi

O·QH – oʻpkaning qoldiq hajmi
O·HS – oʻpkaning hayotiy sigʻimi
NOS – nafas olish sigʻimi
FQS – funksional qoldiq sigʻimi
O·US – Oʻpkaning umumiy sigʻimi – bu maksimal nafas olgandan keyin oʻpkadagi gazlar umumiy miqdori.
O·JTS – Oʻpkaning jadal tiriklik sigʻimi – maksimal tez va kuchli nafas chiqaradigandagi havo hajmi
JNHI – bir sekunddagi jadal nafas chiqarish hajmi
MHT – maksimal hajimli nafas chiqarish tezligi
NChAT – nafas chiqarish avjiiy tezligi
PG – prostaglandin
PGE₂ – prostaglandin E₂
LT – leykotrien
PI – paroshokli ingalytorlar

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.04.2017-yildagi PQ-2909-son oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida

Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi ushbu qarorda oliy ta'lim uchun yangi avlod o'quv adabiyotini yaratishga nisbatan talablarni ishlab chiqish, unda quyidagilarni nazarda tutish: o'quv adabiyoti turlarini tasniflash va ularning xarakteristikalarini; o'quv adabiyotini yaratish tamoyillari va mexanizmlari; ilg'or xorijiy adabiyotlardan foydalanish masalalari ko'rilgan edi. Yangi avlod o'quv adabiyotini yaratishga va ularni oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayoniga keng tatbiq etish alohida e'tibor qaratildi. Prezidentimizning qarorlari va ko'rsatmalari tibbiyot oliy o'quv yurtlari oldiga yangi vazifalar, jumladan zamonaviy o'quv adabiyotlari, darsliklar yaratish talablarini qo'ydi.

Tibbiyot oliy o'quv yurtlari davolash fakultetlari uchun klinik allergologiya fanidan darsliklar yo'q edi. Shu bo'shliqning joyini to'ldirish uchun ushbu darslikni yaratish ayni muddaodir.

Juda tez jadallik bilan rivojlanayotgan jamiyatimiz, ayniqsa tibbiyot sohasida bilimli kadrlar kerakligini, bo'lajak shifokorlar, tibbiyot xodimlari ma'lum bir soha va yo'nalish bilan chegaralanib qolmasdan, tibbiyotning barcha sohalari uchun ma'suliyatni his qilishni taqozo qilmoqda. Ushbu darslik nafaqat davolash fakultetlari talabalari balki boshqa fakultet studentlariga ham klinik allergologiya va immunologiya haqida chuqur bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lislari uchun qo'l keladi. Chunki har qanday tibbiyot xodimi klinik allergologiya vazifalarini, allergiya sababi, klinikasi, tashxislash hamda davolash, birinchi yordam ko'rsatish chora tadbirlarini bilishi juda zarurdir. Albatta ko'rsatilgan birinchi yordam og'ir ahvolda qolgan bemorlarning, ayniqsa anafilaktik shok, dori allergiyasi, oziq ovqat allergiyasida kuzatiladigan holatlarda bemorlar hayotini saqlab qolish uchun muhimdir.

Ushbu darslik davolash fakultetlari yo'nalishi o'quv rejasiga muvofiq klinik allergologiya faniga mos reja bo'yicha yozilgan. Kitob kirish, qisqartma so'zlar, kalendar tematik reja bo'yicha mavzular, rasmlar bilan boyitilgan.

Oxirgi yillarda allergik xastaliklarning keng miqyosida tarqalib borayotganligini hisobga olib aziz o'quvchilarga allergik kasalliklar

haqida yanada ko'proq bilim berish maqsadida lotin alifbosida darslik yaratishni lozim deb topdik.

So'nggi yillarda allergik kasalliklar sonining oshib borishi sababli allergologiya faniga e'tibor yanada kuchaydi. Oliy ta'lim dargohlarida tahsil olayotgan talabalar va shu sohada ishlayotgan shifokorlarga allergologiyaning zamonaviy va o'zbek tilidagi kitoblarga ehtiyoj sezilmoqda. Shu munosabat bilan o'zbek alifbosi lotin tilida darslik chiqarish uchun harakat qildik. Darslikning maqsadi o'zbek lotin tilida keng va aniq ma'lumotlarni chet el va respublikamiz miqyosidagi oxirgi manbalardan, hamda klinik bayonnomalar, klinik holatlardan foydalangan holda zamonaviy tushunchalarni kitobxon e'tiboriga etkazish bo'ldi.

Darslik umumiy va xususiy allergologiyadan iborat bo'lib, umumiy qismda allergik kasalliklarning tarqalishi, rivojlanish bosqichlari, etiologiyasi, patogenezi, allergenlar haqida tushunchalar, tashxislash etaplari, umumiy davolashga to'g'ri yondashish klinik immunologiya bilan o'zaro bog'liqligi to'g'risida ma'lumotlar beriladi.

Xususiy allergologiya ko'p uchraydigan allergik kasalliklar haqida kerakli ma'lumotlar bilan boyitiladi.

Allergik xastaliklar keng miqyosida tarqalib borar ekan, aholi turmush tarziga ham o'z salbiy ta'sirini ko'rsatadi (mehnat qobiliyatini yo'qotish, nogironlik, o'lim). Bu ko'rsatkichlar nafaqat sog'liqni saqlash tashkilotlariga bog'liq iqtisodiy yo'nalishga ham o'z salbiy ta'sirini namoyon qiladi. Achinarli tomoni shuki bunday xastalik bilan xastalanganlar asosan mehnat qobiliyatiga ega bo'lgan yoshlar orasida hamda industrial rivojlangan regionlarda ortib bormoqda. Respirator allergozlar Respublikamiz aholisini 10%dan ortig'ini qamrab olishi manbalarga asoslangan. Dori allergiyasi ham bundan kam bo'lmagan holda ortib borishi kuzatilmoqda. Shu yo'nalishdagi xastaliklar turli sohadagi mutaxassis shifokorlarga murojaat etadilar va ko'pincha noto'g'ri davo muolajalarini qabul qilib hattoki ko'ngilsiz hodisalar bilan yakunlanadi. Shularni e'tiborga olgan holda tibbiyot talabalarini allergologiya sohasida o'qitish zarurligi maqsadga muvofiqdir. Vrach allergolog mutaxassisligi kabi allergologiya fani uzoq yillardan beri mustaqil shakllanib o'rganilmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti so'nggi 10-yil ichida eng ko'p va keng miqyosida tarqalib borayotgan va dolzarb muammolarga olib kelayotgan allergik xastaliklarga katta e'tibor qaratmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti epidemiologik ma'lumotlariga ko'ra so'nggi 10-yil ichida (2021-yil) 40% aholi atopik

xastaliklarga chalingan. Ilmiy tekshirish ma'lumotlariga ko'ra allergik xastaliklar va shu ma'lumotlarga ko'ra noinfeksion pandemiya so'nggi 10-yil ichida ortib bormoqda (A.G.Chuchalin, 2001).

Hurmatli kitobxon darslik bo'yicha bildirilgan har qanday ijobiy munosabatlaringiz va salbiy-tanqidiy fikr mulohazalaringiz ham muallif tomonidan iliq kutib olinadi va qayta ko'rib chiqish uchun zarurat deb qabul qilinadi.

I BOB.

1.1. Allergologiyaning rivojlanish tarixi. Allergenlar haqida tushuncha

Klassik immunologiyaning asoschilari bo'lib Lui Paster, I.I. Mechnikov, P. Erlix hisoblanadi. 1881-yili Lui Paster vaktsinatsiyaning ilmiy asoslarini ishlab chiqdi va bir qator virusli va bakteriyali infeksiyalarga qarshi vaktsinatsiyalarni yaratishga muvaffaq bo'ldi (quturish kasalligiga va sibir yarasiga qarshi). Shuning uchun ham 1881-yil immunologiyani fan sifatida dunyoga kelgan yil hisoblanadi.



Lui Paster

(1822–1895)

fransuz kimyogari va mikrobiologi

1769-yili E. Djenner tomonidan chin chechakka qarshi (ospaga) emlash usulini taklif qilgan va u keng qamrovda ishlatilgan bo'lsada, immunitet hosil bo'lish usullari u vaqtda ma'lum emas edi. Emlash usuli esa xalq tabobatini kuzatish asosida ishlab chiqilgan edi. Shunday bo'lsada, bu usul yordamida millionlab odamlar hayotini saqlab qolishga erishilgan (2-rasm).



Jenner Eduard
(1749–1823)
ingliz vrachi

1888-yillarda buyuk rus olimi I. I. Mechnikov fagotsitoz ko'rinishini aniqlagan va immunitetning hujayraviy fagotsitlar nazariyasiga asos slogan.



I.I. Mechnikov
(1845–1916)
rus va fransuz biolog, immunolog, fiziolog

Bir vaqtning o'zida nemis olimi P. Erlix immune tizimning gumoral funksiyasi haqida fikrlarini keltiradi. Natijada ko'p yillar davomida immunitetning ikki qarama-qarshi nazariyasi o'zaro kurash olib borishadi. Oqibatda ikkala nazariya ham to'g'ri ekanligi, ya'ni immunitet hujayraviy va gumoral ko'rinishda yuzaga chiqishi ma'lum bo'ladi.

1908-yili I.I. Mechnikov va P. Erlixlarga immunitet to'g'risida aytilgan fikrlari va ishlari, yaratgan yangiliklari uchun xalqaro Nobel mukofotiga sazovor bo'lishadi.



Paul Erlix

(1854–1915)

nemis vrachi, immunolog, bakteriolog, ximik

Immunologiyaning asosiy yo'nalishi – organizmlarning immune-logik farqlarini o'rganish, to'qima antigenlari haqidagi ta'limot K. Landshteyner tomonidan (1900-yil) odam qon guruhleri kashf etilgandan so'ng rivojlana bordi. Immunologiya fanining rivojlanishi avvalambor virusli va bakterial infeksiyon kasalliklarga qarshi kurashga qaratilgan edi. XX asming 50-yillarida keltirilgan manbalarda immunologiya – inson va hayvonlarda infeksiyon kasalliklar chaqiruvchilariga qarshi chidamlilikni ko'paytirish omillarini o'rganuvchi va sun'iy immunitet mexanizmlarini yaratishni o'rganadigan ilmiy taraqqiyot deb ta'rif beriladi. 1945-yili ingliz tadqiqotchisi Medevlar gospiatalda yaralangan va kuyish kasalligidagi bemorlardagi teridan olingan transplantatining bitishini o'rgangan paytda, birinchi marta to'qima ko'chib tushishining asosiy sababi – begona to'qima ko'chirib o'tqazilgan retsipient organizmning

immun javob reaksiyasi ekanligini ta'kidlab o'tdi. Natijada «transplantatsion immunitet», «noinfektsion immunitet» haqidagi tushunchalar paydo bo'ldi.

O'zbekistonda immunologiya fanining rivojlanishi akademik. O'. Oripov nomi bilan bog'liqdir.



O'ktam Oripovich Oripov
(1927 – 2001)
xirurg olim

1997-yildan O'zbekiston Sog'liqni saqlash vazirligi Jigar va o't yo'llari xirurgiyasi ilmiy markazi direktori. Ilmiy ishlari murakkab radiatsion jarohatlarning kechish xususiyatlarini, organizmga radiatsion nur ta'sir qilganda shikastlangan periferik nervning o'sishini tezlashtirish, xirurgik kasalliklardagi autoimmun jarayonlarning rolini o'rganishga, jarohatlangan o't yo'lining xirurgiyasi, surunkali glomerulonefritni davolash usullari va xirurgiyaning boshqa dolzarb masalalariga bag'ishlangan. Organlarni ko'chirib o'tqazish bo'yicha mintaqada tashkil etilgan markaz asoschisi. O'rta Osiyoda birinchi bo'lib odamda buyrakni ko'chirib o'tqazgan (1972). Beruniy nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti laureati (1983). "El-yurt hurmati" ordeni bilan mukofotlangan (1998).

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligiga qarashli Immunologiya ilmiy tekshirish instituti, Toshkent Tibbiyot Akademiyasi, Samarqand tibbiyot universiteti, Toshkent pediatriya tibbiyot instituti, Ftiziatriya va pulmonologiya, Onkologiya, Dermatovenerologiya ilmiy tekshirish institutlaridagi laboratoriyalarida immunologiyaning har xil

yo'nalishida ilmiy tekshirish ishlari olib boriladi. Olimlardan R. M. Xayitov (6-rasm), N. H. Abdullayev, O. M. Najmiddinov, F. F. Garib, A. O. Obidov va boshqalarning bu sohadagi xizmatlari salmoqli.



Rahim Musayevich Xaitov
(1944-2022)

sovet va rus immunologi, professor

Allergenlar haqida tushuncha

Allergiya – (qad. yun. ἄλλος – yot, begona + ἔργον – ta'sir) bu organizmning antigen yoki yarim antigen (gapten) ta'siriga immunologik reaksiyasi bo'lib u nishon organlariga zarar yetkazadi. Allergiya (grekchadan – boshqacha ta'sir) degan ma'noni anglatadi. Boshqacha aytganda, allergiya bu organizmda gumoral va hujayraviy immunologik reaktsiyalar bilan kechuvchi kompleks buzilishlar majmuasidir.

Allergen – sezgir insonlarda turli xil allergik jarayonlarga sabab bo'lgan moddalardir. Sezuvcchanligi yuqori bo'lgan allergiyaga moyil insonlar allergen bilan to'qnashganda, allergik reaktsiya birdan yuzaga kelmaydi. Odam immun tizimi asta-sekin allergenga nisbatan sezgirlikni oshiradi.

Ma'lum vaqt o'tishi bilan tanada o'ziga xos muayyan yuqori sezgirlikka ega bo'lgan jarayon yuzaga keladi-bu sensibilizatsiya deb ataladi. Sensibilizatsiya jarayoni bir necha soat, kunlardan bir necha yillargacha davom etishi mumkin.

Immun tizimiga allergen ta'sir qilganda, yallig'lanish va qo'zgalish holatlari paydo bo'ladi. Ushbu belgilar va alomatlar allergen turiga bog'liq bo'lib, «nishon a'zolar»ga ta'sir qiladi. Allergik reaksiyalar me'da-ichakda, terida, sinuslarda, nafas yo'llarida, ko'zlar va burun yo'llarida paydo bo'lishi mumkin.

Allergik rinit va pollinozlar uchun chang va changchiga allergiya simptomlari quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi: burun bitishi, ko'zlarning qichishi, shishi, yoshlanishi, burundagi qichishish, quruq yo'tal.

Teridagi allergik ko'rinishlar ekzema (atopik dermatit) simptomlari tarzida kuzatiladi: teri qizarishi, qichishi, quruqligi, po'st tashlashi, qurushi, toshmalar toshishi

Oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan allergiya turli xil ko'rinishlarda namoyon bo'ladi: og'iz shilliq qavatlarining shishi, qayt qilish, lablar, yumshoq to'qimalarning shishi, me'da spazmi, ich ketishi va boshqalar. Hasharotlar chaqishi va dori vositalarga allergiya quyidagi belgilar bilan namoyon bo'lishi mumkin: ovozning xirillashi, tanglayning shishishi, labning shishishi, yuzning shishishi, teri toshmasi, qichima, anafilaktik shok belgilari.

Allergiya deb, tashqi muhitning turli ta'sirlari natijasida organizmni o'ta sezuvchanligining ortishi bilan boradigan reaktivlikning bir ko'rinishiga aytiladi.

Omillar:

1. Irsiy moyillik.

2. Atrof-muhit omillari:

- allergenlarning soni va tabiati

- iqlim sharoiti

- ekologik vaziyat

3. Homiladorlik va tug'ish davrida onada kuzatilgan zararli odatlar (chekish, spirtli ichimliklar, giyohvand moddalar, dorilar, infeksiya, ayrim oziq-ovqat, stress).

4. Bolalikda ovqatlanish xususiyatlari (sun'iy oziqlantirishga erta o'tkazish).

Infeksion allergenlar

Infeksion allergenlar yuqumli kasalliklarning turli qo'zg'atuvchilari va ularning hayotiy faoliyati mahsulotlaridir. Patogenezida allergen yetakchi rol o'ynaydigan yuqumli kasalliklar infeksiyon-allergik kasalliklar deb ataladi. Ularga barcha surunkali infeksiyalar (sil kasalligi, mohov, brusellyoz, sifilis, revmatizm, surunkali kandidoz va x.k) kiradi.

Keng tarqalgan allergenlar zamburug'lar hisoblanadi. Bunday zamburug'lar atmosfera havosida, uy changida, oziq-ovqat mahsulotlarida mavjud (7-8 rasm).

Allergik kasalliklar aholi orasida keng tarqalgan. O'rtacha, ular dunyo aholisining taxminan 10%ini qamrab oladi. Turli mamlakatlarda bu ko'rsatkichlar 1% dan 50% yoki undan ko'proqqa o'zgaradi.




1-rasm. Allergen turlari

1. Ekzogen allergenlar (noinfeksion allergenlar) – uy allergenlari, maishiy, epidermal, kasbiy sezuvchanlik, o'simlik changlari, oziq-ovqat, sanoat, dori-darmonlar kiradi (2-rasm).



2-rasm. O'simlik changlari, oziq-ovqatlar

2. Infeksion allergenlar-maxsus etiologik omilga ega bo'lgan bakterial, zamburug', virusli allergenlardir (3-rasm) .



3-rasm. Zamburug', lepra kasalligi

3. Endogen allergenlar (autoallergenlar)

Ko'pchilik sanoat allergenlari gaptendir. Bunga quyidagilar kiradi: epoksidli mumlar, yopishtiruvchi va qoplangan materiallar, plastmassalar, bo'yoqlar, metallar va ularning tuzlari, yog'och mahsulotlari, lateks, parfyumeriya, kir yuvish vositalari.

Uy allergenlari

Uy changlari – tarkibi 40-50% organik birikmalar va 50-60% anorganik moddalar (sement, ohak, kvars)dan iborat bo'lgan turli xil jinsli moddalardir. Ko'pincha soch, bosh qazg'oqi, par solingan yostiq, har xil bakteriyalar, gilam, mebel, gazetalar, jumallar, kitoblar javonidagi va tashqaridan kiradigan chang zarralari sababchi omil bo'ladi. Uy changi tarkibida **Dermatophagoides** (11-rasm), nomli kanalar, suvaraklar terisi, ajralmalari allergiya chaqiruvchi allergenlaridir.



11-rasm. *Dermatophagoides* kanalarining mikroskopik ko'rinishi

Uy changida yashaydigan **Dermatophagoides** nomli kanalar juda mayda, ko'z bilan ko'rib bo'lmaydi, ko'rinmaydi va yashash joylarda chang ko'p to'planadigan shkaf tagida, uy burchaklarida, gilam, yumshoq mebel, o'rin-ko'rpa, yostiqlarda bo'ladi. Uy changida yashaydigan **Dermatophagoides** nomli kanalar juda mayda, ko'z bilan ko'rib bo'lmaydi, ko'rinmaydi va yashsh joylarda chang ko'p to'planadigan shkaf tagida, uy burchaklarida, gilam, yumshoq mebel, o'rin-ko'rpa, yostiqlarda bo'ladi.

Dermatophagoides kanalari eng ko'p tarqalgan kuchli allergen bo'lib, jahon bo'yicha o'rganilgan manbalarda atopik bronxial astmaning keng tarqalgan asosiy sababchilaridan hisoblanadi. Ushbu kananing tanasi, undan ajralib chiqadigan shilliqlar va hayot faoliyatining mahsulotlari ham kuchli allergenlar qatoriga kiradi. Ular harorat +22 dan +26°S va namlik 55% dan yuqori bo'lganda yaxshi o'sib rivojlanadi.

Uy va yovvoyi hayvon allergenlari – hayvonlarning so‘lagi, peshobi va terisidan, shilliq qavatlardan ko‘chib tushgan epiteliysi allergen manbalari hisoblanadi. Mushuklar ko‘proq sensibilizatsiya xususiyatiga ega bo‘lsa, itlardan ajraladigan moddalar kamroq allergiya chaqiradi (12-rasm).



12-rasm. Uy va yovvoyi hayvon allergenlari

Suvaraklardan ajraluvchi allergenlar – uy changlari kanalariga o‘xshab, suvaraklar ham gipersensibilizatsiya xossasiga ega. Mamlakatimizda O‘rta Osiyoda juda keng tarqalgan allergiya chaqiruvchi *Blatella orientalis* nomli Osiyo suvaraklaridir (13-rasm).



13-rasm. Suvaraklar

Zamburug‘lar – ular ham yuqori sezuvchanlik chaqiradigan, qorong‘i va nam joylarda yaxshi o‘sadigan *Penicillium*, *Aspergillus*, *Alternaria*, *Cladosporium* va *Candidalar* allergiya chaqiruvchi keng uchraydigan zamburug‘lar hisoblanadi (14-rasm).



14-rasm. Zamburug'lar

Mavsumiy va yil davomida o'sadigan o'simliklar changlari – sho'ra, makkajo'xori chinor, terak changlari va jiyda gullari hidi ayniqsa sezilarli darajada allergik xossaga ega bo'lgan o'simliklardir. Bu o'simliklar oson «uchuvchan» va yetarli darajada «og'ir» bo'lgan o'simlik changlariga ega faol allergenlardir. O'simlik changlari nafaqat bronxial astma, pollinoz (allergik rinit, kon'yuktivit, dermatit, Kvinke shishi) ham keltirib chiqaradi (15-rasm).



15-rasm. O'simlik changlari

Oziq-ovqatdan kelib chiqadigan allergenlar – eng ko'p allergik jarayonlarga sabab bo'luvchi mahsulotlar ko'pincha tuxum, baliq, sut, yong'oq, dukkakli mahsulotlar, asal, rangli, gazli ichimliklar, pista-bodom, shokolad hamda sitrus mevalariga (apelsin, mandarin), poliz ekinlarilarga (qovun, tarvuz, qulupnay) nisbatan allergiya ko'proq kuzatiladi (16-rasm).



16-rasm. Oziq ovqat allergenlari

Dori –darmonlardan kelib chiqadigan allergik holatlar – oxirgi vaqtlarda dorilar allergik kasalliklarning ko‘payishida muhim omillardan bo‘lib qolmoqda. Ko‘pincha penitsillin, streptomitsin, tetratsiklin, sulfanilamidlar, ferment preparatlari, immunoglobulinlar, zardoblar, nosteroid yalliglanishga qarshi vositalaridan allergiya kuzatiladi. Natijada nafas yo‘llarida havo etishmaslik, bo‘gilish, quruq yo‘talga dori allergiyasi sabab bo‘lib va bu salbiy oqibatlariga, og‘ir asoratlarga sabab bo‘lishi mumkin (17-rasm).



17-rasm. Dori allergenlar

Infekcion agentlar – organizmdagi har xil o‘tkir va va surunkali yallig‘lanish jarayonlari, spesifik va nospesifik infekcion omillar asta sekin gipersezuvchanlik holatlarini keltirib chiqaradi. Spesifik chaqiruvchisi bo‘lgan sil kasalligi, moxov, brusellioz, kandidoz terida bo‘ladigan allergik toshmalarni keltirib chiqaradi. Nospesifik infeksiyalar yuqori nafas yo‘llarining o‘tkir virusli infeksiyasi, bronxitga tez-tez

chalinish, bakterial infeksiya, atipik infeksiyalar chlamydia pneumonia, mikoplazma taʼsirida bronxial astma, allergik rinit kasalligi kelib chiqishi mumkin. Sabablari ushbu kasalliklar oqibatida bronxlardagi shilliq qavatning kiprikli epiteliylarining yoʻqolib borishi va mukosiliar klirensning izdan chiqishi hamda adashgan nerv reseptorlari sezuvchanligining oshishi hisoblanadi. Virus infeksiyasi bronxlarning giperreaktivligini oshiradi, semiz hujayralarda yalligʻlanish markeri boʻlgan biologik faol moddalar ishlab chiqarilishini kuchaytiradi. Ushbu jarayonlar oʻz navbatida hujayra ichidagi bakteritsid mexanizmlar va alveolyar makrofaglarga zarar etkazib, yalligʻlanish jarayonini kuchaytiradi. Natijada β_2 reseptorlarning faoliyatiga zarar etkazib, xolinoreseptorlarning faollashuvini kuchaytiradi.

Kimyoviy taʼsirlar – kasbiy faoliyatida zaharli kimyoviy moddalar bilan kontaktda ishlovchi qishloq xoʻjaligi xodimlari, fabrikalar, kimyoviy moddalar ishlab chiqaruvchi korxonalar, parrandachilik fabrikalari ishchilari orasida keng tarqalgan. Ushbu kimyoviy moddalar semiz hujayralardan gistamin ajralib chiqishiga sabab boʻladi. Oʻz navbatida allergik jarayon faollashishiga sababchi boʻladi. Yana koʻplab misollar keltirish mumkin. Ekologik yashash muhitning zararli omillari (orol dengizining qurishi, havoning har xil havodagi gazlardan ifloslanishi), oziq-ovqat sanoatida hamda taom tayyorlashda ishlatiladigan turli kimyoviy qoʻshimchalar, passiv va faol tamaki chekish, kosmetika, parfyumeriya vositalaridan koʻp foydalanish ham allergiyaga sabab boʻluvchi muhim omillardir (18-rasm).



18-rasm. Kimyoviy allergenlar

Triggerlar (toʻsatdan nafas siqishining sabablari) shilliq pardalar yalligʻlanishi natijasida, bronxlarning birdan torayib qolishiga, spazm boʻlishiga olib keladigan va bronxial astma xurujiga sabab boʻladigan xavfli omillardir. Yuqoridagi omillardan tashqari, jismoniy zoʻriqish, sovuq havo, achishtiruvchi gazlar, ob-havo oʻzgarishlari, his-tuygʻular va

asablarning haddan tashqari zo'riqishi, homiladorlik, hayz ko'rish ham triggerlar qatoriga kiradi (19-rasm).



19-rasm. Triggerlarning inson organizmiga ta'siri

Havoning ifloslanishi. Bronxial astma kechishini og'irlashtiruvchi asosiy omildir. Uning ifloslanishida azot ikki oksidi, azon, benzin, uglevodorod, formaldegidlar katta ahamiyatga ega. Havo pollyutantlari avtotransportlar qatnovi ko'p bo'lgan shahar ko'chalarida havoni zaharlaydi. Oxirgi yillarda passiv chekishning nafas yo'llariga toksik ta'sir etishi ta'kidlanmoqda va u bolalar uchun juda xavflidir (20-rasm).



20-rasm. Havoning chang – to'zondan ifloslanishi


1.2. Hujayraviy va gumoral immunitet. Allergik reaksiyalarning 4 turi

Ko'pchilik immunitet tizimini infeksiyadan himoya sifatida biladi. Bakteriyalar, viruslar, zamburug'lar yoki parazitlar kabi kasallik qo'zg'atuvchilardan himoya qilish bu organizmning o'zini himoya qilishning faqat bitta vazifasidir. Sog'lom immunitet tizimi, masalan,

saraton hujayralari bilan kurashadi yoki tana hujayralarini zararli ta'sirlardan himoya qiladi. Boshqa tomondan, nuqsonli immunitet tizimi allergiya, revmatik kasalliklar yoki boshqa autoimmun kasalliklarni keltirib chiqaradi.

Immun tizimi nihoyatda murakkab tizimdir. Ushbu tizimning eng muhim kiritmalariga antitelolar, B limfotsitlari, T limfotsitlari va ularning kichik guruhlar hamda tabiiy qatil hujayralar kiradi.

Antitana-bu immunoglobulinlar deb ataladigan jargon atamadir. Bu immunitet tizimi patogenlar yoki ularning tarkibiy qismlari bilan aloqa qilgandan keyin ishlab chiqaradigan maxsus oqsillarning katta guruhidir. Immunoglobulinlar B limfotsitlari tomonidan ishlab chiqariladi (21-rasm).



21-rasm. Fagositoz jarayoni

Fagotsitoz haqidagi ta'limot asoschisi I. I. Mechnikov, quyi-sodda organizmlarda fagotsitoz ovqat hazm qilish vazifasini amalga oshirishini, yuqori organizmlarda himoya funksiyasini bajarishini ko'rsatib berdi. Ulug' rus olimi fagotsitar xususiyatga ega bo'lgan hujayralar-fagotsitlarni mikrofaq va makrofaqlarga bo'lib chiqdi. Makrofaqlar, ya'ni granulotsitlar (neytrofillar, eozinofillar) mikroblar tushgan joyda birinchi bo'lib qarshilik ko'rsatishadi. Makrofaqlarga harakatchan qon monotsitlari, poliblastlar, gistiotsitlar, harakatsizlariga esa – taloq hujayralari, limfatik to'qima, Kupfer hujayralari, qon-tomirlarning endoteliy hujayralari kiradi. Fagotsitoz (yunoncha-phagos – yeyish, citos-hujayra, 1882-yilda I. I. Mechnikov aniqlagan) reaksiya quyidagi 5 bosqichni o'z ichiga oladi:

1. Fagotsitning fagotsitoz ob'ektiga yaqinlashishi
2. Uni yutib yuborishi
3. Hujayra ichida hazm qilishi
4. Fagosoma hosil qilishi
5. Lizisga uchrashi

Agarda yutilgan mikroblar hazm qilinsa, fagotsitoz tugallangan hisoblanadi. Ba'zi bir infeksiyalarda (gonoreya, tuberkulyoz, lepra-moxov, leyshmanioz va b.) fagotsitoz tugallanmagan bo'lishi mumkin, chunki fagotsitlar tomonidan mikroblar halok bo'lmay, aksincha hujayra ichida ko'payadi. Fagotsitlar tomonidan yutilgan mikroblar hujayrani yorib chiqishi kuzatiladi.

B limfotsitlar

B limfotsitlari (qisqacha B hujayralari) – bu leykotsitlar deb ataladigan oq qon hujayralarining ma'lum bir guruhi. Ular immunitet tizimida markaziy rol o'ynaydi, chunki ular bir tomondan begona mikroblar va moddalarni tanib olishda va boshqa tomondan antitana hosil bo'lishida ishtirok etadi. B limfotsitlari – boshqa hujayralar singari-suyak iligidagi ildiz hujayralaridan paydo bo'ladi. Ildiz hujayrasidan antitana hosil qiluvchi B-limfotsitgacha rivojlanish jarayonida turli xil genetik nuqsonlar turli xil kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Ikkala misol-B-hujayrali Xodjkin bo'lmagan limfomalar va B-hujayralar limfoblastik leykemiya.

T limfotsitlar

T limfotsitlar (T hujayralari deb ham ataladi) – leykotsitlar deb nomlangan oq qon hujayralarining yana bir turi. Ushbu himoya hujayralari suyak iligida ham hosil bo'ladi va B hujayralari singari

orttirilgan immunitet tizimiga tegishli. Ular timus bezida o'zlarining haqiqiy "mashg'ulotlarini" boshdan kechirishadi, masalan qo'ziqorin yoki virusli infeksiyalarga qarshi kurashish. Buning uchun T limfotsitlar hujayralarning hujayra membranalarini boshqaradi. Ammo T limfotsitlari o'z-o'zidan patogenlarni taniy olmaydi. Buning uchun ular B limfotsitlari kabi antigen taqdim etuvchi hujayralarga ishonadilar. Ushbu hujayralar patogenlar bilan to'qnashganda T limfotsitlar faollashadi.

T yordamchi hujayralar

T yordamchi hujayralar T limfotsitlarning kichik guruhidir. Ular taqdim etilgan antigenlarni taniydilar va organizmning o'z mudofaa tizimining faol bo'lishi zarurligini hal qilishadi. Agar shunday bo'lsa, T yordamchi hujayralari retseptorlari deb nomlangan qotil hujayralarga ma'lumot uzatadi. Keyin ular yuqtirilgan yoki zararlangan hujayralarni yo'q qiladi.

T supressor hujayralari

T limfotsitlarining yana bir muhim kichik guruhi T supressor hujayralaridir. Patogenlar bilan muvaffaqiyatli kurashgandan so'ng, ular faol immunitet tizimini bostiradilar. Bu sog'lom tana to'qimalariga qarshi ortiqcha immunitet reaksiyalarining oldini oladi (autoimmun reaksiyalar deb ataladi).

T xotira hujayralari

Xotira T hujayralari T limfotsitlariga ham tegishli. Bular nazorat qilinadigan patogenlar to'g'risidagi ma'lumotlarni saqlash orqali profilaktik ta'sirga ega. Xuddi shu patogen tanaga yana kirib borishi bilanoq, T xotira hujayralarining "bilimi" tezkor mudofaa choralarini ko'rishga imkon beradi. Bu tez-tez sodir bo'ladiki, infeksiya hatto sezilmaydi.

Fagositlar

Fagotsitlar immun tizimining ixtisoslashgan hujayralari bo'lib, ular fagotsitlar yoki makrofaglar deb ham ataladi. Ular tug'ma mudofaa tizimiga tegishli. Yirtqich hujayralar patogenlar yoki hujayra qoldiqlari kabi aniqlangan begona jismlarni o'rab oladi va ularni parchalaydi. B va T limfotsitlari singari, fagotsitlar ham oq qon hujayralari, leykotsitlarga tegishli. Leykotsitlarning pastki turlari monotsitlar (ular makrofaglarga aylanadi) va granulotsitlar (o'z navbatida uchta kichik guruhga bo'linishi mumkin) kabi immunitet hujayralari.

Tabiiy qotil hujayralar

Tabiiy killer hujayralar – bu B yoki T limfotsitlar guruhiga kirmaydigan oq qon hujayralarining yana bir kichik guruhidir. Fagotsitlar

singari, ular tug'ma immunitet tizimining bir qismidir. Tabiiy qotil hujayralar o'z nomlarini oldi, chunki ular ushbu hujayralarning, ayniqsa virus bilan yuqadigan yoki degeneratsiyalangan hujayralardagi (saron) hujayralardagi dasturlashtirilgan o'limiga olib kelishi mumkin. Shifokorlar dasturlashtirilgan hujayralar o'limini apoptoz deb atashadi. Yaxshiyamki, asosiy immunitet tanqisligi juda kam uchraydi. Har 10000 tug'ilganlar uchun 1ta tug'ma immunitet tanqisligi holati mavjud. Kasalliklarning taxminan 70% antitanalarning etishmasligi bilan immunitet tanqisligi. Jabrlanganlarning umumiy soni 300dan ortiq tashxisga tarqalganligi sababli, ko'plab asosiy immunitet tanqisligi kam uchraydigan kasalliklar, tashxis qo'yilmaydigan kasalliklardir.

Hozirgi zamon immunologiyasi talqiniga ko'ra immunitet tushunchasi organizmda genetik yot ma'lumotlarni tashuvchi tirik tana va moddalardan o'zini himoya qilish xususiyati tushuniladi. Immunitet organizmni nafaqat mikroblardan, balki gistomansublikning atigi bitta geni bilan farq qiluvchi hujayra va to'qimalardan ham himoya qiladi.

Inson immuniteti tananing turli patogen ta'sirlarga, xususan, yuqumli agentlarga va zararli bakteriyalarga qarshi turish qobiliyatidir. Immun tizimi tufayli muayyan mikroorganizmlarga, shuningdek ularning hayotiy faoliyati mahsulotlariga immunitet holati doimiy ravishda saqlanib turadi. Immun tizimining tarkibiy qismlari tashqi muhitdan kelib chiqqan yoki ichkaridan xavfli bo'lgan begona tuzilmalarni (antigenlarni) taniydi va yo'q qiladi.

Bundan tashqari immunitetning asosiy vazifalaridan biri – xavfsiz va xavfli o'smalarga qarshi kurash. Turli mikroorganizmlar, viruslar, ularning hayot faoliyatidagi ajratilgan mahsulotlari, o'sma hujayralari, transplantatlar, allergenlar, oqsillar, polisaxaridlar va boshqalar organizm uchun genetik begona hisoblanadi. Immun tizimining asosiy funktsiyasi tanadan farqlash, tanib olish, neytrallashtirish va turli viruslar, bakteriyalar, toksinlar, qo'ziqorinlar, o'simta hujayralari va transplantatsiya qilingan hujayralar harakat qilishi mumkin bo'lgan begona moddalarni aniqlashdir.

Antigenlarga qanday ta'sir qilishiga qarab masalan yemirish va zararsizlantirish xossasiga ko'ra immunitetning ikki xili turi ajratiladi:

Gumoral immunitet-bu jarayonda antitelolar yordamida antigenlarning zararsizlantirilishi birinchi o'rinda turadi. Bu immunitetning ishchi (effektor) hujayralari plazmatik hujayralar yoki plazmotsitlar bolib, ular tomonidan antitelo ishlab chiqariladi

Plazmotsitlar o'z navbatida B-limfotsitlardan hosil bo'ladi. Bu jarayonda T- limfotsitlar va mikromuhit hujayralari ham faol qatnashadi.

"Gumoral" so'zi suyuqlik, namlik deb tarjima qilinadi va tanadagi suyuqlikni anglatadi: qon, balgam, limfa va boshqalar. Gumoral immunitetning o'ziga xos xususiyatlari bor. Uning funksiyasi qondagi va hujayradan tashqaridagi bakteriyalarni aniqlash va yo'q qilishdir. B-limfositlar immunitetini ta'minlaydi. Limfotsitlar antigenni uchratganda ular suyak iligiga, limfa tugunlariga, taloqqa, yo'g'on va ingichka ichakka, limfa va boshqa joylarda bodomsimon bezlarga o'tishadi. Ular faol ravishda bo'linadi va plazma hujayralariga aylanadi. B-limfotsitlar antitelolarni yoki boshqa immunoglobulinlarni ishlab chiqaradi – bu bakteriyalar, viruslar bo'lishi mumkin.

Immunoglobulinlarning beshta turi mavjud:

- 1.A (Ig A);
- 2.D (Ig D);
- 3.E (IgE);
- 4.G (IgG);
- 5.M (Ig M);

Umuman olganda, tanadagi limfotsitlar mavjud bo'lganlarning 15% ni tashkil qiladi. Gumoral immunitetning ko'rsatkichlari, gumoral immunitet ko'rsatkichlari bo'yicha tananing antibiotiklar va boshqa elementlardan himoya qilinadigan boshqa moddalar miqdori, shuningdek organizmdagi turli to'qimalar va suyuqliklarning faolligi viruslar va bakteriyalarni yanada zararsizlantirishdir. Gumoral immunitetni baholash va anomaliyalarni aniqlash uchun immunogramma tahlil qilinadi. Bu holatda A, M, G, E sinflarining immunoglobulinlari va B-limfotsitlar miqdori, shuningdek, profilaktik emlashlar o'tkazilgandan so'ng interferon va kompliment ko'rsatkichlari indeksleri aniqlanadi. Ushbu tahlil uchun venadan qon olinadi.

2. Hujayraviy immunitetda antigenlar maxsus qotil (killer – qotil) hujayralar tomonidan o'ldiriladi va yemiriladi. Masalan, yot hujayralar va organizmning o'zida hosil bo'ladigan, genetik mutasiyaga uchragan o'sma hujayralar. Bu immunitet jarayonida effektor hujayralar bo'lib, T-limfotsitlarning bir turi bo'lgan T killerlar va maxsus «tabiiy killerlar» (TK) hisoblanadi. Ushbu hujayralarni boshqacha nomi sitotoksik ta'sir ko'rsatuvchi hujayralar deb ataladi (cytos – hujayra, toksin – zahar, ya'ni hujayrani zaharlovchi degan ma'noni anglatadi).

Manbalarda keltirilishicha immunitet tushunchasi organizmning o'zida begona genetik axborotni tashuvchi tirik tana va moddalardan

himoyalaniş usuli tushuniladi. Genetik begona axborotni bakteriyalar, viruslar, sodda hayvonlar va o'simliklar, gelmintlar, oqsillar, hujayralar, shu jumladan organizmning o'zgargan shaxsiy hujayralari tashib yuradi. Ushbu sanab o'tilgan omillar antigenlar deb yuritiladi. Antigenlar deb organizmga tushgandan keyin antitanalar hosil qiladigan moddalardir. Mashhur avstriyalik olim F. Bernet (1961 y.) immun tizimning asosiy ahamiyati «o'ziniki» va «begonalik» xususiyatlarini aniqlash, shuningdek organizm ichki muhiti doimiyligi – gomeostazni saqlashda ekanligini ta'riflab berdi. Demak, immunologiyaning o'rganish predmeti – organizmda gomeostazni buzuvchi ekzogen va endogen omillardan himoya qiladigan murakkab, ko'p komponentli immun tizimdir.

Orttirilgan immunitet 1 tabiiy va 2 sun'iy immunitetlarga bo'linib, har biri aktiv (faol) va passiv (nafaol) bo'ladi. Tabiiy faol immunitet kasallikni boshdan kechirganidan so'ng hosil bo'ladi, tabiiy passiv immunitet yangi tug'ilgan chaqaloqlarda bo'lib, onadan qorinda rivojlanganda yo'ldosh orqali va tug'ilgandan so'ng ona suti orqali o'tadi. Sun'iy immunitet vaktsina yuborilganidan so'ng (faol immunitet) yoki immun zardobi, immunoglobulinlar yuborilgandan so'ng (passiv immunitet) hosil bo'ladi.

Immunoglobulinlar – Ig G, Ig M, Ig A, Ig D, Ig E. Immunoglobulinlar limfa hujayralarida sintezlanadi va immunitet hosil bo'lishida ishtirok etadi; ular, asosan, qonda, qisman so'lak, o't, orqa miya suyukligi, peshob, turli sekretlar va b. to'qima suyuqliklarida bo'ladi. Ular B limfotsitlarini hosil qiluvchi molekulalar va organizmning mudofaasi bilan hamkorlik qiladigan plazma hujayralari. Ular immunitet tizimiga mansub glikoprotein biomolekulasidan iborat. Ular qon zardobida albumindan keyin eng ko'p uchraydigan oqsillardan biridir. Immunoglobulinlarning asosiy effektor reaksiyalari har bir antigenga o'ziga xos antitelolar ishlab chiqish orqali amalga oshadi. Uning bu xususiyatidan tibbiyotda ayrim infeksiyon kasalliklarni (ko'kyo'talga, stafilokokga qarshi immunoglobulinlar) davolashda foydalaniladi (22-rasm).



22-rasm. Immunomodulyatorlar

Antitanachalar – bu immunoglobulinlarning yana bir nomi va ular tarkibidagi qon zardobining elektroforezidagi xatti-xarakatlari tufayli ular

globulinlar hisoblanadi. Immunoglobulin molekulasi oddiy yoki murakkab bo'lishi mumkin, bu uning taqdimoti monomer shaklida bo'ladimi yoki u polimerizatsiya qilinganligiga bog'liq. Immunoglobulinlarning umumiy tuzilishi "Y" harfiga o'xshaydi. Antitelolarning strukturaviy farqlari shaklda emas, balki tarkibida; har bir tur ma'lum bir maqsadga ega.

Immunoglobulinlar tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan immunitet reaksiyasi juda aniq va juda murakkab mexanizm. Hujayralar tomonidan uning sekretsiyasini rag'batlantirish organizmga begona moddalar, masalan, bakteriyalar mavjud bo'lganda faollashadi. Immunoglobulinning roli begona element bilan bog'lanish va uni yo'q qilishdan iborat bo'ladi. Immunoglobulinlar yoki antitelolar qonda ham, organlarning membranalari yuzasida ham bo'lishi mumkin. Ushbu biomolekulalar inson tanasining mudofaa tizimidagi muhim elementlarni aks ettiradi. Antitelolarning tuzilishi aminokislotalar va uglevodlarni, oligosaxaridlarni o'z ichiga oladi. Aminokislotalarning ustunligi, ularning miqdori va tarqalishi immunoglobulinning tuzilishini belgilaydi. Barcha oqsillar singari, immunoglobulinlar ham birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi va to'rtinchi darajali tuzilmalarga ega bo'lib, ularning tipik ko'rinishini belgilaydi. Immunoglobulinlarning beshta turini aniqlaydigan og'ir zanjirlarning beshta turi mavjud, ularning vazifalari har xil.

Immunoglobulin G (IgG). Immunoglobulin G eng ko'p turidir. U gamma og'ir zanjirga ega va bir molekulyar yoki monomerlik shaklda uchraydi. Ig G qon zardobida ham, to'qima bo'shlig'ida ham eng ko'p uchraydi. Uning og'ir zanjiridagi aminokislotalar ketma-ketligining minimal o'zgarishi uning pastki tiplarga bo'linishini aniqlaydi: 1, 2, 3 va 4.

Immunoglobulin M (Ig M) Immunoglobulin M – og'ir zanjirim bo'lgan pentamer. Uning molekulyar og'irligi yuqori, taxminan 900000. Uning og'ir zanjirining aminokislotalar ketma-ketligi uning Fc fraksiyasida 440ga teng. U asosan qon zardobida uchraydi, immunoglobulinlarning 10dan 12%. IgMda faqat bitta kichik tip mavjud.

Immunoglobulin A (Ig A)- IgA qonda ham, sekretsiyada ham, hatto ona sutida ham uchraydi, monomer yoki dimer shaklida bo'ladi. Ushbu immunoglobulinning molekulyar og'irligi 320 000 ni tashkil qiladi va u ikkita kichik tipga ega: IgA1 va IgA2.

Immunoglobulin E (Ig E) Immunoglobulin E gtipdagi og'ir zanjirdan tashkil topgan va qon zardobida juda kam, 0,002% atrofida. IgE

molekulyar og'irligi 200 000 ga teng va monomer sifatida asosan qon zardobida, burun shilliq qavati va tufukda mavjud. Ushbu immunoglobulinni bazofillar va zararlangan hujayralarida topish odatiy holdir.

Immunoglobulin D (IgD) Og'ir zanjir navi immunoglobulin D ga to'g'ri keladi, bu umumiy immunoglobulinlarning 0,2% tashkil qiladi. IgD molekulyar massasi 180000ga teng va monomer sifatida tuzilgan. Bu ularning yuzasiga biriktirilgan B limfotsitlari bilan bog'liq. Biroq, IgDning roli aniq emas.

Xususiyatlari

Immunoglobulinlarning immunitet tizimidagi o'rni tanani himoya qilish uchun juda muhimdir. Immunoglobulinlar gumoral immunitet tizimining bir qismidir; ya'ni ular patogenlar yoki zararli vositalardan himoya qilish uchun hujayralar tomonidan chiqariladigan moddalardir. Ular immunitet tizimining bir qismi sifatida katta ahamiyatga ega bo'lgan samarali va aniq tizimni himoya qilish vositalarini beradi. Ular immunitet doirasidagi umumiy va o'ziga xos funktsiyalarga ega.

Umumiy funktsiyalar

Antitelolar yoki immunoglobulinlar ikkala mustaqil funktsiyani bajaradi va hujayralar vositasida effektor va sekretor reaktsiyalarni faollashtiradi.

Antigen-antiteloni bog'lash

Immunoglobulinlar antigen agentlarini maxsus va tanlab bog'lash funktsiyasiga ega. Antigen-antitelo kompleksini shakllantirish immunoglobulinning asosiy vazifasidir va shuning uchun antigen ta'sirini to'xtata oladigan immunitet javobidir. Har bir antitelo bir vaqtning o'zida ikki yoki undan ortiq antigen bilan bog'lanishi mumkin.

Effektor funktsiyalari

Ko'pincha antigen-antitelo kompleksi hujayraning o'ziga xos reaktsiyalarini faollashtirish yoki antigenni yo'q qilishni belgilaydigan hodisalar ketma-ketligini boshlash uchun tashabbuskor bo'lib xizmat qiladi. Effektorning eng keng tarqalgan ikkita reaktsiyasi hujayralarni bog'lash va komplementni faollashtirishdir. Hujayraning bog'lanishi immunoglobulinning antigen bilan bog'langandan keyin Fc segmenti uchun o'ziga xos retseptorlari mavjudligiga bog'liq. Zararlangan hujayralar, eozinofillar, bazofillar, limfotsitlar va fagotsitlar kabi hujayralar ushbu retseptorlarga ega va antigenni yo'q qilish mexanizmlarini ta'minlaydi. Komplementning faollashishi ketma-ketlikning boshlanishini o'z ichiga olgan murakkab mexanizmdir,

shuning uchun yakuniy natija antigenlarni yo'q qiladigan zaharli moddalarning ajralishi hisoblanadi.

Muayyan funktsiyalar

Birinchi, immunoglobulinning har bir turi o'ziga xos himoya funktsiyasini ishlab chiqadi:

Immunoglobulin G

G immunoglobulin antigenik vositalardan, shu jumladan bakteriyalar va viruslardan himoya vositalarining katta qismini ta'minlaydi.

Ig G komplement va fagotsitoz kabi mexanizmlarni faollashtiradi.

Antigenga xos bo'lgan Ig G konstitutsiyasi mustahkamdir.

Homiladorlik paytida onaning farzandlariga o'tkazishi mumkin bo'lgan yagona antitelo – bu IgG.

Immunoglobulin M

Ig M – bu zararli va yuqumli moddalarga tezkor ta'sir ko'rsatadigan antitelo, chunki u IgG bilan almashtirilguncha darhol harakatni ta'minlaydi. Ushbu antitelo limfotsitlar membranasiga kiritilgan hujayra reaksiyalarini va komplement kabi gumoral reaksiyalarni faollashtiradi.

Bu odamlar tomonidan sintez qilingan birinchi immunoglobulin.

Immunoglobulin A

Bu shilliq qavatining yuzalarida joylashgan bo'lib, patogenlarga qarshi himoya to'siq vazifasini bajaradi.

Bu nafas olish shilliq qavati, ovqat hazm qilish tizimi, siydik yo'llarida, shuningdek tufik, burun shilliq pardasi va ko'z yosh kabi sekretsialarda mavjud. Komplementning faollashuvi past bo'lsada, uni bakteriyalarni yo'q qilish uchun lizosimlar bilan bog'lash mumkin.

Ham ona sutida immunoglobulin D borligi yangi tug'ilgan chaqaloqqa uni emizishda olish imkoniyatini beradi.

Immunoglobulin E

Immunoglobulin E allergiya hosil qiluvchi antigenlarga qarshi kuchli himoya mexanizmini ta'minlaydi.

Ig E va allergenning o'zaro ta'siri yallig'lanish, allergiya alomatlari uchun javob beradi, masalan, bo'g'ilish xurujlari, hansirash, yo'tal, toshmalar, ko'z yoshi oqishi va rinoreya ko'payadi.

Ig E shuningdek, o'z Fc segmenti orqali o'zini parazitlar yuzasiga yopishtirib, ularning o'limiga sabab bo'ladigan reaksiya hosil qilishi mumkin.

Immunoglobulin D

Ig Dning monomerlik tuzilishi antigenlar bilan ta'sir o'tkazmagan B limfotsitlari bilan bog'langan, shuning uchun ular retseptorlari rolini o'ynaydi.

Ig Dning roli aniq emas.

Limfotsitlar, turlari, vazifasi

Immun tizim ishlashi uchun muhim bo'lgan immunokompetent hujayralar haqida tushuncha. Immunokompetent hujayralarni asosan ikki turga ajratish mumkin:

1. Limfotsitlar. Ular o'z navbatida ikki xil hujayralarga – T-(timusga tobe) va B- (suyak ko'migiga tobe) limfotsitlarga tafovut qilinadi. Yana immunitetda na T-, va B-limfotsitlarga mansub «tabiiy killerlar» ham ishtirok etadi.


2. Yordamchi hujayralar. Bularga makrofaglar, interdigitlovchi va dendritli hujayralar kiradi. Bu hujayralar immun sistema a'zolarida T- va B-limfotsitlar uchun maxsus mikromuhit bilan birga, limfotsitlarning antigenlarni zararsizlantirish jarayonida ham faol ishtirok etadi. Immunitetning yordamchi hujayralari qatoriga retikulyar hujayralarni, eozinofil va bazofil leykotsitlarni, to'qima bazofillarini va hakoazolarni ham kiritish mumkin. T- va B-limfotsitlarning ko'payishi va differensiallashishi antigenga bog'liq yoki bog'liq bo'lmagan holda kechishi mumkin. Antigenga bog'liq bo'lmagan ko'payish va shakllanish jarayoni immun sistemaning markaziy organlarida (timusda va qizil suyak ko'migida) amalga oshadi. Bu a'zolarida T- va B-limfotsitlar mikromuhit hujayralari ta'sirida yetiladi. Antigenga bog'liq jarayonlar esa periferik immun-himoya a'zolarida sodir bo'ladi. Organizmga antigen turli yo'llar bilan tushishi mumkin. Antigen uchun eng asosiy «darvozalar» ovqat hazm qilish, nafas olish, siydik chiqaruv yo'llari va boshqa a'zolarning shilliq pardalari hisoblanadi (23-rasm).

T limfotsitlar hujayraviy immunitetning asosiy tuzilmalaridir. Bundan tashqari, ular gumoral immunitetda ham faol ishtirok etadi va umumiy immun-himoya reaksiyalarini boshqarishda muhim o'rin tutadi. Hozirgi paytda T limfotsitlarni bajaradigan vazifasiga qarab quyidagi asosiy turlari (subpopulyatsiyalari) farq qilinadi:

T killerlar, ya'ni qotil limfotsitlar. Ular yot hujayralarga ta'sir etib, ularni o'ldirish va yemirishda ishtirok etadi.

T xelperlar (helper – yordamchi) – gumoral va hujayraviy immunitetda yordamchi vazifani o'taydi. Ular antigenni tanib olib, B-

limfotsitlarni shu antigenga qarshi antitelolar ishlab chiqaruvchi plazmotsitlarga aylantirishga yordam beradi.



23-rasm. T limfositlar

T supressorlar (supressor – pasaytiruvchi) B-limfotsitlarning plazmotsitlarga aylanish jarayonini susaytiradi va shu tufayli antitelo hosil bo‘lishini boshqarishda ishtirok etadi.

T amplifayerlar (amplifier – kuchaytiruvchi) o‘z navbatida T-killerlar va T-xelperlarning faoliyatini kuchaytiradi.

T differensiallovchilar (differentiator – belgilovchi) qonning o‘zak hujayralariga ta‘sir ko‘rsatib, ularning ma‘lum bir yo‘nalishda ko‘payishini hamda shakllanishini boshqaradi.

Hozirgi zamon immunologiyasi talqiniga ko‘ra immunitet tushunchasi organizmning genetik yot ma‘lumotni tashuvchi jonli narsa va moddalardan o‘zini himoya qilish xususiyati tushuniladi. Immunitet organizmni nafaqat mikroblardan, balki gistomansublikning atigi bitta geni bilan farq qiluvchi hujayra va to‘qimalardan ham himoya qiladi. Bundan tashqari immunitetning asosiy vazifalaridan biri xavfsiz va xavfli o‘smalarga qarshi kurash. Turli mikroorganizmlar, viruslar, ularning hayot faoliyatidagi ajratilgan maxsulotlari, o‘sma hujayralari, transplantatlar, allergenlar, oqsillar, polisaxaridlar va boshqalar organizm uchun genetik begona hisoblanadi. Organizmda immun jarayonning nazoratni oshiradigan maxsus tizim immunitet tizimi deb ataladi.

Immunitetning markaziy a‘zolariga timus, fabritsus xaltachasi (qushlarda) yoki odamdan uning analogi (bodomcha bezlar va chugalchangsimon o‘simta) kiradi. Suyak ko‘migida ko‘chib yurish

qobiliyatiga ega bo'lgan va barcha limfoid to'qimalarning o'ziga xos qurilish materiali bo'lgan o'zak hujayralar bo'lganligi uchun ham immunolog R.V. Petrov ta'rifiga ko'ra markaziy immun tizimi a'zolaridan biri hisoblanadi.

Periferik immun tizimi a'zolariga taloq, limfa tugunlari, turli a'zo va to'qimalardagi limfoid to'plamlar kiradi. Yuqoridagi barcha a'zolar qon va limfa oqimlari orqali o'zaro bitta tizimga birikadi va aloqada bo'ladi. Immun tizimning asosiy biriktiruvchi zvenosi bo'lib limfotsit hisoblanadi. Limfotsitlar barcha leykotsitlarning taxminan 30% tashkil qiladi (1 ml qonda 2000 ta limfotsit bo'ladi). Markaziy immun tizimi a'zolari – timus va bursa (Fabrisius xaltachasi) nomidan ularga tobe bo'lgan limfotsit tizimlari: T-tizim va B-tizim (T-limfotsitlar va B-limfotsitlar) o'z nomlarini olishgan. T-tizim hujayraviy immun tizim reaksiyalarini, B-tizim esa gumoral immun reaksiyalarni amalga oshiradi. Hujayraviy immun reaksiya sekinlashgan tipdagi yuqori sezgirlik reaksiyasi, o'sma hujayralarini yemirilishi, transplantatni ko'chirish reaksiyasiga javob bersa, gumoral immun reaksiyada antitanalar hosil bo'ladi. O'zak hujayralar murtakda sariqlik xaltachasida, keyin esa embrional davrda qon hosil qiluvchi jigarda, yetuk organizmda esa suyak ko'migida doimo hosil bo'ladi va limfatik a'zolarga tarqaladi.

Bu hujayralarning bir qismi qon orqali timusga borib, bir necha marta bo'linadi, differentsirovkani o'taydi va timus gormonlari (timozin, timopoetin) ta'sirida yangi antigenlik xususiyatiga ega bo'ladi. Timus markaziy immun tizimining eng muhim a'zosi bo'lib, shakllanishi embrional rivojlanishning 4-oyida tugallanadi. Uning po'stloq qismi limfotsit to'plamlariga boy, mag'iz qismi esa markazga yo'nalgan epitelial hujayralardan iborat. Voyaga yetgan odamlarda timus 25-27 yoshdan boshlab involyutsiyaga uchraydi va keyinchalik uning o'rnida yog' to'qimasi rivojlanadi. 9-12 yoshli bolalarda timusning massasi maksimal (30-40 gramm), yangi tug'ilgan chaqaloqlarda esa 10-15 gramm bo'lib, umumiy og'irligining 0,5% tashkil qiladi. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarning talog'i 11 gramm, yuragi 24 gramm, qalqonsimon bezi 4 gramm atrofida bo'lishini e'tiborga olsak, ancha yirik a'zo ekanligini ko'ramiz. 1960-yillardagi tajribalarda organizmdan, ya'ni yangi tug'ilgan hayvonlarning timusi butunlay olib tashlanganda, ularning qonida limfotsitlar juda kam bo'lishi, antitanalarning hosil bo'lmasligi, operatsiya qilingan hayvonlarda infeksiyalarga nisbatan qarshilik xususiyati yo'qoladi, ko'chirib o'tkazilgan begona to'qima ko'chib tushmaydi. Bu tadqiqotlar natijasida T-tizimning faolligiga qarish

jarayoniga ham ta'sir ko'rsatishi ma'lum bo'ldi. Ayrim omillar (komplement, gistamin, geterogen moddalar, elektrolitlar, kaltsiy va magniy tuzlari, limfokinlar) fagotsitozni kuchaytiradi, immun organizmda fagotsitar reaksiya spetsifik antigenlar tufayli kuchayadi. Fagotsitoz organizmning spetsifik himoyasida ham muhim ahamiyatga ega, chunki aynan makrofaglar antigenlarni qayta ishlab, immunokompetet hujayralarga ular to'g'risidagi axborotni ta'minlab beradi. Organizmning nospetsifik rezistentligi himoya-adaptatsion jarayonlarga bog'liq bo'lib, ular «stress», hujayralar areaktivligi, bakteriyalar interferentsiyasi deb ataladi. Nospetsifik rezistentlikning gumoral omillariga organizmning turli suyuqliklarida bo'ladigan moddalar (lizotsim, komplement, properdin, eritritin, leykin) kiradi. Lizotsim so'lakda, ko'z yoshida, balg'amda, qonda, sutda, shuningdek to'qima va organlarda bo'lib, grammusbat bakteriyalarga nisbatan bakteriotsit ta'sirga ega, chunki bakteriya hujayrasi tashqi devordagi peptidoglikanni parchalaydi. Grammanfiy bakteriyalarda peptidoglikan bakteriya hujayrasining ichki devorida bo'lganligi sababli lizotsimga chidamli bo'ladi. Komplement – odam va hayvonlar qon zardobining me'yoriy tarkibiy qismi bo'lib, har bir ma'lum bir xususiyatga ega 9 komponentdan (fraktsiyadan) iborat. Komplement ayrim bakteriya va hujayralarni eritadi, spetsifik immunologik reaksiyalarda ishtirok etadi (viruslarni neytrallashtirishda, allergik reaksiyalarda, lizisda). Organizmning nospetsifik himoyasida organizmdagi normal mikrofloraning boshqa mikroorganizmlarga antogonistik xususiyatlarga ega ekanligi ham muhim ahamiyatga ega. Tug'ma immunitet deb ayrim turdagi organizmlarning boshqa turdagi organizmlarda uchraydigan infeksiyon kasalliklarga chidamligiga aytiladi (turga oid immunitet). Misol uchun, odam it chumasiga (o'latiga), yirik qoramol o'latiga, tovuq xolerasiga (vabo) chalinmaydi. Hayvonlar esa sifilis (zaxm), gonoreya, qorin tifi bilan kasallanmaydi. Turga oid immunitet uzoq evolyutsiya natijasida yuzaga kelgan bo'lib, ushbu turdagi organizmning fiziologik va biologik xususiyatlari bog'liq bo'lib, nasldan naslga o'tadi. Orttirilgan immunitet individum tomonidan embrional rivojlanish davrida yoki hayot davomida orttiriladi va quyidagilar bilan farq qilinadi: 1. Qat'iy spetsifik bo'ladi. 2. Nasldan-naslga o'tmaydi. 3. Absolyut emas, ya'ni yo'qolib ketishi mumkin. 4. Sun'iy usulda yaratilishi mumkin va bir individumdan ikkinchisiga o'tkazilishi mumkin.

Immunetit turlari

Organizmnda immun nazoratni amalga oshiradigan maxsus tizim immunitet tizimi deb ataladi. Suyak ko'migida ko'chib yurish qobiliyatiga ega bo'lgan va barcha limfoid to'qimalarning o'ziga xos qurilish materiali bo'lgan o'zak hujayralar bo'lganligi uchun ham immunolog R.V. Petrov ta'rifiga ko'ra markaziy immun tizimi a'zolaridan biri hisoblanadi. Periferik immun tizimi a'zolariga taloq, limfa tugunlari, turli a'zo va to'qimalardagi limfoid to'plamlar kiradi. Yuqoridagi barcha a'zolar qon va limfa oqimlari orqali o'zaro bitta tizimga birikadi va aloqada bo'ladi. Immun tizimning asosiy biriktiruvchi zvenosi bo'lib limfotsit hisoblanadi. Limfotsitlar barcha leykotsitlarning taxminan 30% tashkil qiladi (1 ml qonda 2000 ta limfotsit bo'ladi).

Markaziy immun tizimi a'zolariga timus va bursa (Fabrius xaltachasi) va ularga tobe bo'lgan limfotsitlar: T-limfotsitlar va B-limfotsitlardir. T-tizim hujayraviy immun tizim reaksiyalarini, B-tizim esa gumoral immun reaksiyalarni amalga oshiradi.

Hujayraviy immun reaksiya sekin turdagi yuqori sezgirlik reaksiyasi, o'sma hujayralarini yemirilishi, transplantatni ko'chirish reaksiyasiga javob bersa, gumoral immun reaksiyada antitanalar hosil bo'ladi. O'zak hujayralar murtakda sariqlik xaltachasida, keyin esa embrional davrda qon hosil qiluvchi jigarda, yetuk organizmda esa suyak ko'migida doimo hosil bo'ladi va limfatik a'zolarga tarqaladi.

1960-yillardagi tajribalarda organizmdan, ya'ni yangi tug'ilgan hayvonlarning timusi butunlay olib tashlanganda, ularning qonida limfotsitlar juda kam bo'lishi, antitanalarning hosil bo'lmasligi, operatsiya qilingan hayvonlarda infeksiyalarga nisbatan qarshilik xususiyati yo'qoladi, ko'chirib o'tkazilgan begona to'qima ko'chib tushmaydi. Bu tadqiqotlar natijasida T-tizimning faolligiga qarish jarayoniga ham ta'sir ko'rsatishi ma'lum bo'ldi. Ayrim moddalar komplement, gistamin, geterogen moddalar, elektrolitlar, kaltsiy va magniy tuzlari, limfokinlar fagotsitozni kuchaytiradi, immun organizmda fagotsitar reaksiya spetsifik antigenlar tufayli kuchayadi. Fagotsitoz jarayoni organizmning spetsifik himoyasida ham muhim ahamiyatga ega, chunki aynan makrofaglar antigenlarni qayta ishlab, immunokompetet hujayralarga ular to'g'risidagi axborotni ta'minlab beradi. Organizmning nospetsifik rezistentligi himoya- moslashuv jarayonlarga bog'liq bo'lib, ular «stress», hujayralar areaktivligi, bakteriyalar interferentsiyasi deb ataladi.

Nospetsifik rezistentlikning gumoral omillariga organizmning turli suyuqliklarida bo'ladigan moddalar (lizotsim, komplement, properdin, eritritin, leykin va b.) kiradi. Lizotsim so'lakda, ko'z yoshida, balg'amda, qonda, sutda, shuningdek to'qima va organlarda bo'lib, grammusbat bakteriyalarga nisbatan bakteriotsit ta'sirga ega, chunki bakteriya hujayrasi tashqi devordagi peptidoglikanni parchalaydi. Grammanfiy bakteriyalarda peptidoglikan bakteriya hujayrasining ichki devorida bo'lganligi sababli lizotsimga chidamli bo'ladi.

Komplement – odam va hayvonlar qon zardobining me'yoriy tarkibiy qismi bo'lib, ma'lum bir xususiyatga ega to'qqizta tarkibdan iborat. Komplement tanlab bakteriya va hujayralarni eritadi, spetsifik immunologik jarayonlarda qatnashadi. Masalan, viruslarni neytrallashtirishda, allergik reaksiyalarda, lizis qilishda).

Tug'ma immunitet tushunchasi sanoqli turdagi organizmlarning boshqa turdagi organizmlarda uchraydigan infeksiyon kasalliklariga chidamligiga aytiladi ya'ni turga oid immunitet. Misollar bilan aytadigan bo'lsak odam it chumasiga (o'latiga), yirik qoramol o'latiga, tovuq xolerasiga (vabo) chalinmaydi. Hayvonlar esa sifilis (zaxm), gonoreya, qorin tifi bilan kasallanmaydi. Turga oid immunitet uzoq evolyutsiya natijasida yuzaga kelgan bo'lib, ushbu turdagi organizmning fiziologik va biologik xususiyatlari bog'liq bo'lib, nasldan naslga o'tadi.

Inson organizmida orttirilgan immunitet individum tomonidan embrional rivojlanish davrida yoki hayot davomida orttiriladi va quyidagilar bilan farq qilinadi:

1. Qat'iy spetsifik bo'ladi.
2. Nasldan-naslga o'tmaydi.
3. Absolyut emas, ya'ni yo'qolib ketishi mumkin.
4. Sun'iy usulda yaratilishi mumkin va bir individumdan ikkinchisiga o'tkazilishi mumkin.

Allergik reaktsiya shakllaring to'rt turi mavjud. Organizmda kuzatiladigan allergik reaksiyalar rivojlanish mexanizmi bo'yicha 4 tipga bo'linadi, ularning har biri mexanizm va o'ziga xos mediatorlar to'plamiga ega (Pitskiy V.I., 1991):

Itezkor tipli allergik reaksiyalar Ularning rivojlanish mexanizmi antitanalar – reaginlar hosil bo'lishi bilan bog'liq. Ular Ig Ega bog'liq semiz hujayralar va bazofil leykotsitlarda fiksasiyalanadi. Allergenlar to'qnashuvi natijasida bu hujayralardan mediatorlar: gistamin, xemotaksik omillar guruhlar, geparin, trombosit faollashtiruvchi omil, leykotrienlar va b.q ajralib chiqadi.

Tezkor allergik reaksiyalarga: ogir asoratlardan anafilaktik shok, atopik bronxial astma (nobakterial tabiatli astma, rivojlanishida nasliy moyillik ahamiyatga ega), dermatit, allergik rinitlar (24-rasm), ehsak emi (25 rasm), Kvinke shishi (26-rasm).



24-rasm. Allergik rinit



25-rasm. Eshak yemi



26 –rasm. Kvinki shishi

II – sitotoksik tipli allergik reaksiyalar. Immunoglobulinlardan G va M sinfga oid antitanalar hosil bo‘ladi. Antitanalar hujayralar bilan birikadi, natijada komplement faollashadi. Bu hujayralarning shikastlanishi va yemirilishiniga sabab bo‘ladi. Allergik reaksiyalarning bu tipi dorili allergiya, leykopeniya, trombositopeniya, gemolitik anemiya, chaqaloqlar gemolitik kasalligida kuzatiladi; Allergiyaning sitotoksik turi autoimmun gemolitik anemiya, autoimmun tiroidit, nefrotik nefrit, dori allergiyasi va boshqalar rivojlanishi kuzatiladi. Ushbu turdagi reaksiyaning mohiyati o‘z hujayralarida antigenlik determinantlariga qarshi antitelolarning shakllanishidan iborat.

O‘z to‘qimalari hujayralarining autoallergenlik xususiyatlari (ya'ni hujayra membranalarining antigenik tuzilishidagi o‘zgarish) kimyoviy moddalar, viruslar, bakteriyalar va boshqalar ta'sirida paydo bo‘ladi. Shuning uchun ko‘plab yuqumli kasalliklarda turli hujayralarga AG+AT shakllanishi bilan birga keladi va trombositopeniya, gemolitik anemiya va boshqalar paydo bo‘lishi mumkin.

III- to‘qimaning immun komplekslar bilan shikastlanishi (Artyus tipi, immunokompleks tipli). Allergenlardan bakteriyalar, viruslar, zamburug‘lar, oziq-ovqatlar, dorivor moddalar ta'sirida kuzatiladi. Ig G va Ig M sinfli antitanalar pretsipitirlovchi hisoblanadi, ular antigenlar bilan pretsipitat hosil qiladi. Immun komplekslarning neytrofillar fagotsitrlaydi, natijada lizosomal fermentlar ajraladi. Immun komplekslarning cho‘kish joylarida proteoliz kuchayadi, to‘qima shikastlanadi, yallig‘lanish paydo bo‘ladi. Ushbu allergik reaksiya zardob kasalligi, allergik alveolitlar, dorivor, oziq-ovqat allergiyalarida, revmatik artritda, tizimli qizil yugurukda uchraydi (27-rasm).



27-rasm. Stivens – Jons sindromi

Allergik reaksiyalarning immuno-kompleks turi zardob kasalligi, ekzogen allergik alveolit, dori va oziq-ovqat allergiyasining ayrim turlari, bir qator autoimmun kasalliklar (Revmatoid artrit, tizimli qizil yuguruk) rivojlanishiga olib keladi. Komplementning sezilarli faollashuvi bilan anafilaktik shok, bronxial astma rivojlanishi mumkin. Ushbu turdagi allergik reaksiyalar bilan to'qimalar shikastlanishi AT + AG immun komplekslari bilan bog'liq. Ushbu turdagi allergik reaksiyalar zardob kasalligi, ekzogen allergik alveolit, bir qator autoallergik kasalliklar rivojlanishiga olib keladi (28-rasm).



Revmatoidli artrit



Tizimli qizil yuguruk

28-rasm. Immun komplekslarni zararlanishiga misollar

IV -sekin yuzaga keladigan allergik reaksiyalar (yoki SRG – sekin rivojlanadigan gipersezgirlik). SRG reaksiyalarga Pirke, Mantu tuberkulin sinamali kiradi. Shuningdek u brutsellez, zaxm, moxov, dizenteriya va boshqa infeksiyalarda, kontakt dermatit, autoallergik kasalliklar, ko'chirib qo'yilgan to'qimaning (transplantat) bitib ketmasligi kabi allergiyalarda uchraydi. Bu jarayonlarning rivojlanish mexanizmi organizmda sensibilizirlangan T- limfotsitlarning hosil bo'lishi bilan bog'liq.

Cooke tomonidan allergik reaksiyalarni tasnifi (R.A. Cooke)

1. Allergiyaning tez rivojlanuvchi tipi (15-20 minutgacha yoki kechi bilan 4-6 soatgacha)

1.1. Anafilaksiya

1.2. Zardob kasalligi

1.3. Atopik kasalliklar

a) pollinoz (pichan isitmasi, rinit, kon'yunktivit)

b) bronxial astma

c) eshak yemi

d) Kvinke shishi

2. Allergiyaning sekin rivojlanuvchi tipi (48-72 soat)

-kontaktli dermatozlar

-infeksion allergiyalar

-autoallergiyalar

-transplantantni ko'chish reaksiyasi

Barcha allergik reaksiyalarning rivojlanishida uchta: immunologik, patokimyoviy, patofiziologik bosqich farq qilinadi: Sensibilizatsiya-ekzogen va endogen antigenlarga organizm sezuvchanligining oshishidir. Faol va passiv sezuvchanlik farqlanadi.

Immunologik bosqich- allergen tanaga kirganda immunitet tizimidagi barcha o'zgarishlarni qamrab oladi. Antitelolar yoki sensibilizatsiyalangan limfotsitlar. Immunologik bosqichda aylanib yuruvchi immunkompleks antigen-antitelo hosil bo'ladi. Antigen va antitana o'zaro ta'sir qilishi bilan tugaydi. Bu davrda sensibilizatsiya holati (sezgirlikning oshishi) yuzaga keladi;

Patokimyoviy bosqich-uning mohiyati biologik faol moddalarning shakllanishida yotadi. Allergik reaksiyalarning patokimyoviy bosqichi ularning tezkor tipida antigen + antitana hosil bo'lishidan biologik faol moddalar – gistamin, asetilxolin, turli kininlar, serotonin, geparin, neytrofillar va eozinofilli xemotaksik omillar, interleykin-1, interleykin-2 va boshqa mediatorlarning ajralishi kuzatiladi. Natijada tomirlar o'tkazuvchanligini oshiradi, bronxlar, ichak, bachadon, silliq mushaklari qisqarishi, og'riq va achish sezgisi, shok holati, nekroz hodisasi va allergiyaning boshqa ko'rinishlarini chaqiradi. SRG biokimyoviy bosqichi limfotsitlarning antigen bilan bevosita kontakti orqali amalga oshiriladi. SRG mediatorlari – limfokinlar sitotoksik ta'sirga ega bo'lib, hujayralar alteratsiyasini chaqiradi. Shuningdek qondan to'qimaga limfotsitlar va makrofaglar migratsiyasini stimullaydi. Bu o'z navbatida to'qimaning mononuklearlar bilan infiltratsiyalanishiga olib keladi;

Patofiziologik bosqich – allergiyaning patofiziologik bosqichi – funksional va organik buzilishlardir. Mediatorlarning hujayralarga, organlarga va tana to'qimalariga patogen ta'siri bilan harakterlanib klinik ko'rinishlar yuzaga chiqadi. Bronxospazm (asfiksiya, bo'g'ilish), arteriolaning kengayishi (AQBning pasayishi, shok holati), ichak va oshqozon silliq mushaklarini qisqarishi (qusish, diareya, defekatsiya) va boshqalar. U a'zo va tizimlarning shikastlanishi bilan tavsiflanadi. Yurak-tomir tizimi tomonidan o'zgarishlar yurakning qisqarish soni va kuchi, arterial bosimning pasayishi, tomir o'tkazuvchanligining oshishi va shish rivojlanishi bilan namoyon bo'ladi. Nafas olish a'zolari tomonidan asfiksiya va bo'g'ilishga olib keluvchi bronxlar va bronxiolalar silliq mushaklarining qisqarishi kuzatiladi. Yirik tomirlarda qon ivishining sekinlashishi kuzatiladi. Kapillyarlarda trombositlar agregatsiyasi kuchayadi, tomirlarda qon laxtasi hosil bo'ladi. Jigarda qon dimlanish hodisasi kuzatiladi, jigar yetishmovchiligi rivojlanishi mumkin. Asab tizimi tomonidan asab retseptorlarining qitiqlanishi natijasida og'riq, achishish, qichishish paydo bo'ladi.

Allergiya rivojlanish mexanizmi uchinchi bosqichi – hujayralarning limfotsitlar killerlari va gumoral antitanalar bilan bevosita shikastlanishi, antigen-antitana kompleksi bilan indutsirlagan biologik faol moddalar ta'siridan iborat. Ko'pincha allergik reaksiyalar leykotsitlar emigratsiyasi va hujayralar infiltratsiyasi bilan kuzatiladigan shamollash sifatida rivojlanadi. Immunitet va allergiya o'zaro munosabatlarini yechish masalasi amaliy jihatdan nihoyatda muhim. Chunki bir xil antigenga (ko'kyo'tal vaksinasini yuborish) ayrim odamlarda faqat immun qayta qurilish sodir bo'ladi. Boshqalarda esa ko'kyo'tal qo'zg'atuvchisiga immunitet hosil bo'lsa ham u jiddiy giperergik reaksiyalar rivojlanishi orqali amalga oshiriladi. Bu ikkita bir-biridan uzoq ko'rinishlar orasida o'tuvchi shakllar ham bo'lishi mumkin. Bundan tashqari bitta individuum hayotining har xil davrlarida bu reaksiyalarning turlicha namoyon bo'lishi ham kuzatilishi mumkin. Bunday o'xshashliklar hujayra tipli reaksiyalarda ham ko'zga tashlanadi. T -hujayralarning har xil turlari o'tkazilgan transplantatni qabul qilmasligi, begona antigenga nisbatan killerlik faoliyati, o'sma hujayralarining dezintegratsiyasi himoya (immunologik), reaksiyalari bilan bog'liq bo'ladi. Ammo ular sekin rivojlanuvchi allergik reaksiyalarni (yengil darajadan to og'ir shakligacha) ham keltirib chaqiradi. Shunday qilib yuqorida keltirilganlardan ko'rinib turibdiki, immunitet va allergiyani biriktiruvchi umumiylik, u yoki bu reaksiyalarda ishtirok

qiluvchi immun mexanizmlarining bir tipligi, ularning organizm uchun himoya va foydali bo'lgan xususiyatidir. Allergiya va immunitet orasidagi farq shundan iboratki, allergik reaksiyalar uchun himoyadan tashqari shikastlanish ham kuzatiladi (giperergik tusga ega yalliglanish – shish, bronxospazm, teri qichishi, sitotoksik va sitolitik samara, shok).

I. Pitskiy va xammualiflar (1991) bu haqda fikrlari: «Antigenga nisbatan shikastlanish bo'lmasa biz bu reaksiyani immun reaksiya deb aytamiz. Shikastlanish bo'lsa, shu reaksiyani allergik reaksiya deb aytamiz». Shunday qilib, «allergik reaksiyalar bir vaqtning o'zida ham himoya, ham shikastlanish bo'lib, organizm uchun ham foydali, ham zararlidir». Shu nuqtai nazardan mualliflar fikricha, allergiyaning aniqroq ta'rifi quyidagicha bo'lishi mumkin: «Allergiya (spetsifik) organizmning immun reaksiyasi bo'lib, o'z to'qimasining shikastlanishi bilan kuzatiladi, bu esa immunitetda bo'lmaydi».

1.3. Allergologik va immunologik kasalliklarning in vivo va in vitro tekshiruv usullari. Teri sinamalari, provokatsion sinamalari ko'rsatma va qarshi ko'rsatma. Laborator tekshiruv usullari

Allergik holatlar va kasalliklar juda ko'plab uchraydi. Ushbu patologiyani tashxislash va zarur davolash chora tadbirlari uchun esa bir qancha tashxislash testlari qo'llaniladi.

Allergik kasalliklarning tashxislash etaplari

- 1) allergik anamnez to'plash
- 2) klinik tekshiruvlar va laboratoriya tekshiruvlarini o'tkazish
- 3) teri allergik sinamalarini o'tkazish
- 4) provokatsion testlarni o'tkazish (qo'zg'atuvchi)
- 5) immunologik tekshirishlarni amalga oshirish

Allergologik anamnez:

Kasallikning allergik tabiatini, nozologik shaklini yaratish.

Etiologik jihatdan ahamiyatli allergenni taxminiy aniqlash.

Xavf omillarini aniqlash (irsiyat, atrof-muhit ta'siri, iqlim, mavsumiylik).

Hamroh patologiyani aniqlash.

Bemorda mavjud bo'lgan har qanday boshqa allergik patologiyalarni aniqlash.

Maishiy omillarning ta'siri natijasida kuzatiladigan allergik holatlar(uy hayvonlari, qushlar, mebellar, gilamlar va boshqalar).

Kasallik qo'zishining boshqa hamroh kasalliklar bilan aloqasi borligini tasdiqlash.

Professional xavflarning ta'siri.

Kasallikning ovqatlanish bilan bog'liqligini aniqlash.

Allergen eliminatsiyasi va antiallergik vositalarni qo'llashni klinik ta'sirini baholash.

Klinik va laboratoriya tekshiruvi:

Jarayonning lokalizatsiyasi (burun, ko'zlar, teri, bronxlar, oshqozon-ichak trakti).

Jarayonni lokalizatsiyasi (burun, ko'zlar, teri, bronxlar, oshqozon-ichak trakti).

Nozologiya (pollinoz, BA, dermatit).

Kasallikning fazasi (o'tkir yoki remissiya)

Teri allergik sinamalari:

Teri usti (tomchi (20 min)

Applikatsiya – path – test (1 kun–12-24 soat)

Scarification (15 daqiqa).

Test-ukol (Prick-test) (15-20 min)

Teri ichi (20 min va 24-48 soat)

Test-ukol (Prick-test) (15-20 min)

Teri allergik sinamasi

Teri allergik sinamasini ixtisoslashgan allergologik statsionar yoki allergologik kabinet sharoitida ushbu muolaja bilan tanish bo'lgan allergolog-immunolog shifokorgina o'tkazishi mumkin. Kamchiliklari bo'lishiga qaramasdan teri allergik sinamasi o'ta maxsus, axborotli hamda atopik kasallik, bakterial allergiyali bemorlar sensiblizatsiya spektrlarini aniqlash uchun juda qulay hisoblanadi. Teri allergologik sinamasini o'tkazishda faqat standartlangan tashxisli allergenlardan foydalaniladi.

Teri testlari. Dori vositalari bilan teri testlari allergolog-immunolog yoki allergologiya bo'yicha maxsus tayyorgarlikdan o'tgan shifokor tomonidan quyidagi hollarda o'tkaziladi (A. D. Ado, 1976):

- a) allergik kasalliklar bilan og'rigan bemorlarda, yuqori dozani buyurish zarurati tug'ilganda. ilgari ishlatilgan allergen dori;
- b) "aybdor" preparatning noaniq ko'rsatkichi bo'lgan dorilarga allergik reaksiyalar anamnezi bo'lgan bemorlarda;
- v) dori vositalari bilan professional aloqada bo'lgan bemorlarda, agar kerak bo'lsa, ulardan birini buyurish;
- d) teri va uning ortiqlarining zambrug kasalliklari bilan og'rigan bemorlarga penitsillinni buyurish uchun hayotiy ko'rsatmalar uchun.

Sinov paytida tomchi, skarifikasion va intradermal testlar ketma-ket qo'llaniladi. Odatda, kuniga bir nechta dori sinovdan o'tkazilmaydi. Prick testlari, skarifikasion testlari va intradermal testlarni o'tkazishda ikki tomonlama nazorat talab qilinadi: 0,01% gistamin eritmasi bilan ijobiy va dori allergen erituvchisi bilan salbiy.

Skarifikatsion va prick-test uslublari

Teri usti (tomchi – 20 min)

Skarifikatsiya testlari bilakning ichki yuzasida amalga oshiriladi, u 70 ° spirt bilan ishlanadi. Bilak bo'g'imidan 5 sm uzoqda 0,01% gistamin eritmasidan bir tomchi tomiziladi (ijobiy nazorat). Uning saqlash muddati 6 soatdan oshmasligi kerak. Bir tomchi suyultiruvchi suyuqlik 5 sm yuqorida qo'llaniladi (salbiy nazorat). Ularning ustiga, bir-biridan 5 sm masofada, sinovdan o'tgan allergenlarning tomchilari qo'llaniladi. Steril skarifikatorlar yordamida, har bir eritma uchun alohida, har bir tomchi orqali 5 mm gacha uzunlikdagi ikkita parallel chizish qo'llaniladi. Qon tomirlariga zarar bermaslik muhimdir. 5–10 daqiqadan so'ng Skarifikatsiya joyidagi tomchilar steril paxta bilan tozalanadi (Jadval 1).

Jadval 1. Teri skarifikasion testlarini baholash uchun shkala

Reaksiya belgisi	Shartli belgilar	tavsifi
Salbiy	-	O'lchamlari suyultiruvchi suyuqlik bilan nazorat qilish bilan bir xil bo'ladi
Shubhali	+	Skarifikatsiya joyida blistersiz giperemiya
Kuchsiz ijobiy	+	Diametri 2-3 mm bo'lgan blister, faqat teri tortilganda seziladi
Ijobiy	++	Diametri 5 dan oshmaydigan blister. mm, terini cho'zmasdan aniq ko'rinadigan, giperemiya bilan o'ralgan
Kuchli ijobiy	+++	Reaksiya diametri 10 mm dan oshmaydigan, giperemiya va psevdopodiyali blister
Juda kuchli ijobiy	++++	diametri 10 mm dan ortiq, giperemiya va psevdopodiya bilan.

Reaksiya namoyon bo'lishiga ko'ra skarifikatsion va prick test baholanishi (29-rasm).



29-rasm. Skarifikatsion testlari

Bu testlar bemorga bakterial va zamburug'li allergenlarga nisbatan sinsibilizatsiya bo'lganda o'tkaziladi. Testlar standartlashtirilgan davo tashxis bakterial va zamburug'li allergenlar bilan o'tkaziladi. Teri ichi testi o'tkazish uchun allergenning quyidagi eritmalaridan foydalaniladi. 1:10 000 ; 1:1 000; 1:100 ; 1:10 yuborilgan allergen hajmi 0.2 mmni tashkil etadi. Musbat va manfiy nazorat uchun mos ravishda gistamin va test nazorat suyuqliklaridan foydalaniladi. Test natijalari avval 15-40 minutda, so'ng 24-48 va 72 soatlarda baholanadi (30-rasm).



30-rasm. Test-ukol (Prick-test) (15-20 min)

Hozirgi vaqtda prik testlari eng ko'p qo'llaniladi. Bu ularning xavfsizligi, o'ziga xosligi va qo'llanilishining qulayligi bilan bog'liq. Prick test texnikasi allergenlar, gistamin va suyultiruvchi suyuqlik in'ektsiya yo'li bilan bir marta ishlatiladigan maxsus lansetlar yordamida terining epidermisiga kiritilishi bilan farq qiladi. Joylashtirish va terini dezinfektsiyalash skarifikatsiya testlari bilan bir xil. Reaksiya 10-15 daqiqadan so'ng ko'zdan kechiriladi (2-jadval).

Jadval 2. Prick testlar natijalarini baholash shkalasi

Reaksiya belgisi	Shartli belgilar	Qavarchiq	Eritema
Salbiy	-	<3	0.5
Kuchsiz ijobiy	+	3-5	0-10
Ijobiy	++	5-10	5-10
Kuchli ijobiy	+++	10-15	>10
Juda kuchli ijobiy	++++	>15	>20

Intradermal testlar tomchi, tirnash yoki prick testlarining natijalari salbiy bo'lsa amalga oshiriladi. Tuberkulinli shprits yordamida yuborilgan allergen miqdori 0,02 ml ni tashkil qiladi. Inyeksiya joylari orasidagi masofa 5 sm. Ijobiy (gistamin) va salbiy (suyultiruvchi suyuqlik) nazorati talab qilinadi. Reaksiya 15-20 minutdan keyin baholanadi (Jadval 3).

Jadval 3. Teri ichi testlarini baholash uchun shkala

Reaksiya belgisi	Shartli belgilar	tavsifi
Salbiy	-	O'lchamlari nazoratdagi kabi
Shubhali	+	Blister nazoratga qaraganda sekinroq eriydi
Kuchsiz ijobiy	+	Diametri 4-8 mm bo'lgan giperemiya
Ijobiy	++	giperemiya bilan o'ralgan 8-15 mm diametrli blister, giperemiya bilan o'ralgan diametrli blister.
Kuchli ijobiy	+++	15-20 mm diametrli psevdopodiyali, giperemiya bilan o'ralgan
Juda kuchli ijobiy	++++	diametri 20 mm dan ortiq blister, psevdopodiya, limfangit, periferiya bo'ylab qizaloq pufakchalar va yorqin giperemiya.

Shunday qilib, dori vositalari bilan teri testlarini o'tkazish va baholash texnikasi boshqa yuqumli bo'lmagan allergenlar bilan bir xil. Ularni amalga oshirish tamoyilini esdan chiqarmaslik kerak: kamroq sezgir tomchi, tirnash va prick testlaridan boshlab sezgirroq intradermal testgacha. Ularni joylashtirish paytida bemorlarda tizimli reaksiyalar paydo bo'lishi mumkin, ayniqsa sinov texnikasi buzilgan bo'lsa. Shuning uchun davolanish xonasida har doim shokka qarshi to'plam bo'lishi kerak.

Shuni esda tutish kerakki, teri testining salbiy natijalari dori allergiyasini istisno etmaydi. Uni amalga oshirishga qarshi ko'rsatmalar (A.D. Ado, 1976):

- a) har qanday allergik kasallikning o'tkir davri;
- b) anamnezda boshdan kechirgan anafilaktik shok;
- v) yurak, jigar, buyraklarning kompensatsiyalanmagan kasalliklari;
- d) homiladorlik;
- e) Tirotoksikoz, og'ir qandli diabet kasalligi.

Applikatsion test (path- test). Kontakt reaksiyalar bolgan bemorlarda o'tkaziladi. Klassik yopiq aplikatsion test o'tkazuvchi

moddani bilak yoki kurak terisining oʻrta 3/1 qismiga oʻtkaziladi. Sungra ushbu soxa suv oʻtkazmaydigan plastr bilan yopiladi va 72 soatdan soʻng baholanadi Applikatsion testni standartlashtirilgan turli yigindilar (yelimsimon moddalar, mahalliy taʼsir etuvchi dori vositalari, boʻyoqlar, metallar, rezina mahsulotlari va boshqalar) bilan oʻtkazish maqsadga muvofiq. Test oʻtkazish vaqtida markyorni har-bir test uchun belgilab olish kerak va olingan maʼlumotlar maxsus formada qayd etib boriladi. Baholash teridan barcha path- test vositalari olingandan soʻng minimum 1 yoki 2 soat oʻtgach quyiladi. Agar bemor shu test quyilgan oʻrnida qanaqadir noqulayliklar: qichishish, achishish, sezsa tezda test olib tashlanadi va bu haqda davolovchi shifokorga xabar beriladi (31-rasm).



31-rasm. Applikatsiya – path – test

Teriga sinamalar qoʻyilganda bir vaqtning oʻzida ikkita nazorat sinamalar ham qoʻyiladi. Bular test-nazorat suyuqligi boʻlgan va gistaminning 0,1 foizli eritmasidir. Nazorat suyuqligi va gistamin ham allergen kabi teri orasiga yoki teri ichiga kiritiladi. Bunda nazorat suyuqligi bilan qilingan sinama manfiy gistamin bilan qilingani esa musbat boʻlishi kerak. Nazorat suyuqligi bilan qilingan sinama musbat (terining konservantga maxsus boʻlmagan oʻta sezuvchanligiga bogliq) yoki gistamin inga nisbatan manfiy (teri reaktivligining yoʻqligi) boʻlgan hollarda tashhis sinamalari hisobga olinmaydi. Byurne allergik reaksiyasida kuzatiladi (32-rasm).

Oʻsimlik changlari va epidermal allergenlar bilan oʻtkaziladigan sinamalar koʻproq orqa elka sohasiga yoki bilakka skarifikasiya usulida qoʻyiladi. Oldindan tomizilgan allergen ustidan skarifikator yordamida ikkita parallel 5 mm kesmalar 2-3sm oraliq masofada oʻtkaziladi.

Zamburug'lar, uy-ro'zgorga oid va mikroblil allergenlar bilak sohasiga tuberkulin shpris yordamida 0,05-0,1 ml miqdorida teri ichiga yuboriladi.



Byurne allergik reaksiyasi

32-rasm. Byurne allergik reaksiyasi

Dori modda allergenlari bilan o'tkaziladigan sinamalar tomchi (tomizish) usulida o'tkaziladi. Antibiotiklar eritmasi 1 ml da 1000 TB gacha novokain – 0,25 %, pH muhiti 7,2 miqdorda kiritiladi. Dori moddalar bittadan ortiq qo'yilmaydi va bir soat davomida kuzatiladi. Qavarchiq va tuguncha paydo bo'lishi ko'proq allergiyadan dalolat beradi, qizarish (giperemiya) esa faqat nerv va tomirlar tizimlarining reaktivligi, yuqori ekanligini aks ettiradi, xolos.

Provokatsion testlar

Burunga, nafas olish tizimiga, kon'yunktivaga, sublingual, og'iz orqali, leykotsitopenik testlardir.

Provokatsion test- provokasion (qo'zgatish) sinamalar. Bunda allergen "shokli" a'zoga – burun, bronxlar, teri hamda ichakka kiritiladi. "Shokli" a'zo deganda kasallikning klinikasini yuzaga chiqaradigan a'zo yoki to'qima nazarda tutiladi. Masalan, rinitda burun "shokli" a'zo hisoblanadi. Provokasion sinama nosog'lom ya'ni allergiyaga moyil a'zodagi sezuvchanlikni aniqlaydi. Bu usul 30-yildan ko'proq vaqtdan beri qo'llaniladi. Provokasion sinamalar teridagi sinamalari musbat bo'lgan allergenlar bilan qo'yiladi. Ular, hatto kasallikni yashirin davrida ham aniqlashga imkon beradi

Provokatsion test o'tkazish uchun asosiy sharoitlar: barcha testlarni (in vivo) ushbu muolaja uslubi bilan tanish bo'lgan allergolog-immunologgina faqat maxsuslashtirilgan allergologik statsionarda yoki xonalarda o'tkazish mumkin.

Konyuktival test-provokatsion konyuktival testi aeroallergenlar bilan olingan anamnez va boshqa tekshiruvlar natijalarida mos

kelmaganda allergik konyuktivit tashxisiga aniqlik kiritish uchun qo'llaniladi. Kon'yuktiva xaltasiga nazorat test suyuqligi yuboriladi. Reaksiya bo'lmasa boshqa kon'yuktiva xaltasiga asta-sekinlik bilan allergenning dozasini ikki marta oshirib bir tomchi yuboriladi. (suyultirish 1:2048, 1:1024, 1:512 va 1:2 gacha)

Allerginning har xil kontsentratsiyasi orasidagi interval 20-30 minutdan kam bo'lmasligi kerak. Yuqori kontsentratsiyasi test faqat oldingi eritmaga reaksiya bo'lmagandagina o'tkaziladi. Agar konyuktivit simptomlari paydo bo'lsa test musbat hisoblanadi. Musbat test bo'lganda konyuktiva izotonik eritma bilan yuviladi va 0.1 %li epinifrin eritmasi tomiziladi. Musbat holatlarda ko'z qichishi, yosh oqishi, shish kuzatiladi (33-rasm).



33-rasm. Kon'yuktival testni baholash

Nazal test. Provakatsion nazal testi allergik rinit rivojlanish ehtimoli va olingan anamnez ma'lumotlari mos kelmaganda, shuningdek, boshqa tekshiruv natijalari yetarlicha bo'lmaganda hamda turli allergenlarga nisbatan maxsus davo ASIT (allergen spesifik immunoterapiya) o'tkazish talab qilinganda qo'yiladi.

Endonazal provokatsion sinamalar. Diametri 5 mm bo'lgan yumaloqlangan paxta sharchasiga 0,7ml allergen (terida o'tkazilgan sinamalarda musbat natija bergan eritmada) tomiziladi va pastki burun supralari chiganoqlari old qismiga 10 daqiqa davomida qo'yiladi, burunning ikkinchi yarmiga esa nazorat suyuqligi tomizilgan paxta sharchasi kiritiladi. Nazoratli sinama manfiy bo'lishi kerak. Yoki burunning bir yarmiga test nazorat suyuqligidan 1 tomchi tomiziladi. Hech qanaqa reaksiya bo'lmaganda qolgan yarmiga 1 tomchidan allergenning 1/100 va 1:10, so'ng to'liq dozali allergen tomiziladi. Yuqori kontsentratsiyali allergen uchun interval 20-30 minutdan kam bo'lmasligi kerak. Yuqori kontsentratsiyali allergen sinamasi undan oldingi sinamaga reaksiya bo'lmaganda qo'yiladi. Rinit simptomlari paydo bo'lganda test musbat hisoblanadi. Testni baholash uchun burun oldi rinoskopiyasi yoki rinomanometriya usullaridan foydalaniladi.

Ingalyatsion testni o'tkazish

Provokatsion ingalyatsion testi ma'lum allergenlarga nisbatan bronxial obstruktsiyasi bo'lgan bemorlarda maxsus sezgirlikni aniqlashga yordam beradi. Test juda kam va faqat remissiya davrda o'tkaziladi. Agar bemor ahvoli imkoniyat bersa, tekshiruvga 1 kun qolganda bronxodilyatatorlar, kromoglitsev kislota preparatlari, 2 – adrenotseptor antagonistlari, N1 gistamini reseptor blokatorlari bekor qilinadi. Test o'tkazish nazorat suyuqligi (natriy xlorning izotonik eritmasi) yuborishdan boshlanadi. So'ng tashqi nafas funktsiyasi (FVD)ga qarab registratsiyasi davom etadi. Bemor holatida sub'ektiv o'zgarishlar bo'lmaganda va (FVD) tashqi nafas funktsiyasi buzilmaganda allergen testi boshlanadi. Provokatsion nazorat allergenning kichik dozasidan (1: 1 000 000) boshlanadi. Keyinchalik allergen kontsentratsiyasi asta-sekinlik bilan oshirib boriladi. 1:500 000, 1:100 000, 1: 50 000, 1: 10000, 1:5000, har-bir kontsentratsiyasi orasidagi interval 10 minutdan kam bo'lmashligi kerak. Agar allergen ingalyatsiyasidan so'ng bemorda yo'tal yoki nafas qisish xuruji boshlansa test to'xtatiladi. Bu vaqtda bemorga yuqoridagi simptomlarga qarshi dori vositalari buyuriladi. Agar OFV dastlabkisiga qaraganda 15 % dan kam o'zgarmagan bo'lsa, test musbat hisoblanadi. Bitta tekshiruv faqat bitta allergen uchun o'tkaziladi.

Provokatsion testlar faqat shubhali holatlarda shifokor tomonidan amalga oshiriladi. Bularga sublingual test kiradi, bunda bemor 1/8–1/4 tabletka yoki 2-3 tomchi dori eritmasini til ostiga oladi. Test davomiyligi 5–15 minut. Agar test ijobiy bo'lsa (shilliq qavatning shishishi, terining qichishi, qavarchiq va boshqalar), bemor preparatni tuflashi va og'zini suv bilan yuvishi kerak. Bu holatda sinovdan o'tgan preparat buyurilmaydi. Provokatsion testlar rinit va bronxial astma tashxisini qo'yish uchun boshqa testlar (burun, nafas olish) juda kamdan-kam hollarda, faqat ixtisoslashgan shifoxonalarda qo'llaniladi. Shuni ta'kidlash kerakki, provokatsion testlar o'tkaziladigan xonada shokka qarshi to'plam bo'lishi kerak. So'nggi yillarda dori allergiyasini tashxislash uchun in vivo tabiiy leykotsitlar migratsiyasini ingibisiya qilish testi ishlab chiqildi. Uning printsipti dori ta'siridan oldin va keyin og'iz bo'shlig'ini yuvgandan so'ng, natriy xlor eritmasidagi leykotsitlar sonini hisoblashga asoslangan. Agar allergen ta'siridan keyin oq qon hujayralari soni 30% yoki undan ko'p kamaygan bo'lsa, test ijobiy hisoblanadi.

Dori allergiyasining laboratoriya diagnostikasi darhol (Ig Ega bog'liq) va kechiktirilgan turdagi yuqori sezuvchanlikni aniqlashni o'z ichiga oladi. Usullarning birinchi guruhi radioallergosorbent va

immunoferment tahlil yordamida IgEni aniqlashni o'z ichiga oladi. So'nggi yillarda 50 dan ortiq dori vositalari uchun reaginlarni aniqlash imkonini beruvchi to'plamlar paydo bo'ldi. Semiz hujayralari va bazofillarda fiksatsiyalangan IgEni aniqlash uchun semiz hujayralari degranulyatsiya testlari, gistamin chiqarish testlari va Shelley bazofil testi qo'llaniladi.

Allergik kasalliklarning markeri IgE aniqlash

Tekshiruv immunoferment analizi IFA yordamida olib boriladi. Umumiy IgE ortishi atopik kasallik rivojlanayotganidan darak beradi. Natija nisbiy hisoblanadi. Ba'zi xollarda uning ortishi boshqa sabablar: parazitlar yoki zambrug'li zararlanishlar, qonning ba'zi o'sma kasalliklari tufayli xam bo'lishi mumkin. Ba'zan ko'pgina atopik kasal bemorlarda esa IgE umumiy miqdori meyorida ekanligi qayd etilgan.

Buni shu bilan izohlash mumkinki, allergenning kichikroq miqdori bilan monosensibilizatsiya va sensibilizatsiyada IgEning umumiy miqdorini yuqori bo'lmay, allergik reaksiyada IgE va IgG qatnashmasligi mumkin. Qon zardobida maxsus IgEni aniqlash IFA, radiallergosorbent test (RAST), radioimmun analiz (RIA), ko'paygan allergosorbent testlar orqali aniqlanadi. Allergik testlar bemorning sensibilizatsiya darajasini aniqlashga yordam beradi. Ushbu testni ko'pincha teri allergologik testi o'tkazish iloji bo'lmaganda, yoki uni izohlash uchun o'tkaziladi. Test maishiy, epidermal, chang, ovqat, hasharotli, zambrug'li, latekisli allergenlarga nisbatan sensibilizatsiya borligini aniqlash uchun o'tkaziladi. Dori vositalariga nisbatan allergiya borligini aniqlash uchun shuningdek RIA (allergen- spetsifik IgE va IgG va IgM ni aniqlash uchun) xamda allergen spetsifik IgE va IgGni aniqlash uchun IFA qo'llaniladi.

Teri allergik test o'tkazishning iloji bo'lmasa, shuningdek, allergik patologiyaning qo'zishida immunoblot usulida maxsus IgEga qon tahlili o'tkaziladi.

Maxsus IgEni aniqlashning afzalliklari quyidagi hollarda qo'llanilishi mumkin:

- allergopatologiyaning qo'zishi va remissiyasi
- dermatitning qo'zishi
- antigistaminik vositalardan foydalanish
- anamnezida allergenni aniqlab bo'lmasligi
- teri allergik sinamasida tizimli allergik reaksiyalarning bo'lishi

Immunoferment tahlil (IFA)

Immuno-ferment qon test (CR.Elishay) antigen va yoki antitelani aniqlashning laboratoriya usuli. Immuno-ferment tahlillari sifatli bo'lishi mumkin (antigen yoki antitelolarning mavjudligi yoki yo'qligini ko'rsatadi) va miqdoriy (antigenler yoki antitelolar sonini aniqlash). Asosan, tahlil qilish uchun, biologik material qon hisoblanadi (34-rasm).



34-rasm. Immunoferment tahlil (IFA) usuli

Virusli kasalliklar diagnostikasi: gepatit, herpes, Epstein-Barr virus, sitomegalovirus va boshqalar. Jinsiy yo'l bilan yuqadigan infektsiyalar: Chlamydia, gonoreya, trichomonad, mikoplazma, Ureaplasma. Sifilis. Endokrinologiya (gormonlar darajasini aniqlash). Onkomarkerlar (onkologik kasalliklar diagnostikasi). Immunologiya (immunitet tanqisligi diagnostikasi). Allergologiya (allergiya diagnostikasi va davolash).

Polimeraza zanjiri reaksiyasini tahlil qilish

Polimeraza zanjiri reaksiyasi (PSR) – fermentlar yordamida DNKning yoki RNKning ma'lum bir qismini bir necha marta tanlab klonlash jarayoni sodir bo'lgan laboratoriya diagnostikasi usuli. Laboratoriya materiallarida kamida bitta DNK yoki RNK mavjud bo'lgan polimeraza zanjiri reaksiyasi (PCR) paytida, faqat ma'lum bir mikroorganizmga xos bo'lgan DNK yoki RNKning ma'lum bir qismi klonlanadi (35-rasm).



35-rasm. PCR tashxis yuqori maxsus usuli

Buning sababi shundaki, har bir mikroorganizm faqat DNK yoki RNKning bir qismiga ega. PCR diagnostikasida noyob DNK yoki RNK parchalari sonining ko'payishi kuzatiladi, shuning uchun usul

o'rganilayotgan materialda faqat bitta DNK yoki RNK molekulasi bo'lsa ham patogenni aniqlash imkonini beradi.

PCR tahlil qilish uchun deyarli har qanday biologik materiallardan (siydik, qon, zardob, balg'am, eyakulyatsiya (sperma), epitelial hujayralarni qirib olib foydalanish mumkin.

Bugungi kunda PCR diagnostikasi avtomatlashtirilgan jarayon 4-5 soat davomida tashxis qo'yish imkonini beradi. Qon PCR tahlillari nafaqat o'tkir jarayonlarda va surunkali kasalliklarda patogenni aniqlash imkonini beradi.

Immunitet holati immunitet tizimining faoliyatining miqdor va sifat ko'rsatkichlari bo'yicha baholangan immunitet holatidir.

Immunitet tanqisligi-immunitet tizimining kam sonli tarkibiy qismlari yoki ularning funktsional faoliyati kamligi natijasida rivojlanayotgan immunitet tizimining faoliyatini kamaytirish. Natijada-organizm tashqi va ichki tajovuzga (bakterial, virusli, qo'ziqorin, neoplastik jarayonlar va boshqalar) etarlicha javob bera olmaydi. Kelib chiqish sabablari asosida immunitet tanqisligi asosiy (tug'ma, irsiy) va ikkinchi darajali bo'linadi. Immunitetning giperreaktivligi – immunitet tizimining ortiqcha faolligi, bu kasallikning og'irligiga olib kelishi mumkin. Natijada, immun tizimining reaksiyasidan zararlanish immunitet yuborilgan kasallikning zararidan oshib ketishi mumkin.

Autoimmun reaksiyalar – immun tizimi o'z to'qimalariga (revmatizm, revmatoid poliartrit, glomerulonefrit va boshqalar) hujum qiladigan holatlar. Shunday qilib, immunitet buzilishining shakli va sababini aniqlash uchun immunitet tizimining ko'rsatkichlarini (immunitet holatini) baholash kerak bo'ladi.

Nazorat savollari

1. Allergologiya fani rivojlanishiga hissa qo'shgan olimlar kimlar?
2. Qanday allergen turlari haqida bilasiz?
3. Hujayraviy immunitet haqida nimalarni o'rgandingiz?
4. Gumoral immunitet haqida tushuncha bering?
5. In vivo tekshiruv usullari qaysilar?
6. In vitro tekshiruv usullariga nimalar kiradi?
7. Teri sinamalarini sanang?
8. Provakasion sinamalar haqida tushuncha bering?

II BOB

2.1. Birlamchi immuntanqislik kasalliklari. Etiologiya. Patogenez. Klinika. Tashxislash va davolash prinsiplari. Profilaktikasi

Birlamchi immunitet tanqisligi (BIT) – bu immunitet reaksiyasini boshqaradigan genlardagi nuqsonlar tufayli kelib chiqadigan irsiy kasalliklar. BIT – bu immunitet nuqsonlari, klinik ko'rinishlari va molekulyar buzilishlarining tabiati va zo'ravonligi bilan har xil bo'lgan kasallik. BITning klinik ko'rinishi takroriy va surunkali, og'ir yuqumli jarayonlar, asosan bronx-o'pka tizimi kasalliklari ko'rinishi va LOR a'zolari, teri va shilliq pardalar; yiringli limfadenit, absesslar, osteomielit, meningit va sepsis rivojlanishi mumkin. Ba'zi shakllarda allergiya, autoimmun kasalliklarning namoyon bo'lishi va ba'zi o'smalarning rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Jismoniy rivojlanishning yosh ko'rsatkichlarining kechikishiga e'tibor qaratish lozim. Hozirgi vaqtda 80ga yaqin BIT tavsiflangan va bu kasalliklarning ko'pchiligining rivojlanishi uchun mas'ul bo'lgan genlar aniqlangan. Etarli laboratoriya tahlillari limfotsitlar darajasida patologiyani va antigenlarni yo'q qilish va chiqarib yuborishning limfotsit bo'lmagan mexanizmlari darajasida patologiyani ajratish imkonini beradi.

BIT tarqalishi kasallikning shakliga bog'liq va o'rtacha 1:10 000dan 1: 100 000 yangi tug'ilgan chaqaloqqa to'g'ri keladi. Masalan, selektiv IgA tanqisligi umumiy populyatsiyada 1:500dan 1:1500gacha tez-tez uchraydi. BITning turli shakllarining tarqalishi mamlakatdan mamlakatga farq qiladi. Antikor ishlab chiqarishda eng ko'p uchraydigan nuqsonlar – 50-60% hollarda, kombinatsiyalangan BIT – 10-30%, fagotsitoz nuqsonlari – 10-20%, komplement nuqsonlari – 1-6%. Ko'pgina BITlar erta bolalik davrida namoyon bo'ladi, garchi BITning ba'zi shakllari, masalan, umumiy o'zgaruvchan immunitet tanqisligi, keyinchalik paydo bo'lishi mumkin.

Birlamchi immunitet tanqisligi – bu immunitet tizimining tug'ma kasalliklari majmuasidir. Hozirgi kunda tibbiyot 300dan ortiq turli xil klinik kasalliklarni biladi, ularning aksariyati kam uchraydigan kasalliklar qatoriga kiradi.

Birlamchi immunitet tanqisligining sinonimlari tug'ma immunitet tanqisligi, asosiy immunitet tanqisligi ham deyiladi.

Birlamchi immunitet tanqisligi immunitet tizimining tug'ma kasalliklari bo'lib, ular irsiy ham bo'lishi mumkin. Bolalar ayrim hollarda

tugma immuntanqislik tizimi bilan tug'ilishadi, natijada immune tizim to'g'ri ishlay olmaydilar yoki nuqsonlar vujudga keladi.

Immunitet nuqsonlarining bir qismi shunchalik ravshanki, kasallangan bolalar hayotning birinchi yilida ustun hujayralari terapiyasisiz yashab qololmaydilar. Alomatlar faqat bolalik yoki kattalar davrida rivojlanishi mumkin. Yoki ular uzoq yillar davomida shifokor ko'rigidan so'ng immunitet tanqisligi sifatida tan olinadi. Ko'pgina asosiy immunitet nuqsonlari juda kam uchraydi va shuning uchun hatto ko'plab tibbiyot mutaxassislariga ham ma'lum emas. Ba'zi immunitet tanqisligi davolanishi mumkin, boshqalari esa yo'q. Birlamchi immunitet tanqisligini davolashning eng istiqbolli variantlari immunoglobulinlar va ustun hujayralari transplantatsiyasi bilan dori terapiyasi hisoblanadi.

Rivojlanish mexanizmlariga ko'ra BITning 4ta asosiy guruhi ajratiladi.

1-guruh – asosan gumoral, yoki B-hujayra

2-guruh – kombinatsiyalangan BIT (barcha T-hujayra immunitet tanqisligi bilan B-hujayralar funktsiyasining buzilishi mavjud BIT

3-guruh – fagotsitozdagi nuqsonlardan kelib chiqqan BIT

4-guruh – komplement tizimidagi nuqsonlardan kelib chiqqan BIT

Birlamchi immunitet tanqisligi klinik ko'rinishining umumiy xususiyatlari

BITning klinik ko'rinishida etakchi o'rinni yuqumli sindrom deb ataladi – umuman yuqumli kasalliklarning qo'zg'atuvchilariga sezuvchanlikning oshishi, ularning g'ayrioddiy og'ir qaytalanuvchi (takroriy) klinik kursi, kasallikning etiologiyasida atipik patogenlarning (ko'pincha opportunistik) mavjudligi. Patogenning turi immunitet nuqsonining tabiati bilan belgilanadi. Antikor shakllanishidagi nuqsonlar bilan antibakterial preparatlarga chidamli florani aniqlash mumkin-stafilokokklar, streptokokklar, T-hujayra immunitet tanqisligi bilan bakteriyalarga qo'shimcha ravishda viruslar (masalan, herpesviruslar oilasi), zamburug'lar (*Candida spp.*, *Aspergillus* va boshqalar) va fagotsitar nuqsonlar bilan, stafilokokklar, gramm-manfiy bakteriyalar, zamburug'lar va boshqalar.

Laboratoriya ko'rsatkichlari:

Agar klinik topilmalar PIDni ko'rsatsa, unda quyidagi tadqiqotlar o'tkazilishi kerak

-batafsil qon formulasini aniqlash (limfotsitlarning miqdoriy va foiz ko'rsatkichlari ayniqsa muhimdir

-qon zardobida IgG, IgA va IgM darajasini aniqlash

- T- va B-limfotsitlar subpopulyatsiyasini hisoblash
- maxsus ko'rsatkichlar bo'yicha:
- fagotsitlarning funktsional holatini tahlil qilish
- to'ldiruvchining asosiy tarkibiy qismlarining mazmunini tahlil qilish (C3 va C4 bilan boshlanadi).

OIV infeksiyasini tekshirish (agar mumkin bo'lgan xavf omillari mavjud bo'lsa) ko'rsatilganda molekulyar genetik tadqiqotlar asosida olib boriladi.

Birlamchi immunitet tanqisligining belgilari juda xilma-xil bo'lishi mumkin. Bu asosan immunitet tanqisligining turi va og'irligiga bog'liq. Kuchli immunitet tanqisligi bo'lsa, birinchi alomatlar ko'pincha tug'ilgandan keyingi birinchi hafta va oylarda paydo bo'ladi. Ularni himoya qilish homiladorlik va tug'ilish paytida platsenta orqali embrionga o'tkaziladigan immunoglobulinlar tomonidan yaratiladi. Onaning antikorlari emizish paytida chaqaloqqa ham o'tadi. Shunday qilib, ularni himoya qilish ona suti bilan ijobiy qo'llab-quvvatlanadi. Faqatgina balog'at yoshida yoki 25 yoshgacha bo'lgan yoshi kattalarda namoyon bo'ladigan immunitet tanqisligi mavjud.

Birlamchi immunitet tanqisligining ogohlantiruvchi belgilari

Boshlang'ich immunitet tanqisligining turli xil va shuning uchun ba'zan tanib olish juda qiyin bo'lgan alomatlaridan tashqari, kamida bir qator tug'ma immunitet tanqisligini ko'rsatuvchi ogohlantiruvchi belgilar mavjud:

- Birinchi darajadagi qarindoshlar (ota-onalar yoki aka-ukalar)da immunitet tanqisligi
- Jiddiy infeksiyalarga nisbatan sezgirlikning oshishi: har yili meningit, suyak yallig'lanishi, pnevmoniya, yallig'lanishning og'riqli shakllari, qon zaharlanishi (sepsis) yoki sinusitning 2 yoki undan ortiq holatlari.
- Yiliga 8dan ortiq yiringli o'rta otit
- Antibiotik terapiyasining 2 oydan ortiq samarasizligi
- Rotavirus kabi hayot vaktsinalari bilan emlashdan keyingi asoratlar
- Boshqa ko'rinadigan sabablarsiz rivojlanmaslik
- Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda va chaqaloqlarda terining zambrug'li infeksiyalari yoki terining yallig'lanishli (eritema) kabi sezilarli teri va shilliq qavat kasalliklari.
- Surunkali diareya.

Sabablari

Birlamchi immunitet tanqisligi tug'ma, shuning uchun bu nuqsonli genetik materialdir. Ushbu DNK nuqsonlari qanday paydo bo'lishi

deyarli aniq emas. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti birlamchi immunitet tanqisligini sabablariga ko'ra 8 guruhga ajratadi:

1. Immunitet tizimining bir nechta qismlarini ta'sir qiladigan qo'shma immunitet tanqisligi
2. Asosan antikorlarning etishmasligi bilan tavsiflanadigan immunitet tanqisligi
3. Nosoglom T limfotsitlari bilan bog'liq immunitet tanqisligi
4. Boshqa aniq belgilangan immunitet tanqisligi sindromlari
5. Limfoproliferativ kasallik bilan immunitet nuqsonlari
6. Boshqa kasallik bilan bog'liq yoki uning natijasi bo'lgan immunitet tanqisligi
7. Komplementning nuqsonlari
8. Granulotsitlar va makrofaglarning nuqsonlari

Tashxis

Ko'pgina asosiy immunitet tanqisligini aniqlash qiyin va ko'pincha ko'p oylar yoki yillar davomida tashxis qo'yish kerak. Avvalo, bu alomatlar odatda o'ziga xos bo'lmaganligi bilan bog'liq. Qayta takrorlanadigan og'ir yuqumli kasalliklar va boshqa ogohlantiruvchi belgilar uchun tashxisni immunitet tanqisligi kasalliklari deb, chuqurroq tekshirishlarni o'tkazish kerak.

1. Kasallik tarixi (genialogik)
2. Fizikal ko'rik
3. Umumklinik tekshirishlar
4. Birlamchi taxminiy tashxis
5. Immunologik tekshirishlar
6. Tashxisni verifikasiya qilish
7. Molekulyar genetik tekshirishlar
8. Oxirgi tashxis

Birlamchi immunitet tanqisligini davolash tamoyillari

BIT terapiyasining asosiy maqsadi kasallikning asoratlarini davolash va ularning oldini olishdir. Ushbu yondashuv BITdagi immunitet tizimidagi nuqsonlar genetik darajada yotqizilganligi bilan bog'liq. Ayni paytda bu borada jadal izlanishlar olib borilmoqda. Immunitet tanqisligini davolash, bu ularni davolashning yanada radikal usullarining paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin. BIT shakliga qarab davolash almashtirish terapiyasi, kasallikning yuqumli, autoimmün ko'rinishlarini davolash va oldini olish, o'sma neoplazmalarni davolash va maxsus usullarni qo'llash, shu jumladan gematopoetik ildiz hujayralarini transplantatsiya qilishdan iborat.

Ko'pgina immunitet tanqisligi immunoglobulinlarning etishmasligini keltirib chiqaradi. Ushbu immunoglobulinlarni dori terapiyasi bilan almashtirish mumkin. immunoglobulinlar turiga qarab, ular ma'lum vaqt oralig'ida teri ostiga qilinadi yoki infuziya shaklida beriladi. Immunoglobulinlarni almashtirish davolashda odatda hayot uchun zarurdir.

Ildiz hujayralari transplantatsiyasi

Ildiz hujayra transplantatsiyasi, ayniqsa og'ir immunitet tanqisligi uchun tanlov usuli bo'lishi mumkin. Ushbu muolaja davomida ildiz hujayralari sog'lom donorlarning suyak iligidan ko'chiriladi. Ushbu terapiya usuli hech qanday zararsiz deb qabul qilish mumkin. Buning bir nechta sabablari bor. Avvalo, asosiy immunitet tanqisligining barcha shakllarini ildiz hujayralari transplantatsiyasi bilan davolash mumkin emas. Bundan tashqari, ildiz hujayralari bemorga to'g'ri keladigan donor topilishi kerak. Ildiz hujayrasi transplantatsiyasi ehtimoli, foydasi va xatarlari to'g'risida qaror faqat shu asosda individual ravishda qabul qilinishi mumkin.

Gen terapiyasi

Birlamchi immunitet tanqisligini davolash uchun gen terapevtik yondashuvlari hozircha eksperimental bosqichda. Tajribalarning maqsadi genetik materialning noto'g'ri qismini immunitet hujayralari uchun sog'lom genlar bilan almashtirishdir.

Kasalliklarning xilma-xilligini hisobga olgan holda asosiy immunitet tanqisligining umumiy prognozi baholash mumkin emas. Ammo, asosan, tashxis qo'yish va davolash qanchalik erta bo'lsa, omon qolish imkoniyati shunchalik yuqori bo'ladi. Immunoglobulinlar etishmovchiligining ko'plab shakllarini immunoglobulinlar bilan davolash mumkin, shunday qilib umr ko'rish davomiyligi sog'lom odamlarning umriga teng bo'ladi.

2.2. Ikkilamchi immuntanqislik kasalliklari. Etiologiya. Patogenez.

Klinika. Tashxislash va davolash prinsiplari. Profilaktikasi

Ikkilamchi immunitet tanqisligi – (IIT) bu patologik holat bo'lib, unda bir yoki bir nechta immun javob mexanizmlarining buzilishi, butun immun tizimining buzilishiga olib keladi. U asosiy kasallik fonida rivojlanadi.

- fagotsitning ikkilamchi immunitet tanqisligi;
- komplement tizimining nuqsoni;

- ikkilamchi T hujayrasidagi immunitet tanqisligi;
- gumoral immunitetning buzilishi;
- aralash infeksiyalar.

IIT shakllari:

1. Spontan
2. Induktsiya

Ko'p hollarda OITSni ushbu kasallikning bir shakli deb baholash mumkin, ammo zamonaviy immunologiya, bu sindromni, OITV (odamning immunitet tanqisligi virusi) bo'lgan etakchi immuntanqislik natijasida sodir bo'lmoqda. OITS, spontan va induktiv shakl bilan birgalikda ikkilamchi immunitet tanqisligi bilan birlashadi.

Ikkinchi immunitet tanqisligining spontan shakli

Muayyan, aniq bir etiologiyaning yo'qligi spontan immunitetni tanqisligini tavsiflaydi. Bu asosiy turlarga o'xshash bo'lib, ko'pincha bu shartli patogen mikrobiota ta'siridan kelib chiqadi. Katta yoshli bemorlar uchun davolash qiyin bo'lgan surunkali yallig'lanishlar ikkinchi darajali immuntanqislikning klinik ko'rinishlari sifatida aniqlanadi. Bunday organlarda va tizimlarda eng tez-tez uchraydigan infeksiyalar kuzatiladi:

- ko'zlar;
- terida;
- nafas olish tizimi;
- oshqozon-ichak traktining organlari;
- jinsiy yo'llar-siydik ajratuv tizimi.

Ikkilamchi immunitet tanqisligi rivojlanishining sabablari:

Shunday infeksiyalarning paydo bo'lishining sabablari quyidagilar bo'lishi mumkin:

- bakterial infeksiya (sil, pnevmokokklar, stafilokokklar, meningokokklar va boshqalar);
- gelmintlar va protozoy invaziyalar (askaridalar, toksoplazmoz, bezgak);
- onkologik ta'lim.
- autoimmun muammolari.
- virusli infeksiyalar (chipqon, gepatit, qizamiq, qizilcha, herpes, sitomegalovirus va boshqalar);
- intoksikatsiya (tirotoksikoz , zaharlanish);
- og'ir psixologik va jismoniy travma, jismoniy faollikni oshirish;
- qon ketish, nefrit, kuyishlar;
- kimyoviy ta'sirlar (preparatlar, steroidlar, kimyoterapiya);
- tabiiy omillar (qarilik yoki bolaning yoshi, bola tug'ish davri);

• muhim mikro va makro elementlarning etishmasligi, oziq-ovqat etishmasligidan kelib chiqqan avitaminozlar.

I. Har xil turdagi infeksiyalar:

1. bakterial – Staphylococcus aureus (yengil teri infeksiyalaridan sepsisgacha), absesslar, yiringli yaralar, meningit, siydik yo'llari infeksiyalari, psevdomembranoz kolit keltirib chiqaradigan infeksiyalar;

2. virusli – herpes oilasi viruslari keltirib chiqaradigan infeksiyalar (herpes simplex va herpes zoster);

3. zamburug'li (kandidoz, aspergilloz, kriptokokkoz, vaginit);

4. Eng oddiy mikroorganizmlar (toksoplazmoz va kriptosporidioz) sabab bo'lgan.

II. Autoimmun va revmatologik kasalliklar (tizimli qizil yuguruk, diffuz toksik bo'qoq, revmatoid artrit va sklerodermiya).

III. Endokrin tizim kasalliklari (qandli diabet, gipotiroidizm).

IV. Ovqat hazm qilish tizimi kasalliklari (yarali kolit, gepatit, jigar yetishmovchiligi).

V. Buyrak kasalliklari (buyrak yetishmovchiligi).

VI. Onkologik kasalliklar (turli organlarning malignizatsiyasi, melanoma) va qon kasalliklari (limfoma, limfogranulomatoz).

VII. Bir qator kasalliklarni davolash va manipulyatsiya qilish (antibiotikli terapiya, kimyoterapiya, glyukokortikoid gormonlarni qabul qilish, immunosupressantlar, nurli terapiya).

VIII. Stress (ayniqsa surunkali) buyrak usti gormonlaridan biri – kortizol darajasining oshishi bilan kechadi. Bu organizmdagi yallig'lanishga qarshi va yallig'lanishga qarshi sitokinlar nisbatini o'zgartiradi (immun tizimining mediatorlari), shu bilan immun javobni buzadi.

IX. Jarrohlik aralashuvlar, shu jumladan immun tizimining organlariga o'tkazilgan operatsiyalar (splenektomiya – taloqni olib tashlash).

X. Past kaloriyalik ovqatlanish, oqsillar, vitaminlar, makro va mikroelementlar yetishmasligiga olib keladi.

XI. Uy ichidagi zaharlanish (chekish), shuningdek, noqulay ekologik omillar oqibatida.

XII. OIV infeksiyasi – immune tizimining asosiy hujayralarini – T - helperlarni yo'qolishi.

XIII. Fiziologik sharoitlar (6 yoshgacha bo'lgan davr, homiladorlik, "qariyalar sindromi").

Homilador ayollarda fiziologik immunitet tanqisligi qaytariladi. U homilaning o'sishi va rivojlanishi uchun hosil qilingan va immunokorreksiyaning talab qilmaydi.

Ikkilamchi immunitet tanqisligi – alomatlar

Immunitet tizimini darhol tekshirish uchun signal simptomatologiyaga aylanishi mumkin, bu ko'pincha muammolarning dalilidir. Ikkinchi immunitet tanqisligining belgilari:

- yiringli meningit va sepsis holatlari ;
- tez-tez qaytalanuvchi yoki doimiy bakterial kasalliklar;
- stomatit belgilari;
- herpes, virusli holatlar;
- zamburug'lar va parazitlar kasalliklar bilan kasallanish;
- surunkali bronxit;
- hazm organlari bilan tez-tez uchraydigan muammolar;
- bronxotektaz kasalligi bilan kasallanish;
- ogir cho'ziluvchan pnevmoniyalar
- limfaadenopatiya va bitmaydigan yaralar (36-rasm).



36-rasm. Limfaadenopatiya va bitmaydigan yaralar.

Ikkilamchi immunitet tanqisligi qanday namoyon bo'ladi?

Ikkilamchi immunitet tanqisligining klinik ko'rinishi turlicha. Ko'pincha immunitet tanqisligi rivojlanishiga olib kelgan asosiy kasallik belgilari birinchi o'ringa chiqadi. Ammo immunologik tekshiruv zarurligini ko'rsatadigan immunitet bilan bog'liq muammolarning asosiy ko'rinishlari hali ham mavjud. Bularga quyidagilar kiradi:

- tez -tez shamollash – bolalarda yiliga olti martadan ko'p, kattalarda esa ikki martadan ko'p;
- yuqumli va yallig'lanish jarayonining har bir epizodining davomiyligi ikki haftadan oshadi;
- odatda sog'lom immunitetli odamlarda bo'lmagan infeksiyalarning qaytalanishi (herpes, kandidoz, inson papillomavirus infeksiyalari);

- bakterial infeksiyalarning qaytalanishi (furunkulyoz, gidradenit, ginekologik va LOR a'zolari kasalliklari);
- noaniq xarakterdagi haroratning yengil ko'tarilishi (agar sil va saraton kabi mumkin bo'lgan sabablar chiqarib tashlansa);
- limfadenit (limfa tugunlarining yallig'lanishi) va limfadenopatiyaning qaytalanishi (limfa tugunlarining yallig'lanishsiz kengayishi);
- astenik sindrom – zaiflik, charchoq, ishlashning pasayishi, 8 soatlik uyqudan keyin o'zini zaif his qilish;
- surunkali yaralar va davolanmaydigan yaralar.

Terapiya vaqtida kasallikning sabablarini bartaraf etish uchun tibbiy dori preparatlar yordamida amalga oshiriladi.

1. Infeksiyalar patogen bakteriyalar kelib chiqqanida antibiotiklar (Abaktal, Amoxiclav, Vankomitsin, Gentamisin, Oxacillin) buyuriladi.
2. Patogen zamburug'lar topilgan bo'lsa, antifungal preparatlar buyuriladi (Ecodax, Candid, Diflucan, Fungoterbine).
3. Antigelmint preparatlar gijjalar topilsa (Helmintox, Centel, Nemosol, Pirantel) buyuriladi.
4. Antivirus va antiretrovirus preparatlar inson immunitet tanqisligi virusi (Amiksin, Arbidol, Abakavir, Fosfazid) uchun belgilanadi.
5. Immunokonstruktorlar o'tkir va surunkali ko'rinishdagi turli xil infeksiyalari (Cordizex, Roncoleukin, Yuvet va boshqalar) uchun retseptlar beradi.

Ikkilamchi immunitet tanqisligining tasnifi va rivojlanish bosqichlari

Kelib chiqish sabablariga ko'ra:

1. Orttirilgan immuntanqisligi (OITS) – OIV infeksiyasi fonida rivojlanadi.
2. Indusirlangan immuntanqisligi – o'ziga xos omillar ta'sirida yuzaga keladi: nurlanish, infeksiya, toksik moddalar, dorilar va boshqalar.
3. Spontan immuntanqisligi – immunitet tanqisligining klinik va laboratoriya belgilarining paydo bo'lishining sababi noma'lum.

Ikkilamchi immunitet tanqisligi kechishiga qarab:

- Yashirin – faqat laboratoriya tekshiruvi vaqtida namoyon bo'ladi, alomatlar yo'q. Misol uchun, ba'zi viruslar, ayniqsa, herpes oilasining viruslari, ko'pincha inson tanasida patologiyaning namoyon bo'lishisiz topiladi. Bu keng tarqalgan virus tashuvchilardir. Vaqt o'tishi bilan viruslar immunitet tizimiga zarar yetkazadi: birinchi navbatda ular giperstimulyatsiyaga, so'ngra immunosupressiyaga olib keladi.

• Aniq – laboratoriya ma`lumotlarni tasdiqlashidan tashqari, immunitet tanqisligining klinik ko`rinishlari kuzatiladi.

Davomiyligi bo`yicha ikkilamchi immunitet tanqisligining ikki turi ajratiladi:

1. **Tranzitor** (o`tib ketuvchi) vaqt o`tishi bilan ikkilamchi immunitet tanqisligi tuzaladigan holat. Patogen omil ta'sirining kuchi va davomiyligiga bog'liq:

1. ochlik yoki ratsiondagi muhim komponentlarning yetishmasligi;

2. ruhiy tushkunlik;

3. davolanadigan kuyish kasalligi;

4. har qanday xarakterdagi vaqtinchalik stres;

5. operatsiya (agar undan keyin asoratlar rivojlanmasa, immun tizimining holati bir oy ichida tiklanadi).

6. Doimiy – limfoid to`qimalarga zarar yetkazuvchi va immunokompetent hujayralar shakllanishini buzadigan omillar ta'siri ostida paydo bo`ladi:

7. OIV infeksiyasi;

8. chegaradan oshib ketadigan dozalarda ionlashtiruvchi nurlanish;

9. limfoproliferativ kasalliklar (limfoma, limfogranulematoz, leykemiya);

10. Xeyloz, gingivit (37-38 -rasm).




37-rasm. Xeyloz 38-rasm. Gingivit

Asosiy nuqsonning lokalizatsiyasiga ko`ra:

- kombinatsiyalangan yetishmovchilik – o`zgarishlar immunitetning bir necha bo`g`inlariga ta'sir qiladi;
- T-hujayralari yetishmasligi;
- antitanachalarning yetishmasligi – asosan B -hujayrali yetishmovchilik;

- tabiiy T-killer hujayralarning nuqsoni;
- fagotsitoz yetishmovchiligi – makrofaglar va granulotsitlar yetishmasligi;
- komplement tizimining yetishmasligi;
- interferon tizimining yetishmasligi.

Immunitet holatini laboratoriya tekshiruviziz, faqat alomatlarga asoslangan holda, immunitet tizimining zararlanishining lokalizatsiyasini oʻrnatish deyarli imkonsizdir: shunga oʻxshash klinik koʻrinish har xil turdagi ikkilamchi yetishmovchilik bilan kuzatilishi mumkin. Masalan, virusli infeksiyalarga moyillik T-hujayrali yetishmovchiligi bilan ham, interferon tizimining yetishmasligi bilan ham paydo boʻlishi mumkin (39-rasm).



39-rasm. Virusning tuzilishi


OITS (orttirilgan immun tanqisligi sindromi) – sindromi OIV (orttirilgan immun tanqisligi virusi) sababli paydo boʻladigan kasallik. Ushbu kasallik inson immun tizimiga taʼsir qilib, turli xil infeksiyon va noinfeksiyon kasalliklarga sezuvchanlikni oshiradi.

OIV virusi inson organizmining hamma toʻqimalarida uchraydi, zararlangan tananing barcha ichki suyuqliklari orqali yuqadi. Misol qilib aytadigan boʻlsak sperma, qin ajralmasi, qon va koʻkrak suti orqali tarqalishi aniqlangan.

OIV – bu virus organizmning gumoral immun hujayrasi boʻlgan CD-4 hujayralarini zararlaydi. OITS – bu sindrom OIV virusining inson immun tizimiga patologik taʼsiri natijasida yuzaga keladigan ogir asoratidir (40-rasm).

OIV – bu jarayon viruslar chaqiradigan kasalliklardir.

OITS – bu OIV virusi chaqiriladigan organizmning immun tanqislik holati hisoblanadi.



**40-rasm. Viruslarning mikroskop ostida ko‘rinishi
OITSga olib keluvchi sabablari**

OIV – virusi OITSning rivojlanishi sababidir. Ba‘zi hollarda esa virus bilan zararlangan odamlarda OITS rivojlanmasligi mumkin. OITS ko‘p hollarda OIV o‘z vaqtida davolamaslik natijasida yuzaga keladi.

OIV – bu retrovirus oilasiga kiradi, organizmning muhim organlari va immun tizimi hujayralarini zararlaydi. Agar etiologik virusning rivojlanishiga qarshi antiretrovirus terapiyasi olib borilmasa, virus organizmda tez rivojlanadi. Virusning rivojlanishi organizmda turli omillarga bog‘liq. Bular insonning yoshi, organizmning OIV virusdan himoya xususiyati, sog‘lig‘i, boshqa infeksiyalar, irsiy omillar bo‘lishi mumkin.

OIV qanday yo‘l bilan yuqishi mumkin?

Jinsiy aloqa orqali – bu yo‘l bilan zararlangan jinsiy suyuqliklar (rektal, genital va og‘izning shilliq qavat) natijasida yuqadi. Bu holat jinsiy aloqa paytida himoya vositalaridan foydalanilmaganda, atipik jinsiy aloqa bo‘lganda, yoki ishlatiladigan ashyolar orqali sodir bo‘lishi mumkin.

Onadan bolaga o‘tishi mumkin – OIV bilan zararlangan ayol farzandiga OIV virusi bilan tug‘ruq davomida, homiladorlikda, ko‘krak suti bilan oziqlantirish paytida yuqtirishi mumkin.

Qon orqali yuqishi mumkin – bu yo‘l orqali yuqish rivojlangan mamlakatlarda qon quyish jarayonida ko‘proq sodir bo‘ladi. Bu holatda tomir ichiga yuboriladigan narkotik shprislarini o‘zgartirmasdan yoki zararlangan shpirslar orqali yuborilganda zararlanish kuzatiladi.

OITSning klinik belgilari

OIV ning belgilari asosan ikkilamchi infeksiyalar bakteriyalar, viruslar, zamburug'lar bilan zararlanish natijasida yuzaga chiqadi. Agar zararlangan odamning immun tizimi sog'lom bo'lsa, bu holat rivovlanmasligi ham mumkin.

OIVning boshlangich belgilari quyidagicha paydo bo'lishi

Ba'zi OIV bilan zararlangan insonlarda kasallikning klinik belgilari oylab, hatto yillab ham kuzatilmassligi mumkin. 80% holatda virus bilan zararlangandan so'ng 2-6 haftadan so'ng gripp bilan zararlangan holatdagi belgilar kuzatilishi mumkin. Bunday holatni o'tkir retrovirus sindromi deyiladi.

OIV boshlang'ich simptomlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Tana haroratining yuqori ko'tarilishi;

Qaltirash;

Bo'gimlarda og'riqlarning paydo bo'lishi;

Mushaklarda og'riqlar bo'lishi;

Tomoq og'rig'i va angina bo'lishi;

Tunda ko'p terlash kuzatilishi;

Tana bezlarning kattalashuvi;

Tanada har xil toshmalarning kuzatilishi;

Tez charchash, holsizlik;

Tezda ozib ketish, teri elastikligining yo'qolishi

Shuni yodda tutish kerakki yuqoridagi belgilar faqatgina OIV virusning o'zi bilan emas, balki ikkilamchi viruslar bilan zararlangan keyin yuzaga keladi.

Belgilarsiz OIV kechishi

Ko'pchilik hollarda OIV bilan zararlangan insonlarda birinchi zararlanish belgisidan so'ng ko'p yillar davomida hech qanday belgilar kuzatilmassligi mumkin. Bu vaqt ichida virus ko'payadi va immun tizimi va organlarni zararlaydi. Agar OIV virusini virusga qarshi dori vositalarni qo'llanmasa, organizm immun tizimi o'rtacha 10-yil faoliyat ko'rsatishi aniqlangan. OIV bilan zararlangan insonda hech qanday belgilar yuzaga chiqmaydi, ahvolidan ko'rinarli patologik o'zgarishlar yuzaga kelmaydi, o'zini yaxshi his qiladi, sog'lig'idan shikoyat qilmaydi. Etiologik ta'sir qiluvchi antiretrovirus preparatlarini har kuni muntazam qabul qiladigan insonlarda virusning ko'payishi butunlay to'xtashi mumkin. Agar bemor davolanmasa, OIV immun tizimining infeksiyalarga qarshi kurash qobiliyatini butunlay to'xtatab qo'yishi mumkin. Natijada bemorda jiddiy kasalliklar fonida og'ir asoratlar uchraydi. Bu bosqichni OITSning holati deb baholash mumkin (41-rasm).

Shuningdek, ich ketishi (dianevat, sababsiz o'pka shamolashlar) (atipik pnevmoniya) intallari, ularning keskin ezib ketishi, xavfli o'smalarning rivojlanishi yuzaga keladi. Avj olish davrida bemor sariq kasal, sil, nafas yo'llari va esinjozen ichak tizimini zararlavchi turli kasalliklarga beriluvchan holga qoladi. Tanada yuzaga kelgan boshqa kasalliklarning asarati tufayli inson hayotidan ko'z yumadi. Kasallik muqarrar o'lim bilan tugaydi.



41-rasm. Klinik belgilari

Klinik belgilar: ko'z oldi xiralashishi, doimiy ich ketishi, quruq yo'tal, haroratning hafta davomida 37 darajadan yuqori bo'lishi, tungi vaqtda ko'p terlash, doimiy charchoq, nafas qisishi, bezlar kattalashuvi, tezda vazn yo'qotilishi, og'iz bo'shlig'ida va tilda oq dog'lar (42-rasm).

OITS kasalligining belgilari

- Kasallikning yashirin davri o'rtacha 3-4 haftadan 5-6 oy, hatto 2-5 yilgacha davom etib, so'ng OIV infeksiyasining klinik belgilari namoyon bo'ladi. Bunda kamquvvatlik, ishtaha pasayishi, kechalari terlash, uzoq vaqt sababsiz tana haroratining ko'tarilishi, limfa tugunlari qay'asi, qo'ltiq osti choyning kattalashuvi kuzatiladi, tunda tashimalar paydo bo'ladi.



42-rasm. Klinik belgilari

OITSni tashxislash

Manbalardagi ma'lumotlariga ko'ra, OITS kasalligi bilan kasallangan har 8 nafar insondan bittasi o'zining OIV bilan zararlangani haqida bilmaydi. OIV virusining tashxisi immunologik qon tahlili orqali aniqlanadi. Agar bemorda OIV topilsa, test musbat natija bo'ladi. Bu tahlil o'tkaziladi. Agar inson virus bilan zararlantirish holatiga gumon

qilinadigan bo'lsa, tezlik bilan chuqurlashtirilgan tahlilni topshirishi kerak. Chunki erta tashxis qo'yilsa davolashning erta boshlanishi kasallik davosidagi samaradorligini oshiradi. Virus bilan zararlangandan so'ng har 3 oydan 6 oygacha albatta test o'tkazish kerak.

OITSni davolash

Hozirgi kungacha OIV va OITSga qarshi ishlatiladigan maxsus dori preparatlari mavjud emas. Yaratilgan davolash usullari bilan insonlarni OIV virusi bilan kasallanganlarda uzoqroq muddat umrini uzaytirishni ta'minlash mumkin. Ushbu dori vositalari OIV virusi bilan zararlangan odamlarga faqatgina ulardagi virusning ko'payishini to'xtatish orqali foyda qilishi mumkin. Agar inson virus bilan oxirgi 72 soat mobaynida zararlangan bo'lsa, virusga qarshi preparatlar virusni ko'payishini to'xtatishi mumkin. Bu davolash kursi 4 hafta mobaynida o'tkazilishi shart.

Antiretrovirus preparatlari. OIV kasalligi antiretrovirus preparatlari bilan davolanadi. Davolash OIVning organizmda tarqalishini oldini olishga qaratilgan. OIV bilan zararlangan odamlar bir necha dorilar kombinatsiyalarini qabul qilishlari shart.

Antiretrovirus preparatlar quyidagilar:

- Proteaza ingibitorlari

Proteaza – bu ferment virusning o'zidan nusxa ko'chirish bosqichiga ta'sir ko'rsatadi. Bu dori vositalariga: Atazanavir/kobistat (Evotaz), Lopinavir/Ritonavir (Kaletra) va Darunavir/ kobistatlar kiradi.

- Integraza ingibitorlari

OIV virusi integraza fermenti orqali organizmning T-hujayralarini zararlaydi. Bu hil dori vositalari aynan shu jarayonni to'xtatadi. Bu preparatlar ko'p ishlatiladi, nojo'ya ta'sirlari kam. Bu dori vositalariga: Elvitegravir (Vitekta), Dolutegravir (Tivisay) va Raltegravir (Isentress) kiradi.

- Qayta transkriptaza ingibitorlari

Bu dori vositalari virusning nusxa ko'chirish jarayonini to'xtatadi. Bu preparatlar: Abakavir (Ziagen), Lamuvudin / Zidovudin (Kombivir) va emtrisitabin (Emtriva).

- Komoretseptor xemokin antogonsitlari

Bu dori vositalari virusning hujayra ichiga kirishini to'xtatadi. Yuqoridagi dori vositalarini birgalikda qo'llash kerak. OIV ning davosi hayot davomida olib boriladi. Dori vositalari to'xtovsiz qabul qilinadi. Har bir antiretrovirus preparatlari o'zining nojo'ya ta'sirlariga ega. 1 dekabr OITS qarshi kurash kuni (43-rasm).

OITS ning oldini olish chora tadbirlari



43-rasm. 1 dekabr OITS qarshi kurash kuni

OIVning oldini olish choralari har bir tibbiyot xodimi bilishi zarur:

Himoya vositalarisiz jinsiy aloqa qilishdan tiyilish – bu yo‘l bilan inson OIV va boshqa jinsiy a‘zolarining infeksiyon kasalliklarini yuqtirib olishi mumkin. Prezervativlar har bir jinsiy aloqa uchun alohida va to‘g‘ri ishlatilishi zarur.

Narkotik vositalarni qabul qilishda – tomir ichiga qabul qilinadigan narkotik vositalari rivojlangan mamlakatlarda OIV tarqalishida asosiy o‘rinda turadi. Bu yo‘l orqali yana gepatitning C turi ham tarqaladi. Agar ignalarni ishlatish zarurati tug‘ilsa, igna steril, avval ishlatilmagan, ochilmagan bo‘lishi kerak.

Tibbiy xodimlardan talab qilinadigan chora tadbirlar – OIV bilan zararlangan kasallar bilan ishlovchi tibbiyot xodimlari albatta maxsus himoya vositalari qo‘lqoplar, niqob, himoya ko‘zoynaklari, xalatlar bilan ishlash talab etiladi. Agarda teriga qon tegadigan bo‘lsa, darhol terini suv bilan zararsizlantirish vositalari bilan yuvish zarurlanishni oldini oladi.

Homiladorlikda talab qilinadigan chora tadbirlar – bazi antiretrovirus dorilari homilaga zararli ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Shuning uchun kesercha kesish yo‘li bilan tug‘riqni olib boorish ma‘qulroq. OIV bilan zararlangan ayol ko‘krak suti bilan virusni farzandiga yuqtirishi mumkin.

Psixologik chora tadbirlar – dunyodagi ko‘pchilik OIV bilan zararlangan insonlar o‘zini zararlanganliklarini sir tutishadi. Natijada OIV tashxisi kechikadi. Vaqtida qo‘yilmagan tashxis og‘ir oqibatlar bilan yakunlanadi.

Nazorat savollari

1. Birlamchi immuntanqislik holatlar etiologik omillari qaysilar?
2. Birlamchi immuntanqislik holatlar klinik belgilarini ayting?
3. Birlamchi immuntanqislik holatlar tashxislash va davolash haqida nimalarni o'rgandingiz?
4. Birlamchi immuntanqislik holatlar profilaktikasi haqida tushuncha bering?
5. Ikkilamchi immuntanqislik holatlar qaysilar?
6. Ikkilamchi immuntanqislik holatlar tashxislash usullariga nimalar kiradi?
7. Ikkilamchi immuntanqislik holatlar profilaktikasi haqida tushuncha bering?
8. OITS haqida tushuncha bering?
9. OITS da laboratoriya tekshiruv usullarini sanag?
10. OITSGa qarshi preparatlarni ayting?

III BOB


3.1. Nafas tizimining funksional tekshiruv usullari. Spirometriya, pikfloumetriya o'tkazish qoidalari, ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalari

Nafas olish a'zolari kasalliklarini tekshirishda instrumental tekshirish usullari alohida ahamiyatga ega. Tashqi nafas funksiyasini o'lchash asosan bronxial astma, surunkali bronxit va boshqa o'pka kasalliklari bilan og'riqan bemorlar uchun eng muhim tekshirish bo'lib, ular nafas yo'llarining o'tkazuvchanligini doimiy nazorat qilishni talab qiladi. Bu, ayniqsa, murakkab usullarni qo'llash mumkin bo'lmagan hollarda juda muhimdir.

"Tashqi nafas olish" – nafas yo'li tizimidagi havo harakati jarayonini, o'pkada tarqalishini va gazlarni havodan qonga va qondan tashqariga etkazib berishni ta'minlaydigan umumiy atamadir. Tashqi nafas olish funktsiyasi bronx o'pka tizim kasalliklarini tashxislashda ishlatiladigan pulmonologiyaning eng muhim diagnostik usullaridan biridir. O'pka va bronx kasalliklariga chalingan bemorlarni tashqi nafas faoliyati funksional holatini baholash, ularni kompleks tekshirishda katta ahamiyatga ega. Ular nafas yetishmovchiligiga olib kelgan kasalliklarni aniq tashxislash imkonini bermasa ham ayrim hollarda birinchi klinik belgilar kuzatilganga qadar uni mavjudligini aniqlash imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, funksional tekshirishlar yordamida nafas yetishmovchiligini tipi, xarakteri, namoyon bo'lish darajasi, kasallikni rivojlanish va davolash jarayonida tashqi nafas faoliyatini o'zgarishini baholash mumkin.

O'pka ventilyatsiyasi ko'rsatkichlarini aniqlash. O'pka ventilyatsiyasi aniq konstantlarga ega emas. Aksariyat hollarda ular nafaqat o'pka va bronxlarning kasalliklari balki inson tanasining konstitutsional tuzilishi va uning jismoniy tayyorgarligi, bo'yi, vazni, jinsi va yoshiga ham bog'liq. Shu sababli olingan ma'lumotlar yuqorida qayd etilgan ko'rsatkichlar inobatga olgan holda maxsus nomogramma va formulalar yordamida hisoblab topilgan aynan ushbu tekshiriluvchi uchun me'yorida bo'lishi kerak bo'lgan raqamlar bilan solishtiriladi. Uning negizida ushbu bemorning asosiy almashinuvi yotadi.

Spirografiya. Ushbu tekshirish usuli yordamida eng ishonchli ma'lumotlar, jumladan, nafasning va o'pkaning bir daqiqalik hamda maksimal ventilyatsiyasi va jadal nafas chiqarish ko'rsatkichlari aniqlanadi. Shuningdek, spirograf har bir o'pka ko'rsatkichlarini alohida aniqlash imkonini beradi (44-45-rasm).



44-rasm. Spirografiya chiziqlari



45- rasm. Spirometr

Nafas hajmi (NH) – bu ko'rsatkich odam tinch holda nafas oladigan va chiqaradigan havo hajmi bo'lib, u O'HSning 15 % atrofida, NOZH va NCHZH 42 – 43 %ni, qoldiq hajmni 33 % ga yaqinini tashkil etadi. Obstruktiv ventilyatsiya yetishmovchiligi bo'lgan bemorlarda O'HS bir oz kamayadi, ammo NOZH kamayishi hisobiga NCHZH va qoldiq hajm oshadi. Shuningdek, uning oshishi o'pka emfizemasida, bronxial astmada va kamroq keksa yoshdagi kishilarda kuzatiladi. Restriktiv ventilyatsiya yetishmovchiligi bo'lgan bemorlarda NOZH ning kamayishi hisobiga O'HS yaqqol pasayadi lekin qoldiq hajm kam o'zgaradi. O'pkaning zaxira va qo'shimcha hajmlarini tekshirish nafas yetishmovchiligi baholash imkonini beradi.

Nafas olishning zaxiraviy hajmi (NOZH) – ushbu bobning kirish qismida ta'kidlanganidek bu ko'rsatkich o'rtacha 1500 – 2000 mlga teng bo'lib, odatda nafas olgandan so'ng qo'shimcha maksimal olish imkoni bo'lgan nafas hajmi hisoblanadi.

Nafas chiqarishning zaxiraviy hajmi (NCHZH) – bu teng holda nafas chiqarilganidan keyin qo'shimcha chiqarish mumkin bo'lgan eng ko'p havo hajmi hisoblanadi.

O'pkaning hayot sig'imi (O'HS) – nafas olish va chiqarishning rezerv hamda nafas hajmlaridan tashkil topgan va o'rtacha 3700 mlga teng. Bu tekshiriluvchi imkon doirasida chuqur nafas olgandan so'ng maksimal chiqarib yuborgan havo miqdori hisoblanadi.

O'pkaning qoldiq hajmi (O'QH) – o'rtacha 1000 – 1500 ml ga teng bo'lib, mumkin qadar maksimal nafas chiqarilgandan keyin o'pkada qoladigan hajmdir. O'pkaning umumiy (maksimal) sig'imi (O'US) – o'pkaning hayotiy sig'imi, rezerv havo hajmi (nafas olgandagi va chiqargandagi) va o'pkaning qoldiq hajmi yig'indisidan iborat bo'lib, juda chuqur nafas olganda o'pkaga sig'a oladigan eng katta hajmdir va u 5000 – 6000 mlga teng.

O'pka ventilyatsiyasi ko'rsatkichlari

O'pka ventilyatsiyasi ko'rsatkichlari vaqt birligida o'pkaga kiruvchi va o'pkadan chiquvchi gazlar miqdori bilan xarakterlanadi. Nafas soni (NS) – tinch holatda 1 daqiqada olinayotgan nafas harakatlari soni. Daqiqada nafas hajmi (DNH) – tinch holatda 1 daqiqada o'pkaga kiradigan va undan chiqadigan umumiy havo hajmi. U nafas sonini nafas hajmiga ko'paytirish bilan aniqlanadi va o'rtacha 6000 – 8000 mlni tashkil etadi.

Daqiqadagi alveolalar ventilyatsiyasi (DAV) – tinch holatda nafas olganda bir daqiqada alveolalarda almashinadigan gazlar miqdori hisoblanadi. Nafas olingan havoning hammasi alveolalarga yetib bormaganligi sababli uning taxminan uchdan bir qismi gazlar almashinuvida bevosita ishtirok etmaydi va funksional o'lik bo'shliq (FO'B) hajmini tashkil etadi. O'lik bo'shliq ventilyatsiyasi kuchayishi nafas yetishmovchiligida kuzatiladi.

O'pkaning maksimal ventilyatsiyasi (O'MV) – nafas tizimining maksimal zo'riqishini ko'rsatuvchi havo miqdoridir. Nafas rezervi (NR) – $NR = O'MV - DNH$ formulasi bilan aniqlanadi. Me'yorida sog'lom kishida NR o'pkaning maksimal ventilyatsiyasining 85 %ga teng. Nafas yetishmovchiligida u 60% – 55 % va undan pasayadi. O'pkaning jadallashgan hayotiy sig'imi (O'JHS)- asosiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib, mumkin qadar chuqur nafas olib maksimal jadal nafas chiqarish bilan aniqlanadi. Bu ko'rsatkich birinchi navbatda obstruktiv o'zgarishlar bor yo'qligini aniqlashga imkon beradi. 1 soniyada jadal chiqarilgan nafas hajmi (1 JCHNH) – bu o'pkaning ventilyatsiya faoliyatini aks ettiradigan asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Bu ko'rsatkich obstruktiv o'zgarishlar bo'lganda jadal nafas chiqarish susayishi, restriksiya paytida barcha o'pka hajmlarining kamayishi hisobiga pasayadi. Tiffno indeksi (TI)- 1 JCHNH ning O'HS ga nisbatidir ($1 JCHNH / O'HS$). O'HS arzimas darajada kamayishi yoki o'zgarmagan holda nafas chiqarish tezligi kamayishi hisobiga obstruktiv sindromda TI pasayadi. Restriktiv sindromda esa barcha o'pka hajmlarining mutanosib

kamayishi hisobiga TI o'zgarmaydi yoki oshadi. O'JHS 25 % chiqarilgandan keyingi maksimal hajmiy tezlik (MHT25) – O'JHS 75 % chiqarilgandan keyingi maksimal hajmiy tezlik (MHT75) bo'lib, bu ko'rsatkichlar yirik (MHT25), o'rta (MHT50) va mayda (MHT75) kalibrli bronxlarning o'tkazuvchanligini ya'ni obstruksiya bor yo'qligini aniqlashga imkon beradi (4 – jadval).

Yuqoridagi ko'rsatkichlarni aniqlash uchun bemorning jinsi, yoshi va bo'yi hisobga olinadi. Ko'rsatkichlarning me'yoriy chegaralari va o'zgarishlari quyidagi 1-jadvalda keltirilgan. Eslatma; O'MB – maksimal ventilyatsiyasi; E – erkaklar; A – ayollar.

4-jadval. O'pka ventilyatsiyasi asosiy ko'rsatkichlarining me'yoriy va patologik holatlardagi darajalari

Ko'rsatkichlar	Me'yor	O'zgarishlar		
		O'rtacha	Sezilarsiz	Keskin
O'TS	>90 %	84-70	69-50	<50
JNHI	>85 %	74-55	54-35	<35
JNHI/ O'TS	>65 %	59-50	49-40	<40
O'MV	>85 %	75-55	54-35	>35
MHT 25	E >81,6 %	69,8-52,8	52,8-35,9	<35,9
	A >80,0 %	67,2-41,8	41,8-33,3	<33,3
MHT50	E >77,2 %	62,2-32,6	32,6-22,7	<22,7
	A >76,1 %	60,8-30,8	30,8-20,8	<20,8
MHT 75	E >72,4 %	54,8-41,1	41,1-27,4	<27,4
	A >72,7 %	55,3-41,6	41,6-27,9	<27,4

Spirometriyaga ko'rsatma, qarshi ko'rsatma, ishlatish texnikasi

Tashqi nafas olish funksiyasini o'rganish surunkali obstruktiv o'pka kasalliklarini tashxislashda muhim bo'lib, ko'pchilik o'pka kasalliklarining differentsial diagnostikasini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ko'pgina hollarda ushbu tadqiqotni o'tkazish klinik tashxisni tekshirish, optimal davolash usullarini rejalashtirish va uning samaradorligini nazorat qilish imkonini beradi, ma'lum darajada patologik

jarayonni bashorat qiladi. Ushbu usulning boshqa nomlari spirometriya yoki spirografiya hisoblanadi. Maqsad nafas yo'llarining funktsional holatini aniqlashdan iborat. Amaliyot mutlaqo og'riqsiz, biroz vaqt talab etadi, shuning uchun u hamma joyda qo'llaniladi. Spirometriya kattalar va bolalar uchun amalga oshirilishi mumkin. Tadqiqot natijalariga ko'ra, nafas olish tizimining qaysi qismi ta'sirlanganligi, funktsional ko'rsatkichlar qanday kamayganligi, patologiya xavfi darajasini baholash haqida xulosa chiqarish mumkin.

Tashqi nafas olish funktsiyasini o'rganish jarayoni birinchi navbatda bemorga tekshiruv vaqtida o'rganish usuli va xatti-harakatlar qoidalarini tushuntiradi: nafas olish, nafas chiqarish va hokazo. Agar kerak bo'lsa, bemorga aniqroq tashxis qo'yish uchun qo'shimcha diagnostika taklif etiladi. Odatda, test bir necha marta amalga oshiriladi va xatoni kamaytirish uchun o'rtacha qiymat hisoblanadi.

Spirografiya tekshirish uchun klinik ko'rsatmalar quyidagilar:

1. Tamaki chekuvchilar
2. Tez-tez O'RVI kasalliklari bilan kasallanish
3. Surunkali yo'talib yuradigan insonlar
4. Jismoniy mashqlardan so'ng va tinch holatdagi nafas qisishi kuzatiladigan shaxslar
5. Allergik va vazomotor rinit
6. Professional zararlar (bo'yoq, chang va boshqalar.)
7. Jarrohlikdan oldin:
8. Bronxodilatatorlarni qabul qiluvchi bemorlarni nazorat qilish
9. Yurak yetishmovchiligi kasallarini nazorat qilish
10. Bronxial astma xurujining darajasini baholash
11. Mehnat qobiliyatini aniqlash

Spirometriya maxsus tayyorgarlik talab qilinmaydi, lekin tekshirishdan oldin qoidalar bor.

- har qanday jismoniy va asabiylik bo'lmasligi
- fizioterapiya muolajalarini to'xtatib turish
- tashxisdan oldin 2 soat va 4 soat davomida chekmaslik
- ichak va qovuq bo'shatish;
- tekshiruvdan oldin 8 soat davomida bronxodilatator (ventolin, berodual, atrovent va boshqalar) va kofeinli (choy va qahva, shu jumladan) boshqa ichimliklarni ichishdan saqlanish

- Nafas olish bilan ko'krak qafasining faoliyatiga to'sqinlik qilmaydigan erkin kiyim kiyish kerak. Bundan tashqari, tekshiruv arafasida eufullin yoki shunga o'xshash boshqa dori-darmonlarni qabul qilish qat'iyan taqiqlanadi.

Spirometr

Tashqi nafas funktsiyasining ko'rsatkichlari

Tashqi nafas funktsiyasini ifodalash uchun o'pka sig'imi va nafas hajmi kabi asosiy tushunchalardan foydalaniladi. Qo'yidagicha nafas hajmlari farqlanadi. Nafas hajmi (NX) – tinch holatda nafas olganda va nafas chiqargandagi gazlar hajmi.

Nafas olishning rezerv hajmi (NORH) – tinch holatda nafas olganda so'ngra qo'shimcha yana nafas olish mumkin bo'lgan maksimal gazlar hajmi.

Nafas chiqarishning rezerv hajmi (NCHRH) – tinch holatda nafas chiqarganda so'ngra qo'shimcha yana nafas chiqarish mumkin bo'lgan maksimal gazlar hajmi.

O'pkaning qoldiq hajmi (O'QH) – maksimal nafas chiqargandan so'ng o'pkada qolgan gaz hajmi.

O'pkaning hayotiy sig'imi (O'HS) – maksimal chuqur nafas olgandan keyin nafas chiqarishi mumkin bo'lgan maksimal gazlar hajmi. O'HS – nafas hajmi + nafas olishning rezerv hajmi + nafas chiqarishning rezerv hajmi.

Nafas olish sig'imi (NOS) – tinch holatda nafas chiqargandan so'ng nafas olish mumkin bo'lgan maksimal gazlar hajmi. NOS – nafas hajmi + nafas olishning rezerv hajmi.

Funksional qoldiq sig'imi (FQS) – tinch holatda nafas chiqargandan so'ngra o'pkada qolgan gazlar hajmi.

FQS – o'pkaning qoldiq hajmi + nafas chiqarishning rezerv hajmi.

O'pkaning umumiy sig'imi (O'US) – bu maksimal nafas olgandan keyin o'pkadagi gazlar umumiy miqdori. O'US – nafas hajmi + nafas olishning rezerv hajmi + nafas chiqarishning rezerv hajmi + o'pkaning qoldiq hajmi. Normada sog'lom odam o'pka hayotiy sig'imining 80 – 85% yuqori tezlik bilan nafas chiqarish mumkin, qolgan qismini esa sekinlik bilan nafas chiqaradi. Bronxlar bo'shlig'ida torayish joyi bo'lgan turli xil patalogik holatlarda havo oqimiga qarshilik nafas chiqarganda oshadi va yuqori tezlik bilan O'HS ning kam miqdorini nafas bilan chiqaradi. Qancha bronx bo'shlig'ida torayish bo'lsa (bronxial astmada zararlangan soha), undan havoning o'tishi shuncha kam tezlikda va O'HS shuncha kam foizini bemor yuqori tezlik bilan nafas chiqarish

xususiyatiga ega bo'ladi. Bronxlardagi torayish darajasini baholash uchun maksimal yuqori tezlikdagi nafasda aniqlangan ko'rsatgichlarni tahlil qilish kerak. Bu ko'rsatgichlarga quyidagilar kiradi:

O'pkaning jadal tiriklik sig'imi (O'JTS) – maksimal tez va kuchli nafas chiqaradigan havo hajmi.

Bir sekunddagi jadal nafas chiqarish hajmi (JNH1) – nafas chiqarishning birinchi sekundida o'pkadan chiqqan havo miqdori.

Tiffno indeksi (JNH 1/ O'JTS) – 1 sekundagi jadal nafas chiqarish hajmining o'pkaning jadal tiriklik sig'imiga (O'JTS) nisbati.

Maksimal hajmli nafas chiqarish tezligi (MHT) – nafas chiqarish vaqtida o'pka jadal tiriklik sig'imini nafas yo'llarining ma'lum sohalaridagi havo oqimining tezligi – 25, 50, 75%. MHT25, MHT50, MHT75 kabi ifodalanadi.

Nafas chiqarish avjiy tezligi (NChAT) – jadal nafas chiqarishda maksimal hajmli tezlik. Yuqoridagi barcha ko'rsatgichlarni maxsus asbob, spirometr yordamida o'lchanadi. Tekshirishning o'zi esa spirometriya deyiladi. Spirometr (lat.dan spiro-«nafas olaman» va grech. metreo-«o'lchayman») – bu tashqi nafas funksiyasining hajmli va tezlik ko'rsatgichlarini o'lchash uchun ishlatiladigan maxsus asbob. Spirometr ikki qismdan: havo oqimining tezligi va hajmini qayd qiluvchi moslama (datchik) va datchik ko'rsatgichlarini qayta ishlovchi mikroprotsessordan tashkil topgan. Hozirgi vaqtda barcha zamonaviy spirometrlarda kompyuterli texnologiyalar ishlatiladi.

Spirometrlar yordamida qo'yidagi savollarga javob berishi mumkin.

1. Tashqi nafas funksiyasida buzilish sohalari bormi?
2. Qaysi tipli nafas yo'llari o'tkazuvchanligining buzilishimi (obstruksiya) yoki o'pka to'qimasi o'zining elastikligining buzilishi (restriksiya) bormi?

3. Qanday og'irlikdagi o'zgarish?

4. Bronxlar torayishi orqaga qaytadimi? (bu savolga bronxlarni kengaytiruvchi dori preparatlarini qabul qilishdan oldingi va keyingi spirometriya ma'lumotlarini taqqoslash yordamida javob beriladi). Spirometriya bronxitga shubha qilgan barcha bemorlarda hamda bu kasallikda davolash natijalarini qaysi tomonga siljiyotganligini aniqlash uchun o'tkaziladi. Tekshirish odatda ertalab nahorda yoki yengil nonushtadan ikki soat keyin o'tkaziladi.

Birinchi odatdagi tinch nafasda, so'ngra jadal nafasda ko'rsatgichlar aniqlanadi. Bronxlardagi torayishni qaytish yoki qaytmasligini aniqlash uchun bronxlarni kengaytiruvchi dorivor moddalar bilan maxsus testlar

o'tkaziladi. Olingan ma'lumotlarni jinsi, bo'yi va yoshiga qarab jadvallar yoki maxsus formula bo'yicha har bir kishida individual aniqlash kerak bo'lgan qiymatini foizlarda ifodalash qabul qilingan.

Shunday qilib, spirometriya yordamida obstruktiv bronxidlarda tashqi nafas funksiyasining obstruktiv tip bo'yicha buzilish sohasi bormi, obstruktsiya qaytadimi va ko'rsatgichlarning normadan og'ish darajasini baholashimiz mumkin.

Pnevmatometriya – nafas yo'llarining aniqligini o'lchash. Nafas olish va chiqarish vaqtida havo oqimining tezligini aniqlaydigan maxsus qurilma yordamida amalga oshiriladi. Asosan surunkali shaklda kasalliklarni o'rganish uchun ishlatiladi. Nafas olish harakatlarini o'rganish-nafas olish va chiqarish kuchaytirganda o'pkaga maksimal havo kiritish tezligini aniqlashni belgilaydi, shu bilan bronxial o'tkazuvchanlikni baholashga yordam beradi.

Bodipletizmografiya – butun nafas olish davrida spirografiya natijalarini va ko'krak qafasining mexanik o'zgarish ko'rsatkichlarini taqqoslash orqali tadqiqotlar o'tkaziladi. Spirometriyada ko'rsatilmaydigan o'pkaning haqiqiy hajmini aniqlash imkonini beradi. O'pka diffuziya qobiliyatini o'rganish o'pkaning kislorodni inson qoniga tashish qobiliyatini ko'rsatadi. Bronxodilatatorlar bilan spirometrik test-bu to'siqning ahamiyatini baholash uchun amalga oshiriladi. Surunkali obstruktiv o'pka kasalligini (SOO'K) astma bilan farqlashga yordam beradi va kasallikning rivojlanish bosqichini aniqlaydi.

Ko'rsatkichlar, nafas olish, yo'tal va nafas qisilishi o'zgarishlariga qarshi shikoyatlar; astma, SOO'K; o'pka kasalliklari shubhalari; qonda karbonat angidrid miqdori va kislorod miqdori pastligi; operatsiyalarga yoki invaziv o'pka tekshiruvlariga tayyorgarlik ko'rishda nafas olish tizimini tekshirish; chekuvchilar, zararli korxonalarda ishlovchi xodimlari va nafas olish tizimida allergiyasini aniqlagan shaxslarni skrining tekshiruvi o'tkaziladi.

Bodipletizmograf. Bu asbob yordamida bronxlar qarshiligi, solishtirma o'tkazuvchanligi, gazni ko'krak ichidagi hajmi (KIH), O'QH o'pkaning umumiy sig'imi (O'US) kabi ko'rsatkichlar tahlil qilinadi. Ushbu ma'lumotlar yordamida O'SOK (KIH, O'QH, O'US va boshqa ko'rsatkichlar sezilarli darajada pasayadi) va bronxial astma (KIH, O'US me'yorida bo'lib, O'QH keskin kamayadi) hamda boshqa kasalliklar bilan solishtirma tashxis o'tkazish imkonini beradi (46- rasm).



46- rasm. Bodipletizmografiya

Pikfloumetriya

Pikfloumetriya bronxial astma, surunkali bronxit va boshqa o'pka kasalliklari bilan og'rikan bemorlar uchun eng muhim tekshirish bo'lib, ular nafas yo'llarining o'tkazuvchanligini doimiy nazorat qilishni talab qiladi. Bu, ayniqsa, murakkab usullarni qo'llash mumkin bo'lmagan hollarda juda muhimdir. Qo'llash usuli oddiy: kuniga ikki marta ertalab va kechqurun bemorda tekshirish olib boradi va natijalarini mustaqil ravishda olib boradigan jadvalda qayd etadi. Jadval shifokor va bemorga astma va bronxitning xususiyatlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradigan katta diagnostik ahamiyatga ega. 10%dan ortiq oqimning eng yuqori hajmidagi o'zgarish muhim hisoblanadi.

Pikfloumetriyaga ko'rsatmalar:

1. Kasallikning mavjud belgilari bronxial spazm bilan aloqasini aniqlash. Bunday hollarda simptomlar paydo bo'lganda va simptomsiz davrda o'lchovlarni amalga oshirish kerak.
2. Individual nafas olish preparatlarini tanlash. Preparatni qo'llashdan oldin va 20 daqiqadan so'ng pikfloumetriya o'lchami preparatni bronxning ochilish holatiga ta'sirini baholash imkonini beradi.
3. Dori-darmonlar bilan sinov terapiyasini kuzatish, uning ta'siri asta-sekin, bir necha hafta davomida rivojlanadi.
4. Astmaning qaytalanishi va xurujlarini aniqlash va davolash. JNCHH1 (OFV1)ning kamayishi, Tiffno indeksining pasayishi kuzatilib bu bronxlar o'tkazuvchanligining obstruktiv tipda buzilishining xarakterli belgilari hisoblanadi.

Pikfloumetriya – nafas chiqarishning eng yuqori tezligini maxsus moslama pikfloumetr yordamida aniqlash bo'lib, u o'pka faoliyatini shu jumladan, nafas o'tkazish yo'llari torayish darajasini ob'yektiv baholash

imkoniyatini beradi. Pikfloumetriya – nafas chiqarish hajmining choʻqqi tezligini aniqlaydigan diagnostik tekshirish usuli boʻlib, doimiy bemorlar holatini nazorat qilishda muhim ahamiyatga ega. U ertalab (dori-darmonlarni qabul qilishdan oldin) va kechqurun individual choʻntak qurilmasi yordamida amalga oshiriladi – pikfloumetr. Ertalab va kechqurun (PSV) qiymatining 20%dan oshmasligi maqsadga muvofiqdir (47- rasm).

Pikfloumetriya



47- rasm. Pikfloumetriya

Nafas chiqarishning eng yuqori tezligi (NCHEYT) – bu chuqur nafas olingandan soʻng kuchaytirilgan nafas chiqarishning eng yuqori tezligi hisoblanib, u bronxlar oʻtkazuvchanligi haqida aniq maʼlumot beradi.

- Obstruktiv buzilishlar va bronxlar obstruksiyasini aniqlash;
- Obstruktiv buzilishlar ventilyatsiyasining ogʻirlik darajasi va kasallik kechishini baholash;
- Bronxial astma hamda uning turli klinik shakllari va oʻpkaning boshqa surunkali obstruktiv kasalliklarini qiyosiy tashxislash;
- Bronxial astma xurujlari yuzaga kelishini prognoz (bashorat) qilish;
- Davolashni rejalashtirish;
- Davolash samaradorligini monitoringini oʻtkazish;
- Shifokor va bemorlarni kasallik kechishini prognoz qilish imkoniyatini yaratish.

Qadamma -qadam bajarish.

Tekshirishni bemorni turgan va oʻtirgan holatida oʻtkazish mumkin.

Pikfloumetrni tayyorlash

1. Tekshirayotgan xodim ko'rsatkichni (strelkani) boshlang'ich darajaga keltirishi hamda steril nasadka qo'yishi kerak;
2. Bemordan pikfloumetni tanasiga gorizontal ravishda tutish va imkoni boricha chuqur nafas olish so'raladi, undan so'ng u mundshtukni lablari bilan mahkam tutib oladi, kuchli va tez, iloji boricha mundshtukni til bilan berkitib qolmagan holda birdan nafas chiqaradi;
3. Sinama o'tkazishni uch marotaba qaytarish lozim. Agar zarur bo'lsa ular orasida bemor dam olishi mumkin;
4. Eng yuqori ko'rsatkich hisobga olinadi va yozib qo'yiladi;
5. Agar bemor dori vositasini ingalyatsiya yordamida qabul qilayotgan bo'lsa u holda nafas chiqarishning eng yuqori tezligini aniqlashni ingalyatsiyadan oldin yoki undan 10 daqiqa keyin o'tkazish kerak (48-rasm).



48- rasm. Pikfloumetrdan foydalanish qoidalari va texnikasi

NCHEYTning kattaligi bir daqiqada chiqarilgan (1daq) litrlardagi havo bilan ifodalanadi. Olingan ma'lumotlar hisoblanayotganda NCHEYTning lozim bo'lgan kattaligini aniqlash uchun nomogrammalardan (jadvallar) bemorning jinsi, yoshi va bo'yini hisobga olgan holda foydalaniladi. Chunki, NCHEYT ko'rsatkichlari ularga bog'liq bo'lib, keng ko'lamda o'zgaradi (5- jadval).

5-jadval. Nafas chiqarishning eng yuqori tezligining (1 daq) o'rtacha ko'rsatkichlari

Erkaklar

Yoshi (yillarda)	150,0	162,5	Bo'yi (sm) 175,0	187,5	200,0
20	554	602	649	693	740
25	543	590	636	679	725
30	532	577	622	664	710
35	521	565	609	651	695

40	509	552	596	636	680
45	498	540	583	622	665
50	486	527	569	607	649
55	475	575	556	593	634
60	463	502	542	578	618
65	452	490	529	564	603
70	440	477	575	550	587

Ayollar

Yoshi (yillarda)	137,5	150,0	Bo'yi (sm) 162,5	175,0	187,5
20	300	423	460	496	529
25	385	418	454	490	523
		413	448	483	516
35	375	408	442	476	509
	370	402	436	470	502
45	365	397	430	464	495
50	360	391	424	457	488
55	355	386	418	451	482
60	350	380	412	445	475
65	345	375	406	439	468
70	340	369	400	482	461
Bolalar va o'smirlar					
Bo'yi (sm)	O'g'il va qiz bolalar	Bo'yi (sm)	O'g'il va qiz bolalar	Bo'yi (sm)	O'g'il va qiz bolalar
107,5	147	127,5	254	147,5	360
110	160	130	267	150	373
112,5	173	132,5	280	152,5	387
115	187	135	293	155	400
117,5	200	137,5	307	157,5	413
120	214	140	320	160	427
122,5	227	142,5	334	162,5	440
125	240	145	347	165	454

Pikfloumetriyada olingan natijalar yordamida yuqoridagi jadvallarda keltirilgan ko'rsatkichlardan foydalanib tekshiriluvchida bo'lishi lozim bo'lganga nisbatan NCHEYT foizlarda aniqlanadi. Masalan, 40 yoshli ayolda (bo'yi 150 sm) pikfloumetriyada NCHEYT 340ml ekanligi aniqlandi. Jadvalda esa NCHEYT – 402 mlni tashkil etgan. Uning lozim bo'lishi kerak bo'lgan ko'rsatkichi quyidagicha hisoblanadi:

402 ml – 100 %

340 ml – X %

Demak, tekshirilgan ayolda NCHEYT lozim bo'lishi kerak bo'lgan ko'rsatkichni 84,6 % tashkil etadi.

Olingan natijalarni baholash

- NCHEYT lozim bo'lgan ko'rsatkichni >90 % – me'yorida;
- NCHEYT = 80 – 90 % – shartli me'yorida;
- NCHEYT = 50 – 79 % – o'rtacha pasaygan;
- NCHEYT < 50 % – keskin pasaygan.

Eslab qoling!

NCHEYTning ko'rsatkichi lozim bo'lgan ko'rsatkichni 80%dan past bo'lsa, bu holat bronxial obstruktsiya borligidan dalolat beradi.

Tablil qilish va prognozlash

- NCHEYT = zarur bo'lgan ko'rsatkichni 80 – 89 % tashkil etsa, bemor dinamik kuzatuvga muhtoj;
- NCHEYT = 50 – 79 % oralig'ida bo'lsa, bemor kuchaytirilgan davo choralarini o'tkazishga muhtoj;
- NCHEYT = 50 % va undan kam bo'lsa bemorni shifoxonaga yotqizish lozim.

Bronxodilyatasion sinama o'tkazish qoidalari

Bronxodilyatasion sinama salbutamol bilan qo'yiladi

Pikfloumetr yordamida NCHAT ko'rsatkichi aniqlanib, unga asosan bronxlar obstruksiyasini erta aniqlash, kasallikning og'irlik darajasi, prognozi, bronxial obstruksiyaning kunlik o'zgarishi va qaytarligi, uning o'tkazuvchanligi va davo samaradorligi baholanadi hamda qiyosiy tashhis o'tkaziladi. Pikfloumetrni qo'llash oddiy va qulay bo'lganligi sababli, nafaqat shifoxona, balki ambulatoriya sharoitida ham amalga oshirilishi mumkin. BA bilan kasallangan har bir bemorning shaxsiy pikfloumetri bo'lishi maqsadga muvofiq.

NCHATning kunlik o'zgarishi (ertalabki va kechki ko'rsatkichlar farqi) quyidagicha hisoblanadi.

X – NCHAT ning bir kecha kunduzda o'zgarishi (%)

NCHAT ertalab – ertalab bronxolitik qabul qilishdan oldin,
NCHAT kechqurun – kechqurun bronxolitik qabul qilgandan keyin.
Uning kunlik o'zgarishi 20% va undan yuqori bo'lsa bronxlar
giperreaktivligi ya'ni yallig'lanish jarayoni beqarorligini ko'rsatadi.
BA bilan og'riqan bemorlarni uy sharoitida pikfloumetr yordamida
nazorat qilishni osonlashtirish maqsadida so'nggi yillarda svetofor
usulidan foydalanish taklif etilgan va u quyidagicha.

Yashil zona. Kasallik kechishi nazorat ostida bo'lib, NCHAT
ko'rsatkichlari individual me'riy ko'rsatkich hajmining 80%dan yuqori.
Bemorning faolligi va uyqusi buzilmagan, klinik belgilar yaqqol
namoyon bo'lmagan yoki kuzatilmaydi.

Sariq zona. Bemorni ogohlantirish zonasi bo'lib, NCHAT ko'rsatkichlari
individual me'yoriy ko'rsatkich hajmining 50-80%ga teng, kunlik
o'zgaruvchanlik 20-30%. Bemorni tunda nafas siqish xurujlari bezovta
qilishi, o'pkada xushtaksimon xirillashlar eshinishi kasallikning
qo'ziganidan yoki o'tkazilayotgan davoning yetarli darajada samarali
emasligidan darak beradi hamda qo'shimcha tibbiy yordam ko'rsatish
zarurligini taqozo etadi.

Qizil zona. Bu xavf yaqinlashayotganligini ko'satuvchi belgi hisoblanib,
NCHAT individual me'yoriy ko'rsatkichi hajmining 50%dan kam bo'lib,
bemorni kechalari ham hansirash bezovta qiladi, yurishga, hatto
gapirishga qiynaladi. Bemor qizil zonada bo'lganda zudlik bilan tibbiy
yordam ko'rsatish kerak.

Shifokorlar tomonidan bemorlarga pikfloumetrni qo'llashni
o'rgatish va uni amaliyotga keng joriy etish, ularga o'z-o'zini nazorat
qilish imkoniyatini yaratadi hamda pirovard natijada remissiya davrini
uzaytirish, qo'llaniladigan β 2 – agonistlarga bo'lgan ehtiyojni
kamaytirish, hayot sifatini yaxshilash, umrini uzaytirish imkoniyatini
yaratadi.

3.2. Laboratoriya va instrumental tekshirish usullari

Rentgen yordamida tekshirish

Nafas a'zolarini tekshirish uchun ko'krak qafasi rentgenografiyasi,
tomografiya, bronxografiya va fluroografiya qo'llaniladi.

O'pkalar rentgenoskopiyasi

O'pka maydonlari tiniqligi, uning to'qimasida zichlashish
o'choqlari (infiltrat, pnevmoskleroz, o'smalar) va bo'shliqlar, traxeya va
bronxlarda yot moddalar borligini, plevra bo'shlig'ida suyuqlik yoki havo

mavjudligini shuningdek, plevraning dag'al bitishma va shvartlarini aniqlashga imkon beruvchi keng tarqalgan tekshirish usuli.

Rentgenografiya

Rentgenoskopiyada aniqlangan nafas a'zolaridagi patologik o'zgarishlarni rentgen plyonkasiga qayd etish va tashxis qo'yish maqsadida qo'llaniladi. Ba'zi o'zgarishlar (keskin bo'lmagan o'choqli zichlashish, bronx-tomir surati va boshqalar) rentgenoskopiyaga nisbatan rentgenogrammada yaxshi ko'rinadi (49-rasm).



49-rasm. Rentgenografiya

O'pkalarni qavatma-qavat rentgen yordamida tekshirish imkonini beradi. U o'smalar hamda katta bo'lmagan infiltrat, bo'shliq va kavernalarni aniqlashda qo'llaniladi (50-rasm).



50-rasm. Tomografiya

Bronxlarni tekshirish. Bemorda nafas yo'llari anesteziyasi amalga oshirilgach, bronxlar bo'shlig'iga rentgen nurlarini tutib qolish xususiyatiga ega bo'lgan kontrast modda (yodolipol) yuboriladi va o'pkalar rentgenogrammasi amalga oshiriladi. Unda Bronx daraxtlari surati aniq ifodalanadi va bu o'pkadagi absess va kavernalar, bronxoektazlar, bronxlar bo'shlig'ining o'sma bilan to'silishini aniqlash imkonini beradi (51-rasm).



51-rasm. Bronxografiya

O'pkalarni rentgen yordamida tekshirish usullaridan biri bo'lib, tasvir kichik o'lchamli plyonkaga tushiriladi. Aholi orasida keng qamrovli profilaktika tekshiruvlarini o'tkazishda qo'llaniladi.

Endoskop yordamida tekshirish

Endoskopiya yordamida tekshirish usullariga bronxoskopiya va torakoskopiya kiradi. Bronxoskopiya birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi o'lchamdagi bronxlar va traxeya shilliq qavatini ko'zdan kechirish uchun qo'llaniladi. Ushbu usul nafas a'zolari o'smalari va yiringli kasalliklarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Tekshirish maxsus uskuna – bronxofibroskop yordamida amalga oshiriladi. Uning tarkibida biopsiya, yot moddalar va poliplarni olish uchun maxsus tutqichlar va suratga tushirish moslamasi mavjud. Bronxoskopiya o'tkazish oldidan yuqori nafas yo'llari shilliq qavati diametrinning 1-3 %li eritmasi bilan og'riqsizlantiriladi. So'ngra bronxofibroskop og'iz va tovush tirqishi orqali traxeyaga kiritiladi. Tekshiruvchi traxeya va bronxlarning shilliq qavatini ko'zdan kechiradi. Apparatdagi maxsus tutqichlar yordamida shubhali sohalardan gistologik hamda sitologik tekshirish uchun to'qima bo'lakchasi (biopsiya) olish va suratga tushirish mumkin. Bronxoskopiya nafaqat bronxlar shilliq qavati eroziyasi, yaralari va o'smasini aniqlash balki bronxoektaz kasalligi va o'pkaning markazida joylashgan absesslarini davolash uchun ham qo'llaniladi. So'nggi holatlarda bronxofibroskop orqali avval bronx bo'shlig'idagi yiring tortib olinib so'ngra antibiotiklar yuboriladi.

Gench – Shtange sinamasi – Bu nafas olish va chiqarish vaqtida nafasni to'xtatib turish mumkin bo'lgan eng ko'p vaqt birligidir. Nafas olingandan so'ng uni ushlab turish vaqti me'yorida 40 s, ko'rsatkichlarni kamayishi nafas yollarida xastalik borligidan darak beradi.

Spirometriya – o'pkadan chiqariladigan havo hajmini o'lchash usuli bo'lib, tashqi nafas faoliyati ko'rsatkichlarini tahlil qilish uchun uzoq yillardan beri foydalanib kelinadi. Ammo shu o'rinda so'nggi yillarda zamonaviy apparatlardan foydalanilishini ta'kidlab o'tish lozim.

Pnevмотахometriya. O'pka ventilyatsiyasiga har tomonlama baho berishda havo yo'llarning o'tkazuvchanligini pnevмотахometriya usuli bilan tekshirish katta ahamiyatga ega. Bunda jadallashgan nafas olish va chiqarish vaqtida bronxlar orqali 1 soniyada o'tadigan havo miqdorini litrlar hisobida aniqlash mumkin. Bu tekshirish PT – 1 yoki PT – 2 rusumli pnevмотахometr asboblari yordamida o'tkaziladi.

Asbob ko'rsatkichining og'ishiga qarab, bronxlar tizimidan o'tayotgan havo tezligi aniqlanadi. Me'yorida asbob ko'rsatkichlari 4,0 – 8,0 l/s atrofida (erkaklarda – 6-8, ayollarda esa – 4-6 l/s) yoki 85 % atrofida bo'ladi. Yuqorida qayd qilingandek so'nggi yillarda tashqi nafas faoliyatini baholash uchun yetakchi xorijiy davlatlarda ishlab chiqarilgan murakkab shaxsiy kompyuter asosida ishlaydigan zamonaviy apparatlardan foydalanilmoqda.

Masterlab apparati tashqi nafas faoliyatini atroflicha tekshirishga imkon beradi. U IVM RO AT 386 kompyuteri asosida ishlaydi va bir necha ming bemorlarni tekshirish jarayonida olingan ma'lumotlarni kompyuter dasturi asosida qayta ishlab chiqish va xotirada saqlash imkoniyatiga ega. Bu tizim uchta modulni o'z ichiga oladi:

- bodipletizmograf;
- pnevмотахograf;
- o'pkani diffuz layoqatini tekshirish uchun ishlatiladigan qo'shimcha moslama.

Pnevмотахografiya – odam tinch nafas olib turgan va ma'lum harakatlarni bajarayotgan vaqtda havo harakatining hajmiy tezligini chizma holida qayd qilish usuli. Hozirgacha ushbu usul o'pka ventilyatsiya faoliyatini tekshirish uchun eng ko'p qo'llaniladi. Uning asosiy sababi tekshiriladigan ko'rsatkichlarni oson va to'g'ri qayd qilish, takrorlab ko'rish hamda bronxlar obstruksiyasi sindromi bor yo'qligini aniqlash imkonining mavjudligidir (52-rasm).



52-rasm. Pnevмотахografiya

O'pkaning diffuziyali layoqati – buni ko'rsatkichni tekshirish fibrozlovchi idiopatik alveolit, sarkoidoz va bronx daraxtining boshqa

kasalliklari, shuningdek o'pka parenximasida organik o'zgarishlar bilan kechadigan pulmonologik xastaliklarni ham aniqlashga imkon beradi.

Pnevmoskop apparati. U tashqi nafas faoliyati ko'rsatkichlarini tekshirish uchun mo'ljallangan va masterlab apparatining xotirasiga ega emas. U spirografiya va pnevmotaxografiya yordamida olingan nafas ko'rsatkichlarini tezkor talqin qilib bera oladi. Pnevmoskopning qulay tomoni ommaviy ravishda o'tkaziladigan tekshirishlarda qo'llash imkoniyatini mavjudligi. Bundan tashqari apparat yordamida dilatatsiya sinamalarni ham baholash mumkin.

Bronxoskrin apparati. Bu apparat obstruksiyaga olib keluvchi adrenergik yoki xolinergik mexanizmlarning ta'siri ma'lum miqdordagi belgilangan aerzollarni organizmga yuborish yordamida bronxlar giperreaktivligini (sezuvchanligi) aniqlash imkonini beradi.

O'pkada funksional tekshirishlar o'tkazishga qarshi ko'rsatmalar:

- nafas yo'llarining og'ir darajadagi obstruktsiyasi;
- yaqinda boshdan kechirilgan miokard infarkti;
- arterial anevrizm borligi;
- yaqinda boshdan kechirilgan insult;
- bronxial astmaning qo'zigan payti;
- yuqori darajali gipertenziya;
- epilepsiya.

Bronxial astmada nazorat jarayonini osonlashtirish maqsadida svetofor tamoyili qo'llaniladi va u quyidagicha :

Agar NCHEYT zarur ko'rsatkichning 50-80%ni tashkil etsa, bemorda bo'g'ilish xurujlari (tunda ham), xushtaksimon xirillashlar, faollikning pasayishi va boshqa belgilar kuzatiladi bu kasallikni avjlanganidan yoki "yashil zona"da yetarlicha faol davolash o'tkazilmaganligidan dalolat beradi. "Sariq zona" ga tez-tez tushib qolish kasallik yetarli darajada nazoratida emasligini ko'rsatadi va davolashni kuchaytirishni talab etadi. Agar NCHEYT zarur ko'rsatkichning 50 % dan kam bo'lsa bemorning j tinch holatda ham nafas siqish xurujlari va hansirash bezovta qiladi. Harakat qilishi hatto gapirishi ham qiyinlashadi. Qizil zona bemorga intensiv terapiya bo'limida tez tibbiy yordam ko'rsatish lozimligini ko'rsatadi.

Balg'amni tekshirish

Balg'am – bronx – alveola yo'llaridan yo'talganda tashqariga chiqadigan patologik ajralma hisoblanadi. Uning tarkibi shilliq, seroz suyuqlik, qon va nafas yo'llari hujayralari, to'qimalar parchalanishidan hosil bo'lgan elementlar, kristallar, mikroorganizmlar, gelmintlar va

ulaming tuxumlaridan iborat bo'lishi mumkin. Balg'amni tekshirish nafas a'zolaridagi patologik jarayonni xususiyati, ayrim hollarda esa etiologiyasini aniqlash imkonini beradi. Tekshirish uchun og'iz chayilgandan so'ng, ertalabki nonushtadan oldingi balg'am olinadi. Faqat silni chaqiruvchi tayoqchalarni aniqlash uchun uni 2 kun davomida (agar bemor kam miqdorda balg'am ajratsa) yig'ish mumkin. Eskirgan balg'amda saprofit hujayralar ko'payib shaklli elementlar buziladi. Balg'am yig'ish uchun o'lchov chiziqlari bilan bo'lingan va og'zi buralib yopiladigan maxsus idishdan foydalaniladi. Balg'amni o'rganish avval uni tiniq rangsiz bankada keyin Petri kosachasida (navbatma-navbat oq va qora fonda) ko'zdan kechirishdan boshlanadi. Quyidagi belgilarga ahamiyat beriladi:

1. Balg'amni xarakteri. Shilliq balg'am odatda, rangsiz va yopishqoq bo'lib, o'tkir bronxitda kuzatiladi. Seroz balg'am ham rangsiz, suyuq, ko'pikli bo'lib, o'pka shishida kuzatiladi. Shilliq – yiringli, sariq yoki ko'kimtir, yopishqoq balg'am surunkali bronxit, o'pka sili va qator boshqa kasalliklarda ajraladi. Yarim suyuq, ko'kimtir – sariq, yiringli balg'am o'pka absessi yorilganda kuzatiladi. Qonli balg'am kuzatiladi: toza qonli – o'pkadan qon ketganda (sil, rak, bronxoektazlar), aralash, misol uchun shillikli – yiringli qon shilliqlari bilan (bronxoektazlarda), shillikli – ko'pik aralash qonli (o'pka infarkti, kichik qon aylanish doirasida dimlanish bo'lganda), yiringli – qonli, yarim suyuq, jigarrang (o'pka gangrenasi va absessida).

2. Konsistensiyasi. Balg'am uning xususiyati bilan bevosita bog'liq bo'lib, yopishqoq, quyuq va suyuq bo'lishi mumkin. Balg'amda proteolitik fermentlar va patogen mikroblarning ko'payishi mukopolisaxaridni faol parchalaydi va uning quyuqlashishini kamaytiradi. Balg'amning quyuqlashish darajasi o'pkadagi yallig'lanish faolligining ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi: bakterial yallig'lanish kuchaysa balg'am suyuqlashadi, muvaffaqiyatli antibakterial terapiya o'tkazish jarayonida quyuqlashadi va bir kecha-kunduzda ajraladigan miqdori kamayadi.

3. Miqdori. Kam miqdordagi balg'am nafas yollari shamollaganda (laringit, traxeit, o'tkir bronxitni erta bosqichida, bronxial astmani xuruj kuzatilmagan davrida, bronxopnevmoniyada) kuzatiladi

O'pka to'qimasi va bronxlarda bo'shliqlar bo'lganda ko'p miqdorda balg'am ajraladi (bronxoektaz kasalligi, o'pka absessi, empiema yorilganda, o'pka qon bilan to'lib bronxlar ko'p miqdorda plazmani o'ziga shimib olganda (o'pka shishi).

4. Qavatlariga ajralishi. Yiringli balg'amni ma'lum muddat ushlab turganda uning ikki (yiringli va qon zardobi) yoki uch qavatga (yiringli, qon zardobi va yuzasida shilliq parchalari) ajralishi kuzatiladi. Balg'amning ikki qatlamga ajralishi o'pka absessiga, uch qatlamga ajralishi bronxoektaz kasalligi va o'pka siliga (so'nggisida kavernalar bo'lganda) xos.

5. Rangi va tiniqligi. Balg'amning rangi va tiniqligi uning xususiyatiga bog'liq bo'lib, uning asosini ko'proq nima tashkil etishiga (shilliq, yiring) va nafas olgandagi zarrachalarga bog'liq.

Shilliqli balg'am, shishasimon va tiniq

Shilliqli – yiringli-sariq tus shishasimon

Yiringli – shilliqli-sariq-ko'kimtir

Yiringli – sariq-ko'k rangli

Shilliqli – qonli-zangsimon tUSDagi, alvon rang ko'rinishidagi shishasimon

Shilliqli – yiringli-qonli-shishasimon, mayda qizil ipchalar yoki zangsimon ko'rinishdagi guvalachalar ko'rinishida bo'lishi mumkin.

O'pka shishida – suyuq, tiniq-sariq rangli, ko'pikli va qon zardobi oqsillari bo'lganligi sababli yopishqoq bo'ladi. O'pkadan qon ketganda – suyuq, qizil rangli, ko'pikli (havo pufakchalari bo'lganligi sababli). Ba'zan xavfli o'smalarda (ular parchalanishi oqibatida) malina murabosi ko'rinishida bo'lishi mumkin.

6. Hidi. Tashqarida, bronxlarda yoki o'pkada yuzaga kelgan patologik bo'shliqlarda balg'am uzoq turib qolganda (anaerobni oqsillar chiritib, parchalanishi oqibatida indol, skatol, serovodorod hosil bo'lishi oqibatida) hid paydo bo'ladi. Yangi ajralgan balg'amda odatda hid bo'lmaydi. Surunkali bronxidlarda ularning drenaj faoliyati buzilganda balg'am qo'lansa – yomon hidli bo'ladi. O'ta yomon hidli balg'am – bronxoektaz kasalligida, o'pka absessida ba'zan o'pka sili va xavfli o'smalarda (nekrozga uchraganda) kuzatiladi. O'pka gangrenasida balg'amdan chirigan hid keladi. Kurshman spirallari – bronxial astmani tashxislashda ahamiyatli, balg'amning shaklga ega bo'lmagan boshqa tarkibiy qismidan keskin farq qiluvchi shtoporga o'xshash buramali trubachalar. Fibrinoz o'ramli – fibrinoz bronxit kam hollarda krupoz zotiljamda ahamiyatga ega bo'lgan, shilliq va fibrindan iborat elastik konsistentsiyali, uzunligi 10–12 (ba'zan 18) sm, oq shoxlagan daraxtsimon yoki och qizil rangli. Yasmiq yoki guruchsimon tanachalar (Kox linzalari) – elastik tolalar, sil tayoqchalari va detritlardan tuzilgan, kattaligi to'g'nog'ich boshchasi yoki no'xatdek yoki tvorogsimon

konsistensiyali, ko'kish-sariq rangli anchagina qattiq va o'pkaning kavenozli silida aniqlanadi Yiringli probkalar (Ditrix probkalari) – bronxoektaz kasalligi va o'pka gangrenasida uchraydigan detrit, bakteriya va yog' kislotalari kristallaridan tuzilgan, kattaligi to'g'nog'ich boshidek bo'lgan oq yoki sariq-malla rangli yumaloq narsa ko'rinishida bo'ladi. Halqum va tomoqdan bo'g'ma kasalligida (difteriya) ajraladigan plyonkalar – fibrin va nekrozga uchragan hujayralardan tuzilgan, ayrim joylari qon bilan bo'yalgan, chekkalari uzuq-yuluq kulrang tuzilma shakllanadi.

Balg'amni mikroskopda tekshirish.

O'pkaning nekrozga uchragan bo'lakchasi – o'pka absessi va gangrenasida uchrovchi, tarkibida elastik tolalar va donador qora pigmentlar ba'zan biriktiruvchi to'qima, qon tomirlari, leykotsitlar va eritrotsitlar saqlovchi turli kattalikdagi tuzilmalar. Exinokokk – pufakchalari kulrang-oq yoki sariq rangda ba'zan o'zida qon, kattaligi kichik no'xatdek ba'zan yong'oq va undan ham katta bo'lgan tuzilmalar. O'pkadagi exinokokk kistasini yangi yorilib yo'talganda ko'p miqdorda rangsiz suyuqlik ajraladi. Aksariyat hollarda balg'amni reaksiyasi ishqorli. U buzilganda va oshqozon shirasi aralashganda kislotali bo'ladi hamda qon tupurishni qonli qayt qilishdan ajratish imkonini beradi. Yassi epiteliyalar – og'iz, halqum, halqum usti va ovoz bog'lamlari shilliq qavatining ajralgan epiteliyalari. Yassi – yarim yassi epiteliy hujayralari deyarli barcha hollarda uchraydi. Ular ko'p miqdordagi so'lakni og'iz bo'shlig'ida yallig'lanish jarayoni elementlari bilan aralashishi oqibatida kuzatiladi. Silindrsimon epiteliyalar – bronx va traxeyalarni shilliq qavati epiteliyalari. Bronxial astmaning o'tkir xuruji, o'tkir bronxit, yuqori nafas yo'llarini kataral yallig'lanishlarida ko'p miqdorda uchraydi. Makrofaglar – o'pka va bronxlarning turli yallig'lanish jarayonlarida kuzatiladi. Kichik qon aylanish doirasida dimlanish, o'pka infarkti, Gudpascher sindromi, o'pkaning idiopatik gemosideroziga chalingan bemorlar balg'amida siderofaglar aniqlanadi. Adenokarsinomalar va yassi hujayrali xavfli o'smalarda bemor balg'amida o'sma hujayralari aniqlanadi. Deyarli barcha tekshiriladigan balg'amda leykotsitlar, shilliqli balg'amda kam miqdorda, yiringlisida esa butun ko'ruv maydonini qoplagan eritrotsitlar aniqlanadi (ba'zan ular orasida eozinofillar ko'rinadi). Ko'ruv maydonida yagona eritrotsitlar barcha balg'amda aniqlanadi. Qon aralash balg'amda esa (o'pkadan qon ketganda, o'pka infarktida, o'pkadagi dimlanishlarda) u ko'p miqdorda bo'ladi. Elastik tolalar – o'pka to'qimasi parchalanishlarida (o'pka sili, absessi, o'smasi) aniqlanadi. Fibrin tolalari

– fibrinoz bronxitda, silda, aktinomikozda va krupoz zotiljamda kuzatiladi. Kurshman spirallari – shilliqdan ajralgan spiralga oʻxshab koʻrinadigan tuzilmalar bronxospazm bilan kechuvchi oʻpka kasalliklarida (bronxial astma) aniqlanadi. Sharko-Leyden kristallari balgʻamda eozinofillar bilan uchraydi. Ularning paydo boʻlishiga eozinofillarning parchalanishi sabab boʻladi. Ushbu kristallarning balgʻamda boʻlishi bemorda bronxial astma borligidan dalolat beradi. Baʼzan gijjalar bilan zararlanganda ham uchrashi mumkin. Xolesterin kristallari, yogʻ kislotalari, balgʻam boʻshliqlarda uzoq qolib ketganda (oʻpka absessi, bronxoektazlar) aniqlanadi. Eozinofillarning balgʻamda aniqlanishi bronxial astmani va bronxospazm bilan kechuvchi bronxitning asosiy laborator belgilaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, u dorilar chaqirgan zotiljam va Leffler sindromida ham aniqlanadi. Ushbu tekshiruv uchun balgʻam ikkita predmet oynasi orasiga surtiladi. Bakterioskopik tekshirishda qator mikroorganizmlarni ajratish mumkin; grammusbat pnevmokokk, streptokokk va stafilokokk, grammanfiy klebsiella (kapsulali Fredlender diplobatsillasi), Pfeyffer kichik tayoqchasi va boshqalar. Ularning barchasi kam miqdorda sogʻlom odamlarning nafas yoʻllarida uchraydi va organizm uchun noqulay boʻlgan sharoitda patogen xususiyatga ega boʻladi. Bunday hollarda balgʻamda koʻp miqdorda yuqorida qayd etilgan bakteriyalar topiladi.

Balgʻamni oziqlantiruvchi muhitga ekish.

Bakteriologik tekshirish usulidan qoʻzgʻatuvchi aniqlanmagan hollarda foydalaniladi. Bakteriologik tekshirish mikroob turini, virulentligini hamda dorilarga chidamliligini aniqlash imkonini beradi. Bu esa monand davolash uchun dorilarni tanlash imkoniyatini yaratadi.

Plevra suyuqligini tekshirish

Sogʻlom kishining plevra boʻshligʻida nafas olish vaqtida uning varaqlarini bir-biriga ishqalanishi yengillashtiruvchi va tarkibi boʻyicha limfaga yaqin boʻlgan suyuqlik boʻladi. Ushbu suyuqlik oʻpkada qon va limfa almashinuvi buzilganda (yalligʻlanish bilan bogʻliq boʻlmagan suyuqlik-transudat) hamda yalligʻlanish jarayoni bilan bogʻliq holda (eksudat) koʻpayishi mumkin. Eksudatning yuzaga kelishida plevraning birlamchi yoki organizmdagi umumiy infeksiyalar, shuningdek, oʻpka hamda koʻks oraligʻining qator kasalliklari (revmatizm, oʻpka infarkti, raki va sili, limfogranulematoz va boshqalar) sabab boʻladi. Plevra suyuqligini tekshirish quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

uning xususiyatini aniqlash (transsudat, ekssudat, yiring, qon, xiloz suyuqlik) uchun;

suyuqlikning hujayraviy tarkibini o'rganish maqsadida (o'sma hujayralari);

yuqumli xususiyatga ega bo'lgan qo'zg'atuvchi va uning antibiotiklarga sezuvchanligini aniqlash uchun.

Plevra suyuqligini tahlil qilish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Makroskopiya

-fizik – kimyoviy

– mikrobiologik

– biologik

Mikroskop yordamida tekshirish.

Plevra suyuqligining tashqi ko'rinishi asosan uning hujayraviy va kimyoviy tarkibiga bog'liq (6 jadval).

Plevra suyuqligining quyidagi turlari farqlanadi

- seroz
- seroz-fibrinoz
- fibrinoz
- seroz-yiringli
- yiringli
- chirigan
- gemorragik
- xiloz

6-jadval. Plevra suyuqligini xususiyatlari bo'yicha farqi

<i>Ko'rsatkichlar</i>	<i>Ekssudat</i>	<i>Transsudat</i>
Solishtirma og'irligi	>1,015	<1,015
Oqsil	>2,5-3 %	<2,5%
Rivalta sinamasi	+	-
Mikroskopiya	Yakka-yarim eritrotsitlar, leykotsitlar va atipik hujayralar ham bo'lishi mumkin	Yakka-yarim eritrotsitlar va leykotsitlar, mezoliya hujayralari va ba'zan atipik hujayralar

Transsudat va seroz eksudat tiniq yoki ozgina pastroq tiniqlikda bo'ladi. Unda leykotsitlar (seroz – yiringli va yiringli), eritrotsitlar (gemorragik), yog' tomchilari (xiloz), hujayra detritlari (xilozga o'xshash), ko'p bo'lsa rangli loyqalanadi. Hujayralar xususiyati mikroskop yordamida aniqlanadi. Eksudatni xiloz xususiyatga ega

ekanligi efir sinamasi yordamida aniqlanadi. Efir qo'shilganda uning loyqaligi yo'qoladi. Bunday ekssudat limfa dimlanishida yoki ko'krak limfa yo'llarini o'sma yoki jarohat ta'sirida buzilishida kuzatiladi. Hujayralar yog' to'qimasiga aylanganda ekssudat xilozga o'xshash ko'rinishni oladi. Har ikkala holatda ham yog' shunda III bilan bo'yaladi. Transudatning rangi och sariq, seroz, oltin ko'rinishida ba'zan esa to'q sariq rangacha bo'ladi. Yiringli och kulrang, ko'kish-sariq, qon aralashganda qizil ko'rinishli yoki ko'p hollarda jigar ko'rinishidagi kulrang, chirigan ekssudat ham shunday ko'rinish oladi. Gemorragik suyuqlik undagi qon miqdori va uning plevrada saqlanish muddatiga ko'ra alvon rangdan, to'q qizil ranggacha bo'lishi mumkin. Gemolizda esa suyuqlik lak rangiga kiradi. Xiloz ekssudat suv qo'shilgan sutni eslatadi. Transudat va ekssudatning konsistensiyasi aksariyat hollarda suyuq-yiring ekssudat quyuc, qaymoqsimon bo'lib ba'zan juda qiyinlik bilan punksiya ninasi orqali o'tadi. Eski alohida o'ralgan empiema pyure ko'rinishida fibrin iplari bilan bo'lishi mumkin. Hidi – ekssudat chirigan bo'lganda badbo'y, o'ta yomon hidli bo'ladi va o'pka gangrenasida kuzatiladi. Bu holat anaerob mikroblar fermenti ta'sirida oqsillarning parchalanishi bilan bog'liq. Ekssudat va transudatni bir-biridan farqlashda asosiy mezon bo'lganligi sababli suyuqlikni fizik-kimyoviy tekshirganda uning nisbiy zichligi va tarkibidagi oqsillarni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Transudatning nisbiy zichligi – 1,015 kam aksariyat hollarda 1,006 – 1,012 ekssudatniki – 1,015 va undan ko'proq 1,018- 1,022 oraligida boladi. Transudatda oqsil miqdori 3 % kam (odatda 0,5 % – 2,5 %), ekssudatda esa 3-8 % atrofida hamda tarkibi qonning zardobiga yaqin. Transudat tarkibida ko'proq albuminlar bolib, fibrinogen deyarli yo'q va shu sababli u quyilmaydi. Ekssudatda fibrinogen qondagiga nisbatan (0,05-0,1 %) kam lekin spontan quyilish uchun yetarli. Transudat tarkibidagi oqsil kam hollarda 4-5 % yetadi va bu holda uni ekssudatdan farqlash kerak bo'ladi hamda quyidagi sinamalar o'tkaziladi. Rivalt sinamasi: bir necha tomchi uksus kislotasi aralashtirilgan suv bilan silindr idish toldiriladi va unga ikki tomchi plevra suyuqligi quyiladi. Ekssudat papiros tutuniga o'xshab iz qoldirib pastga tushadi, transudatda esa odatda bunday iz qolmaydi. Lukerin sinamasi: soat oynasidek shisha ustidagi 2 ml 3 % vodorod perekisiga (qora yuzadagi) bir tomchi punksiya qilib olingan suyuqlik quyiladi. Suyuqlik ekssudat bo'lganda bulutsimon loyqalanish kuzatiladi. Har ikkala sinama seroz mutsinli mukopolisaxarid mavjudligini aniqlash imkonini beradi.

Mikroskop yordamida tekshirish. Sentrifuga yordamida olingan plevra suyuqligining cho'kmasi mikroskopda tekshiriladi. Ekssudat sentrifuga o'tkazish vaqtida yoki o'tkazilayotganda quyilib qolishi mumkin. Unda aksariyat hujayralar quyqa bilan qoplangan bo'ladi. Uning oldini olish uchun punksiya qilingan suyuqlikka natriy nitrat yoki geparin qo'shiladi. Cho'kmadagi hujayralar bir necha usul yordamida tekshiriladi: Romanovskiy-Gimza yoki Papanikolau usullari yordamida bo'yalgan quyuc surtma, nativ preparat; o'sma hujayralari qidirilganda flyuorestent mikroskopiyadan foydalaniladi. Nativ preparat tayyorlash uchun bir tomchi cho'kma predmet oynaga qo'yiladi va ustidan qoplovchi shisha bilan yopiladi. Preparat oddiy fazali – kontrast mikroskopda ko'riladi. Unda shaklli elementlarning soni bilan baholanadi. Eritrotsitlar va leykotsitlarning soni sentrifuga o'tkazish tezligi va davomiyligiga bog'liq bo'lganligi sababli katta ahamiyatga ega emas. Uncha ko'p bolmagan eritrotsitlar punksiya vaqtidagi jarohat bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shuningdek, ularning ko'p miqdorda bolishi o'sma kasalligida kuzatiladigan gemorragik ekssudatda, ko'krak qafasi jarohatlarida, gemorragik diatezda kuzatiladi. Plevraning bakteriyali infeksiyalarida punktatda ko'p miqdorda leykotsitlar aniqlanadi. Transudatda leykotsitlar kam miqdorda, mezoteliya hujayralari esa ko'p miqdorda topiladi. Ba'zan suyuqlikda o'sma hujayralariga o'xshash elementlar aniqlansa ham ularning tabiatini nativ preparatda aniqlashni imkoni yo'q. Cho'kmaning ustidagi suyuqlikdan surtma tayyorlanadi. Bu cho'kma elementlari neytrofillar, limfotsitlar, eozinofillar, monotsitlar, makrofaglar, mezoteliya va o'sma hujayralarini farqlash imkonini beradi. Unda leykotsitlar xuddi qondagidek ko'rinishga ega. Mezoteliya hujayralari yirik o'lchamli, aylana shaklli ba'zan 2-3 yadroli. Uning mayin xromatin turli aylana shakldagi yadrosida ba'zan yadrochalar ko'rinadi. Sitoplazmasi ko'krangda bo'lib, ko'p hollarda vakuolizatsiyaga uchragan bo'ladi.

Makrofaglar monositlardan sitoplazmasida fagotsitoz ozuqalari mavjudligi bilan farqlanadi. O'sma hujayralari qo'llanmani "Balg'amni tekshirish" qismida bayon qilingandek xususiyatga ega. Ulami plevra suyuqligida aniqlash katta qiyinchilik tug'diradi. Mezoteliya plevraning surunkali, ba'zan esa o'tkir zararlanishlarida shuningdek, transsudatda blastoma hujayralariga o'xshash ko'rinishlarga ega bo'ladi. Bunday holatda lyuminestsent mikroskopiya o'tkazish yordam beradi. Ayrim flyuroxromlar (to'q sariq akridin, rodamin) yordamida bo'yalganda o'sma hujayralari boshqacharoq yaltiraydi.

Plevrada suyuqlik yig'ilgandan so'ng 5-7 kun o'tgach uning etiologiyasidan qat'iy nazar unda neytrofilli eritrotsillar aniqlanadi. Mabodo plevritning sababi sil yoki revmatizm bo'lsa ular limfotsillar bilan almashinadi. Suyuqlik yiringli mikroblar bilan zararlanganda unda ko'p miqdorda neytrofillar topiladi. Shuningdek, tarkibida eozinofillar bo'lgan ekssudat ham amaliyotda uchrab turadi. Mikrobiologik tekshirishlar. Transudatlar aksariyat hollarda steril bo'lsa ham ba'zan ko'p marta punksiya qilganda infeksiya tushadi. Eksudatlar ham ayrim hollarda steril bo'lishi (misol uchun, revmatik zotiljamda, o'pka rakida) mumkin. Sil etiologiyali seroz eksudatni bakterioskopik tekshirganda uning tayoqchalarini aniqlab bo'lmasa ham dengiz cho'chqachalarini punktat bilan emlab ijobiy natija olish mumkin. Yiringli tayoqchalar chaqirgan plevritlarda surtma gram usulida bo'yalib, ular bakterioskopiya yordamida aniqlanadi. Pnevmonokokk, streptokokk, stafilokokk, enterokokklardan tashqari eksudatda klebsiyellalar, Pfeyffer va ichak tayoqchalari ham uchraydi. Bemorni maqsadli davolash uchun mikroorganizmlarni antibiotiklarga sezuvchanligi aniqlanadi.

Nazorat savollari

1. Nafas a'zolarining funksional tekshiruv usullari qaysilar?
2. Spirometriya ko'rsatkichlarini ayting?
3. Tifno indeksi haqida nimalarni o'rgandingiz?
4. Pikfloumetriya haqida tushuncha bering?
5. Nafas a'zolarining funksional tekshiruv usullariga ko'rsatma va qarshi ko'rsatma qaysilar?
6. Rentgen tekshirish haqida tushuncha bering?
9. Laboratoriya tekshiruv usullarini sanag?

IV. BOB

4.1. Bronxial astma. Etiologiya. Patogenez. Klinika. Tashxislash va davolash prinsiplari. Profilaktikasi

Bronxial astma (BA) – nafas yo‘llarining surunkali yallig‘lanishi bilan kechuvchi kasalligi bo‘lib, bronxlar giperreaktivligi va ular obstruksiyasining to‘liq tiklanishi hamda nafas siqishi va diskomforti shaklidagi xurujsimon yo‘tal, qiyin ajraluvchi balg‘am, xushtaksimon nafas hamda xansirash kabi klinik belgilar bilan namoyon bo‘ladi. BA negizida yallig‘lanish jarayoni yotadi va allergik komponentlar asosida shakllanadi. Xalqaro konsensus (GINA, 2002) bo‘yicha BA – nafas yo‘llarining allergik yallig‘lanishi bilan kechadigan surunkali persistirlanuvchi kasalligi bo‘lib, bunda bronxlar giperreaktivligini shakllantiruvchi eozinofillar, T-limfotsitlar va semiz hujayralar ishtirok etadi. Bunday yallig‘lanish bemorlarning hansirashiga, nafas siqishiga, ko‘krak qafasida xirillash va og‘irlik hissi paydo bo‘lishiga, kechasi yoki tongda yo‘tal xurujlaridan bezovta bo‘lishlariga olib keladi. Odatda mazkur belgilar bronxlarning umumiy tarqalgan obstruksiyasi bilan kuzatilib, bu holat dorilar yoki dorilarsiz ham o‘tib ketishi mumkin. Yallig‘lanish jarayoni bronxlarning o‘ta sezuvchan, giperreaktiv bo‘lib qolishiga, keyingi bosqichlarida esa bronx-o‘pka apparati tuzilishining katta o‘zgarishlariga, jumladan epiteliya qoplamini yo‘qolib borishiga, bazal membrana fibroziga, qadaxsimon hujayralarning gipertrofiyasiga sabab bo‘ladi.

BA so‘ngi yillarda dunyoda keng tarqalgan kasalliklardan biri bo‘lib, jiddiy ijtimoiy, iqtisodiy va tibbiy muammoga aylanib bormoqda. JSST ma‘lumotlarida keltirilishicha, so‘nggi 25-yil mobaynida o‘tkazilgan epidemiologik tadqiqotlar BA kasalligi katta yoshdagi aholining 5–10% va bolalarning 10–15%ga yaqini mazkur xastalikka chalingan. 10 yoshgacha bo‘lgan o‘g‘il bolalar, kattalardan esa ayollar – ko‘proq kasallanishadi. Atrof muhitni ifloslanishi, havoda uchib yuruvchi sanoat chiqindilari – pollyutantlarning ko‘payishi, allergenlarning ortishi, atmosfera qobig‘ida azon kemptigining hosil bo‘lishi va insoniyat genofonining yomonlashishi BA kasalligining butun dunyo kabi, Respublikamizda ham ko‘p tarqalishiga sabab bo‘lmoqda.


Etiologiyasi va patogenez. Bronxial astmaning sabablari juda ko‘p bo‘lib, har bir bemorda bir nechta xavf omillari yoki sabablar aniqlanishi mumkin. Ular shartli ravishda uch guruhga bo‘linadi (7- jadval).

7-jadval. Bronxial astmaga olib keluvchi asosiy omillar

No	Xavf omilining asosiy guruhlari	Xavf omillari
1.	Olib keluvchi omillar	Atopiya. Nasliy moyillik.
2.	Sabab bo'luvchi omillar	Uy allergenlari Uy changgi; hayvon allergenlari; suvarak va boshqa hasharot allergenlari; zamburug' allergenlar; o'simlik changlari. Professional allergenlar Oziq-ovqatlar: sigir suti, tovuq tuxumi, baliq, un va boshqalar; tarkibida gistamin ko'p bo'lgan mahsulotlar (kolbasa, pomidor, konservalar); qulupnay, sitrusli mevalar, shokolad, pista, bodom, ananas, alkogol; konservant va bo'yoq moddalar (salitsilatlar, glutamat, sulfid) Dori vositalari: aspirin, nosteroid yallig'lanishga qarshi vositalar; antibiotiklar; zardoblar; immunoglobulin va boshqalar.
3.	Bronxial astma rivojlanishini kuchaytiruvchi omillar	Respirator infeksiya Havo pollyutantlari Chekish (passiv va faol) Ovqat mahsulotlari va konservantlar

Patogenezi. Yallig'lanish xujayralari infiltratsiyasi va uning faollashishi natijasida bronxial obstruksiya va kelib chiqadigan simptomlar: bronxospazm, shilliq «tiqin», shilliq qavat shishi kuzatiladi.

Shuningdek, ichki (endogen) va tashqi (ekzogen) xavf omillari tafovut qilinadi. Endogen xavf omillari ko'proq kattalarda, ekzogen esa (90%gacha) bolalar va o'smirlarda uchraydi va tashqi allergenlar ta'sirida maxsus IgE aniqlanadi (53-rasm).



53-rasm. Bronxial astmaning rivojlanish mexanizmlari

Atopiya. BA kasalligining rivojlanishida organizm immunologik holatining o'zgarishi yetakchi o'rin egallaydi. Immun tizimdagi o'zgarishlar bronxlarning o'ta sezuvchan bo'lishi va reaktivligining oshishiga olib keladi. Allergik mexanizmlar darhol va sekinlik bilan yuzaga chiquvchi reaksiyalarga bo'linadi. Darhol yuzaga chiquvchi reaksiya namoyon bo'lishida IgE ishtirok etadi. Bunday reaksiya ko'proq bolalar va yoshlarda kuzatiladi (ekzogen yoki allergik BA). Atopiya ko'proq allergik rinit, kon'yuktivit, atopik dermatit, helmintoz, infeksiyon mononukleoz, alkogolli jigar sirrozi, seliakiya, tugunchali periarterit, Vegener kasalligi va boshqalarda ham kuzatiladi. Bu xildagi yallig'lanishga bronxlar shilliq pardasi va ularning bo'shliqlarida faollashgan eozinofillar, semiz hujayralar hamda T-limfotsitlar sonining ko'payishi xarakterlidir. Semiz hujayralar va bazofillar yuzasida o'ta sezgir reseptorlar bo'lib, u IgE molekulasiga birikadi. Bunday IgE molekulalari polivalent antigenga (allergen) duch kelganda reseptor faol holga o'tadi va hujayralarga signal beradi. Natijada yallig'lanish mediatorlari yoki biologik faol moddalar – gistamin, serotonin, bradikinin, neytrofillar, leykotriyenlar, interleykinlar ajralib chiqadi va maydatomirlar o'tkazuvchanligini kuchaytiradi. Darhol boshlanadigan reaksiyada semiz hujayralardan biologik faol moddalar 2-3 daqiqadan keyin ajralib chiqadi va bronx mushaklarining spazmi, shilliq parda shishi hamda yopishqoq shilimshiq (gipersekresiya) sekresiyasi kuzatiladi. Oqibatda bronxlar obstruksiyasi kelib chiqadi va nafas olish qiyinlashadi. Shunday qilib, BAning ekzogen shaklida kuzatiladigan tez yuzaga keladigan tipdagi allergik reaksiyada yallig'lanish jarayoni IgEga bog'liq holda rivojlanadi. Endogen (atopik bo'lmagan) tipdagi BA semiz hujayralar, eozinofillar, limfotsitlar, araxidon kislota metabolizmi, neyropeptidlar ajralishi, n.vagus tonusi oshishi natijasida prostaglandin, leykotriyen, tromboksan va boshqa yallig'lanish mediatorlarining ajralishi tez yuzaga keladigan tipdagi allergik reaksiya IgE ga bog'liq bo'lmagan holda rivojlanadi.

Sekin rivojlanuvchi reaksiya katta yoshli bemorlarning har ikkinchisida kuzatilib, qonda aylanib yuradigan IgG, IgA va IgMga taalluqli, antitelalar va komplement ishtirokida shakllanadi. Immunokomplekslar semiz hujayralar, eozinofillar va makrofaglarning reseptorlari bilan birikkanda yallig'lanish mediatorlari ajralib chiqadi va bronxlarning obstruksiyasiga sabab bo'ladi. Bemorlarda allergik reaksiyalar ko'pincha aralash holda uchraydi.

BA kasalligida bronxoobstruktiv sindrom patologik jarayonning erta va kechki astmatik reaksiya fazalari bilan o'tadi. Erta astmatik reaksiyani semiz hujayralar boshlab berishi va bronxokonstriksiyaning tez avj olib, 10-30 daqiqadan keyin yuqori darajaga yetishi hamda 2 soatdan keyin susayishi xos bo'lsa, kechki astmatik reaksiyaning boshlanishida eozinofillar muhim o'rin tutadi va 6-8 soatdan keyin boshlanadi. Bronx devorining epiteliya qoplami, bazal membranasi, ulardagi limfa tugunlari va silliq mushaklarda yallig'lanish jarayoni kuzatiladi. Bronx daraxtining shilliq pardasida yallig'lanishga xos o'zgarishlarning saqlanib qolishi, ularni doimiy o'ta reaktiv holatda bo'lishiga olib keladi. Kasallik nazorat qilib bo'lmaydigan tarzda, uzoq davom etganda bronxlarning obstruksiya uchirishi, sezuvchanligining oshishi (giperreaktivligi), yallig'langan to'qima hujayralarining to'planib borishi, silliq mushaklarni shishishi va qalinlashishi, subepitelial fibroz paydo bo'lishi, bronxlar devorining elastiklik xossalari o'zgarishiga olib keladi.

Bronxoalveolyar lavaj va biopsiya usulini qo'llash natijasida, BA nafas yo'llarining surunkali persistirlanuvchi yallig'lanish kasalligi ekanligi va hatto, uning simptomsiz davrida ham yallig'lanish belgilari saqlanishi aniqlangan.

Tasnifi. Quyida Xalqaro konsensus tavsiyalariga muvofiq BA bo'yicha astmatologlarning xalqaro tashabbuskor guruhi tomonidan 1996-yilda tavsiya etilgan kasallikning og'irlik darajasi, oldini olish va unga davo qilishga asoslangan tasnifini keltiramiz. U quyidagilarga asoslangan:

- * Tungi nafas qisish belgilarining haftadagi soni;
- * Kunduzgi xurujlarning har kungi va haftadagi soni;
- * Qisqa muddat ta'sir qiladigan $\beta 2$ agonistlarning necha marta ishlatilishi;
- * Jismoniy faollik va uyqu buzilishlarining qaysi darajada ifodalanganligi;
- * Nafas chiqarish avjiiy tezligi ko'rsatkichlari;
- * NCHATning kecha-kunduz davomidagi o'zgarishi.

Bronxial astmaning (GINA – astmatologlarning xalqaro tashabbuskor guruhi, 1996) tasnifi

I bosqich, yengil intermittirlovchi kechishi.

- Kasallik belgilarini haftada bir marta kuzatilishi (ba'zan yo'tal tutib, xansirash, xirillab nafas olish yoki dispnoe).
- Kasallikni qisqa muddatli (bir necha soniyadan bir necha kungacha) qo'zib turishi.

- Astma belgilarini tunda oyda ikki marta va undan kam kuzatilishi.
- Kasallik qo'zish davrlari oralig'ida uning belgilarini bo'lmasligi va tashqi nafas faoliyatining me'yorda bo'lishi.
- Bir soniyada JNCHH yoki NCHAT individual me'yoriy ko'rsatkichdan $\geq 80\%$.
- Yuqoridagi ko'rsatkichlarni bir kunda $< 20\%$ o'zgarishi.

II bosqich, yengil persistirlovchi kechishi.

- Kasallik belgilarini haftada bir marta yoki undan ko'p, lekin kunda bir martadan kam kuzatilishi.
- Kasallikni qo'zishi jismoniy faollikni kamaytirishi va uyquni buzishi.
- Tungi astma belgilarini oyda ikki martadan ko'p bo'lishi.
- Bir soniyada JNCHH yoki NCHAT individual me'riy ko'rsatkichdan $\geq 80\%$.
- Yuqoridagi ko'rsatkichlarni 20-30% atrofida o'zgarishi.

III bosqich, o'rta og'irlikdagi persistirlovchi kechishi.

- Kasallik belgilarini har kuni kuzatilishi.
- Kasallikni qo'zishi jismoniy faollikni chegaralashi va uyquni buzishi.
- Tungi astma belgilarini haftada bir martadan ko'p kuzatilishi.
- Bemorni qisqa ta'sir etuvchi β_2 – agonistlarni har kuni qo'llashi.
- Bir soniyada JNCHH yoki NCHAT individual me'riy ko'rsatkichdan $> 60\% < 80\%$.
- Yuqoridagi ko'rsatkichlarni $> 30\%$ o'zgarishi.

IV bosqich, og'ir persistirlovchi kechishi.

- Kasallik belgilarini doimiy bo'lishi.
- Kasallikni tez-tez qo'zib turishi.
- Tungi belgilarni tez-tez kuzatilishi.
- Jismoniy faollikni keskin chegaralanishi.
- Bir soniyada JNCHH yoki NCHAT individual me'riy ko'rsatkichdan $\leq 60\%$.
- Yuqoridagi ko'rsatkichlarni $> 30\%$ o'zgarishi.

Bundan tashqari amaliyotda kasallikning *kechish davrlarini* aniqlash ham maqsadga muvofiq.

Qo'zish davri aniq nafas siqishi, nafas diskomforti va klinik belgilari davomiyligining uzayishi, yangilarining paydo bo'lishi bilan xarakterlanadi.

Nostabil remissiya davrida klinik belgilar davomiyligining asta-sekin kamayishi bilan namoyon bo'ladi va ular to'liq yo'qolmaydi.

Remissiya davrida klinik belgilar aniqlanmaydi.

Turg'un remissiya davrida uzoq vaqtgacha (ikki yildan ko'p) belgilar to'liq kuzatilmaydi.

Shunday qilib, bronxial astmaga klinik tashxis qo'yishda quyidagilarni ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiq:

Bronxial astma turlari: ekzogen (atopik, allergik), aniqlangan allergenni ko'rsatish;

- endogen (atopik va allergik bo'lmagan);
- aralash;
- aniqlanmagan.
- Bronxial astmaning klinik-patogenetik shakllari:
- aspirinli astma;
- jismoniy zo'riqishdagi astma;
- infeksiyaga bog'liq BA;
- BAning xolenergik shakli;
- autoimmun BA;
- professional BA;
- BAning yo'tal bilan kuzatiladigan shakli va boshqa turlari.

Bronxial astma kechishining bosqichlari:

- engil intermitterlovchi kechishi;
- engil persistirlovchi kechishi;
- o'rta og'ir persistirlovchi kechishi;
- og'ir persistirlovchi kechishi.

Bronxial astma kechishining davrlari:

- qo'zish davri;
- nostabil (turg'un bo'lmagan) remissiya davri;
- remissiya davri;
- stabil (turg'un) remissiya davri.

Bronxial astmaning asoratlari:

- astmatik status;
- pnevmotoraks;
- nafas yetishmovchiligi va uning darajalari;
- pnevmomediastinum;
- bettolepsiya.

Yondosh kasalliklar:

- surunkali bronxit (obstruktiv yoki obstruktiv bo'lmagan);
- allergik kasalliklar;
- quloq, tomoq va burun kasalliklari;
- pnevmoniya;
- oshqozon-ichak tizimi kasalliklari;

- yurak-qon tomir kasalliklari;
- jigar, buyrak va boshqa kasalliklar.

Bronxial astmaning klinik manzarasi. BAda nafas siqishi xuruji va uning avj olishida 3 davr farqlanadi.

I – xuruj darakchilari davri. Bunda klinik belgilar turli bemorlarda har xil bo'lishi mumkin. Xuruj boshlanishidan bir necha daqiqa, ba'zan bir necha soat yoki kun oldin bemorlarni tomoqda qichishish va yo'tal, teri, ko'z, quloqning qichishi, ko'p peshob ajralishi va boshqa qator belgilar bezovta qiladi va shu davrda uni bartaraf etish osonroq kechadi.

II – ekspirator nafas siqish xurujining avj olish davri. Bemorda ekspirator xansirash, xurujsimon yo'tal bilan qiyin ajraluvchi balg'am, ko'krakda qisilish va og'irlik hissi, nafasni to'liq chiqara olmaslik, uni chiqarganda masofadan eshitiluvchi xushtaksimon xirillashlar kuzatiladi. Odatda, u qo'llariga tayanib, majburiy holatda o'tirgan bo'ladi, yuzlari kerikib, diffuz ko'karish aniqlanadi. Ko'krak qafasi bochkasimon, terisi nam, yuzi, bo'ynida ter tomchilari, nafas olganda burun kataklari kerilib, yordamchi mushaklarni ishtirok etishi, o'mrov usti chuqurchasi va qovurg'alar oralig'ini nafas olganda ichga tortilishi hamda bo'yin venalari bo'rtishi qayd etiladi. Vaqti-vaqti bilan bemorga azob beruvchi yo'tal, qiyinlik bilan ajraluvchi kam balg'am va uning yopishqoq, quyruq, ba'zida esa ko'pikli bo'lishi kuzatiladi. Perkussiyada butun o'pka ustida quticha tovush, uning quyi chegaralarini pastga siljishi va harakatchanligi cheklanganligi, auskultatsiyada nafas chiqarishni uzayishi, susaygan vezikulyar nafas negizida tarqalgan, ko'p miqdorda quruq, hushtaksimon, g'ijillovchi xirillashlar, ularni uzaygan nafas chiqarish bosqichida yaqqol eshitilishi, nafas chiqarilishini olishga nisbatan ancha uzoqroq bo'lishi aniqlanadi. O'pkani kengayganligi sababli yurak chegaralarini aniqlash imkoni bo'lmaydi. Yurak tonlarining bo'g'iqlashishi, o'pka arteriyasida II ton zo'riqishi, pulsning tezlashishi (bir daqiqada 100–110 ta) va tarangligining susayishi xos. Xurujlar uzoq davom etganda yurak o'ng qorinchasi yetishmasligi belgilari: jigarning kattalashishi, oyoqlarda shish. Balg'amda tipik o'zgarishlar – eozinofillar, kam hollarda Sharko-Leyden kristallari va Kurshman spirallari topilishi. Bo'g'ilish xurujlari og'ir kechib, uzoq davom etganda, EKGda o'zgarishlar (yurak elektr o'qining o'ngga siljishi, S tishining I standart tarmoqda chuqur, R tishining III, AVFda baland bo'lishi, S-T segmentining III, AVF da inversiyasi, R tishini II, Sh standart tarmoqlarda baland, o'tkir uchli VI da manfiy bo'lishi, hamda ba'zan VI, V2 da ikki fazali R tishi, o'ng ko'krak tarmoqlarda S-T segmentining inversiyasi, Gis tutami o'ng oyoqchasi

blokadasi) kuzatilishi. Rentgen tekshiruvda o'pka to'qimasi yorug'lanishini ortganligi, diafragmani pastga tushib, harakatining kamayganligi, qovurg'alar oralig'i kengayib, o'pka naqshini quyushganligi aniqlanadi.

Kasallikning og'ir-yengilligini spirometriya ko'rsatkichlari ya'ni o'pka ventilyatsiyasi o'zgarishlariga qarab aniqlash mumkin. Bunda nafas yo'llari obstruksiyasini baholashda IJNCHH va Tiffno indeksi asosiy ko'rsatkich hisoblanadi.

III- xurujning pasayish davri. Bemorda yo'tal kuchayib, ko'p miqdorda balg'am ajralishi va uning ahvolini yengillashishi. Xuruj regressiyasi turli bemorlarda har xil bo'lib, ba'zilarida asoratsiz tez o'tadi, boshqalarda esa og'ir kechib, bemorni holdan toydiradi.

Keyingi vaqtlarda BAning klassik ko'rinishidagi xurujlari kamayib bormoqda. Ba'zi hollarda BA bronxlardagi yallig'lanish bilan kechadigan surunkali bronxit negizida shakllanadi. Bundan tashqari kasallikning kam belgili klinik kechishi va qaytmas obstruksiyalarga sabab bo'lish hollari ko'paymoqda.

Bronxial astmaning patogenetik shakllari.

Atopik shakli ko'proq yoshlarda uchraydi va astma xurujlarining allergik omillarga (uy, o'simlik changlari, oziq-ovqatlar, dorilar va boshqalar) bog'liqligi unga xos belgi hisoblanadi. Allergenlar bilan o'tkazilgan giposensibilizatsiya yaqqol ijobiy samara beradi. Xuruj tez rivojlanib, aniq klinik belgilar bilan namoyon bo'ladi va yo'tal hamda yopishqoq balg'am ko'chishi bilan tugallanadi.

Qon va balg'amda ko'p miqdorda eozinofillar aniqlanadi. Allergenlar bilan teri va qo'zg'atuvchi sinamalar natijasi musbat bo'ladi. Xurujlar orasida kasallik belgilari kuzatilmaydi va qonda gistamin miqdori ko'payadi.

Infeksiyaga bog'liq shakli. Bizning xududimizda BAning boshqa shakllariga nisbatan ko'proq uchraydi va 35-40 yoshdan keyin kuzatiladi. Atopik bronxial astmaga nisbatan og'ir kechadi. Nafas a'zolarining yallig'lanish kasalliklaridan (o'tkir bronxit va surunkali bronxitning qaytalanishi, pnevmoniya, tonsillit, gaymorit, o'tkir respirator virusli infeksiya) keyin rivojlanadi. Bakteriyalar va ularning parchalanish mahsulotlarini semiz xujayralar, bazofillar, bronxlar epiteliyasiga ta'siri oqibatida yallig'lanish mediatorlari ajralib chiqadi va bronxlarda yallig'lanish yuzaga keladi. Bu esa o'z navbatida ularni obstruksiyasiga sabab bo'ladi. Ushbu shaklda viruslar alohida o'rin tutib, ular yallig'lanishni avj olishida muhim ahamiyatga ega.

Klinik belgisi. Kasallik avj olishi, odatda infeksiya o'chog'idagi jarayonning qo'zishi bilan boshlanadi. Aksariyat hollarda kasallikning xuruj davrlari va klinik belgilari uzoq davom etib, uni bartaraf etish qiyin bo'ladi. B2-adrenomimetiklar samarasi kam. Hatto xurujlar bartaraf etilgandan keyin ham o'pkada dag'al, uzaygan nafas va quruq xirillashlar saqlanib turadi. Yuqoridagilarga surunkali bronxit belgilaridan doimiy yo'tal, ba'zan shilliq yiringli balg'am, tana haroratining subfebril ko'tarilishi va kechasi terlash qo'shiladi. Asoratlar juda erta boshlanib, astmatik holat yuzaga keladi. Atopik BAga qaraganda infeksiyaga bog'liq shaklida o'pka emfizemasi, o'pkali yurak va surunkali yurak yetishmovchiligi tez rivojlanadi.

Tashxislash. Qonda ko'proq yallig'lanishga xos o'zgarishlar kuzatiladi. Nafaqat eozinofiliya, balki leykotsitoz, ECHT oshishi, S-reaktiv oqsil bo'lishi, seromukoid, sial kislota va o'tkir fazali oqsillar miqdori ko'payadi. Balg'amda ko'p miqdorda leykotsitlar, neytrofillar, alveolyar makrofaglar aniqlanadi. Qon zardobini immunologik tekshirganda xlamidiya, mikoplazma, moraksella va zamburug'li mikroorganizmlar antitelosi aniqlanishi mumkin.

Autoimmun shakli – kam uchraydi (0,5–1%), ammo og'ir va nafas siqishining uzluksiz qaytalanish bilan kechadi va yoshlikdan boshlanadi. Shakllanishida immunkompleks allergik reaksiya yotadi. Nafas siqishi, bronxlar obstruksiyasi, nafas yetishmovchiligi zo'rayib boradi va o'pka emfizemasi, o'pkali yurak rivojlanadi. GKSlarga chidamlilik oshib, bemor ularga qaram bo'lib qoladi. Ularni dozasi pasaytirilsa yoki to'xtatilsa bemorlar ahvoli keskin yomonlashadi. Tashxislashda autoantitela aniqlanishi, sirkulyatsiyadagi immunkompleks miqdori oshishi, autolimfotsitlar bilan teri sinamasi musbat bo'lishi va qon zardobida fosfatazaning yuqoriligi muhim hisoblanadi.

Disgormonal shakli – kasallikning eng og'ir shakli hisoblanib, o'ziga xos belgisi GKS bilan o'tkaziladigan terapiyaga bog'liqligi, lekin uning ham samarasi kamligidir. Bunda gormonning dozasi va qabul qilish davomiyligi ahamiyatga ega emas. Lekin uning dozasini kamaytirish yoki bekor qilish bemor ahvolining og'irlashishiga sabab bo'ladi. BAning ushbu shakliga chalingan ayollarda tuxumdon faoliyatining buzilishi kuzatilib, jarayon ayniqsa klimaks davrida zo'rayadi. Ushbu shaklda glyukokortikoidlar yetishmovchiligi, giperestrogenemiya, gipoprogesteronemiya va gipertireoz obstruksiya holatining yuzaga kelishida katta ahamiyatga ega. GKSlar immunodepressiv ta'sir ko'rsatib, bronxlar tonusini idora etuvchi biogen omillar almashinuvida faol qatnashadi. Ular

bronxokonstriktorlarning antagonistlari bo'lib, semiz hujayra va bazofillardan gistamin, lizosom fermentlar, mediatorlar ajralib chiqishiga to'sqinlik qilib, prostaglandin YE2a sintezini susaytiradi va shu tariqa prostoglandin YE1 hamda prostoglandin YE2 larning bronxlarni kengaytiruvchi ta'sirini kuchaytiradi. Demak, GKSlar yetishmovchiligi bronxlar bilan o'pkada allergik yallig'lanishning boshlanishiga va qayta xurujiga olib kelishi mumkin. Laborator tekshirishlardan qon plazmasida 11 – oksikortikosteroid yoki kortizolni, siydikda 17 – oksikortikosteroid va ketosteroidni, kunlik kortikosteroid klirensini aniqlash ahamiyatga ega.

Laborator-asbobiy tekshirishlar. BA tashxisi yuqorida keltirilgan kasallikning klinik belgilari va sinchkovlik bilan to'plangan anamnez asosida qo'yiladi. Unda bemorlarda xansirash xurujlari, xushtaksimon xirillashlar, tunda va erta tongda kuzatiluvchi nafas siqishi, ko'krak qafasida qisilish hissi, yo'tal mavjudligi, hamda ularning takrorlanib turishi turli xil allergenlar, jismoniy zo'riqish, o'choqli va virusli infeksiyaning qo'zishi, irritantlar ta'sirida kuzatilishiga alohida e'tibor beriladi. Bemor anamnezida mavsumiy xurujlar, allergik reaksiyalarga beriluvchanlik va irsiy moyillik qayd etiladi. Klinik belgilarni bronxodilatatorlar va GKSlar qabul qilgandan keyin yo'qolishi BA tashhisiy belgilaridan biri hisoblanadi.

Tashxis qo'yishda allergik holatni aniqlash ham muhim hisoblanib, uning uchun bemor teri sinamasini o'tkazish maqsadida mutaxassis shifokorga yuboriladi va qon zardobidagi *IgE* miqdori tekshiriladi. Bu sinama BANi keltirib chiqaruvchi xavfli omillar yoki triggerlarni aniqlashga imkon beradi. Klinik amaliyotda allergik statusni baholashda eng ko'p teri sinamasi (skarifikatsion, ukolli, teri ichi) ishlatiladi. Teri sinamasi – *IgE* antitelasini aniqlash uchun qulay, oddiy va ishonchli usul hisoblanadi. Bu usul kasallikni chaqirgan allergenni aniqlash uchun qo'llaniladi va kasallikni remissiya davrida vrach ishtirokida bajariladi. Ukolli teri sinamasi natijasi 15-20 daqiqadan keyin baholanadi. Reaksiya musbat bo'lsa diametri 10mm dan katta bo'lgan bo'rtma paydo bo'ladi.

Ayrim bemorlarda auskultatsiyada o'zgarishlar aniqlanmasdan boshqa klinik belgilar kuzatilishi mumkin. Bunday hollarda kasallik tashhisini tasdiqlash uchun TNFni pikfloumetr yoki spirometer yordamida tekshirib, obstruktiv sindromni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Yuqorida keltirilganidek, ushbu tekshirishlar yordamida bir soniyadagi JNCHH, O'TS va NCHAT, Tiffno indeksi ko'rsatkichlari aniqlanadi. Bronxolitik sinamadan (β 2-adrenostimulyatorlar va M-

xolinoblakatorlar) 15 va 30-40 daqiqa keyin bir soniyadagi JNCHHning 15% va undan yuqori bo'lishi, GKS buyurilgandan so'ng 3-5 kun o'tgach sinamaning musbatligi BA tashxisini qo'yishga asos bo'ladi. Bronxolitik sinamalarni o'tkazish, uning ko'rsatkichlarini hisoblash formulasi O'SOK bayon etilgan mavzuda keltirilgan.

BAni erta (yashirin) davrlarda aniqlashda qo'zg'atuvchi (provakatsiya) ingalyatsiyadagi sinamalar muhim ahamiyatga ega. Ular kasallikning klinik belgilari kuzatilib, o'pkaning TNF me'yorida bo'lganda, ya'ni remissiya davrida bronxlar giperreaktivligini aniqlash maqsadida jismoniy zo'riqish, atsetilxolin, gistamin va boshqa moddalar bilan o'tkaziladi. Sinama o'tkazilgandan keyin JNCHH dastlabki ko'rsatkichga nisbatan 20% dan ko'proq pasayishi bronxlarda patologik jarayon borligidan dalolat beradi. Shuning uchun bemorda yashirin kechuvchi BA borligiga shubha tug'ilganda ushbu sinamalarni o'tkazish lozim. Shuningdek, qo'zg'atuvchi ingalyatsiyadagi sinamalar BA va O'SOK lari orasida solishtirma tashhis o'tkazish imkonini beradi. Odatda so'nggi guruh kasalliklarida bronxlar giperreaktivligi kuzatilmaydi.

BA bilan og'rigan bemorlarda yuqorida qayd etilgan sinamalar yordamida bronxlarning giperreaktivlik darajasidan kelib chiqib, davo choralarini qo'llash muhim ahamiyatga ega. Ayrim hollarda kasallikning klinik belgilari va TNF bir xil bo'lsa ham, bronxlar giperreaktivligi har xil bo'lishi, turli usuldagi davo choralarini qo'llashni talab etadi. Bronxlar giperreaktivligi yuqori bo'lgan hollarda yallig'lanishga qarshi davo tariqasida ingalyatsiyadagi GKS lar, reaktivligi past bo'lgan hollarda natriy nedokromil, natriy kromoglikat qo'llash tavsiya etiladi.

Rentgen tekshirish. BAning og'ir kechishida o'pka maydoni kattalashgan, harakati cheklangan, diafragma gumbazi qalinlashgan va pasaygan, qovurg'alararo va retrosternal hamda retrokardial oraliq kengaygan, yurak vertikal (tomchi) ko'rinishdaligi aniqlanadi.

Umumiy qon tahlilida eozinofiliya (5-15%) tunda yoki allergenlar bilan aloqada bo'lganda oshadi. Agar BA ga yuqori nafas yo'llari infeksiyasi qo'shilsa leykotsitoz, ECHT oshishi mumkin, eozinofillar esa kamayadi. Qon biokimyoviy tahlilida yallig'lanish markerlari α_2 , β -, γ -globulinlar, seromukoid, sial kislota, gaptoglobulin, fibrinogen miqdori oshishi mumkin. Qondagi gazlar almashinuvining buzilishi og'ir xuruj paytlarida kuzatiladi. Arterial gipoksemiya darajasi nafas yo'llari obstruksiyasining og'irligi bilan bog'liqdir. Shuningdek, arterial giperkapniya bemor og'ir xuruj davri ekanligidan dalolat berib, zudlik bilan intensiv muolajalar qo'llashni talab etadi.

Balg'amni tekshirish- ko'rinishi quyuv, "shishasimon" bo'ladi. Uni mikroskopik tekshirganda hilpillovchi epiteliy hujayralari, katta miqdorda eozinofillar, Krushman va Sharko-Leyden kristallari aniqlanadi. Birinchi marta tekshirilganda va allergik bo'lmagan bronxial astmada balg'amda patogen mikroflora va antibiotiklarga sezuvchanligi aniqlanadi.

Davolash va profilaktikasi. BA kasalligini davolash quyidagi dasturlarni o'z ichiga oladi:

1. Bemorlarni «astma maktabi» tamoyili bo'yicha o'qitish.
2. Og'irlik darajasini baholash va monitoring o'tkazish.
3. Kasallikni qo'zg'atuvchi omillarni bartaraf etish va ularni nazorat qilish.
4. Davolashga individual yondashish;
5. Bo'g'ilish xuruji va astmatik statusda tez yordam;
6. Muntazam dispanser kuzatuvini joriy etish.

Davolashdan maqsad:

- Kasallikni surunkali belgilarini, jumladan tungi xurujlarni kamaytirish yoki umuman bartaraf etish va hayot sifatini yaxshilash;
- Shoshilinch yordam ko'rsatish hollari yuzaga kelishini oldini olish;
- β_2 – agonistlarga bo'lgan ehtiyojni kamaytirish yoki batamom yo'qotish;
- Jismoniy faollik, jumladan sport bilan shug'ullanishga (remissiya davrida) imkon yaratish;
- NCHAT ko'rsatkichlarini bir kecha-kunduzdagi o'zgarishlarini 20% dan kam bo'lishiga erishish;
- NCHAT ko'rsatkichlarini me'yorida yoki unga yaqin holatda saqlashga intilish.

Dorilarsiz davolash. Kasallikning remissiya davrida aksariyat hollarda bemorlarga dorilarsiz davolash usullaridan foydalanish tavsiya etiladi. Ular bemor organizmining kompensator imkoniyatlarini kuchaytiradi, asoratlar kelib chiqishini kamaytiradi va hayot sifatini yaxshilaydi. Ularga psixoterapiya, speleoterapiya, suv mashqlari, eliminatsiyali davo (postural drenaj), nafas mashqlari bilan davolash, fizioterapiya, fitoterapiya va ulardan birgalikda foydalanish kiradi. Ammo fitoterapiyani o'simlik changlariga allergiyasi bor bemorlarda ishlatish man etilishini esdan chiqarmaslik lozim.

Fizioterapiya – kasallikning o'tkir davrida ko'krak qafasiga magniy-elektroforez (magniy sulfatning 5%li eritmasi), kalsiy-elektroforez (kalsiy xloridning 5%li eritmasi), azob beruvchi quruq yo'talda balg'amni

yumshatish va chiqarish maqsadida yod-elektroforezni (kaliy yodning 2%li eritmasi) qo'llash mumkin. Atopik bronxial astmada nazal usulda elektroforez ishlatishni tavsiya etiladi (kalsiy xlorid eritmasi, magniy sulfatning 2%li eritmasi, dimedrolning 0,25-0,5%li eritmasi). Davo kursi 12–15 muolajada tavsiya qilinadi. Shuningdek BAga chalingan bemorlarni remissiya davrida Respublikamizning Surxondaryo viloyati Sherobod tumani xududidagi Ko'hitang tog' tizmalari yon bag'rida joylashgan «Xo'jaikon» sanatoriyasida davolash uchun yuborish mumkin. U yerdagi mavjud tabiiy g'or o'ziga xos, allergensiz mikroiklimli va natriy xlorid, magniy, kaliy, temir gidroksid tuzlari mavjud bo'lib, speleoterapiya (galoterapiya – grekcha halos-tuz konsentratsiyasi 0,5dan 9 mg/m³, zarrachalar kattaligi 1-5 mkm bo'lgan natriy xlor tuzining aerozollari bilan to'yingan aerodinamik muhit yordamida davolash usuli)dan keng foydalanish imkonini beradi.

O'qitish dasturlari – BAni davolashda yaxshi samaraga erishishda bemorlarga kasallikning sabablari, uni oldini olish, dorilardan to'g'ri foydalanish va boshqa qator masalalarni o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Shuni e'tiborga olib jahondagi yetakchi mamlakatlarda "astma maktablari tashkil etilgan". Shunday maktablar Respublikamizning «Respublika ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi» va «Allergologiya» markazida tashkil etilgan. Ushbu usulning samaradorligini e'tiborga olib, UAV va terapevt shifokorlari o'z hududlaridagi BAga chalingan bemorlarni o'qitish dasturlariga jalb etishlari maqsadga muvofiq. Chunki unda bemor bilan shifokor o'rtasida o'zaro mustahkam hamkorlik o'rnatiladi. O'qitishdan maqsad, kasallik va uni davolash usullari hamda profilaktikasi to'g'risida to'liq ma'lumot berish, o'z-o'zini nazorat qilish, allergiyaga qarshi tartibga rioya qilish, pikfloumetr, dozali aerozollardan, speyserdan foydalanishni o'rgatish, IGKSlar to'g'risida ma'lumot berish, nafas siqishi xurujining oldini olish choralariga va nafas gimnastikasi bilan shug'ullanishni o'rgatish, kasallikning klinik belgilari kuzatilmagan hollarda ham BAning bazis davolashda qo'llaniladigan dorilardan har kuni foydalanish to'g'risida batafsil ma'lumot berishdan iboratdir.

Astma maktablarida o'qigan bemorlarning hayot sifati yaxshilanishi, shifoxonada yotib davolanish va tez tibbiy yordamga murojaat qilishlar soni kamayishi, nogironlik va o'lim ko'rsatkichlarini keskin pasayishiga erishilishi ilmiy asosda tasdiqlangan. Bunga shifokor tomonidan BA ga chalingan bemorlarni muntazam nazorat qilish hamda

o'zaro ishonchli aloqalar o'rnatish (shu jumladan astma maktablari orqali) natijasida erishish mumkin.

Bemorlar kasallikni keltirib chiqaruvchi allergik omillardan doimiy saqlanishlari lozim. Maxsus giposensibilizatsiya – bu kasallikni keltirib chiqaruvchi allergenga chidamlilikni yaratish bo'lib, allergen dozasi sekin oshirib boriladi. Bu usul allergenlardan to'liq saqlanishning iloji bo'lmaganda qo'llaniladi. Turmushdagi bronxial astmada samarasi 80-95%, changli bronxial astmada esa 70% teng.

Bronxial astma kasalligini bosqichma-bosqich davolash deganda uning og'irlik darajasiga qarab, bir kunda dorilarni qabul qilish sonining ortib borishi nazarda tutiladi. Undan maqsad, kam miqdorda dori vositalarini qo'llab, samarali natijaga erishishdir. BAni 3 oy davomida ma'lum bosqichda nazorat qilib va davolab ijobiy natijaga erishishga muvaffaq bo'linsa bemorni kuzatishni keyingi pastki pog'onaga tushirish va dorilar dozasini kamaytirish mumkin. Ammo shu o'rinda shifokor har bir bemor uchun individual preparat va uning dozasini tanlashi kerakligini esda tutishi lozim.

BAning I bosqichida jismoniy zo'riqishdan oldin ingalyatsiyali β 2-agonistlar yoki ular bo'lmaganida natriy kromoglikat (intal) yoki nedokromil (tayed) va bemor allergenga yaqin yurishiga to'g'ri kelganda so'ngi ikkita doridan birortasi ishlatiladi.

BAning II bosqichini davolashda IGKSlar yoki natriy kromoglikatni qo'llash kerak. Kasallik to'satdan u yoki bu sabablarga ko'ra (atrof-muhit, uy hayvonlari va changi, oziq-ovqat allergenlari) qo'ziganda zudlik bilan yordam berish uchun ingalyatsiyadagi β 2 – agonistlar qo'llaniladi, lekin ularning kunlik qabul qilinishi 3-4 dozadan oshmasligi (aks holda ular teskari ta'sir ko'rsatadi va yuqorida keltirilgan nojo'ya ta'sirlari namoyon bo'ladi) kerak.

BAning III bosqichida IGKSlar dozasi 1000 mkggacha oshiriladi. Bronxodilatatorlardan antixolinergik preparatlar, ingalyatsiyada qo'llaniladigan uzoq ta'sir etuvchi β 2 – aganistlardan formoterol buyuriladi. Uning o'ziga xos tomoni, ingalyatsiya qilingandan 5 daqiqa o'tgandan so'ng ta'siri boshlanadi va bu astma xurujini tez bartaraf etadi hamda shu xususiyati bilan boshqa uzoq ta'sir etuvchi ushbu guruhdagi dorilardan farq qiladi.

BAning IV bosqichida bemorlarni nazorat qilish birmuncha murakkab bo'lsa ham shifokor harakatlari kasallik belgilari, β 2 – agonistlarga bo'lgan ehtiyoj, NCHA ning kun davomidagi o'zgarishini

kamaytirishga va asoratlarning oldini olishga qaratilgan bo'lishi lozim.
8- jadval.

8- jadval. Bronxial astma kasalligini bosqichma-bosqich davolash

Bosqich	Bazis davolash	Nazorat qilish
I bosqich, yengil intermitirlovchi kechishi	Qisqa ta'sir etuvchi β_2 - aganistlar (salbutamol yoki ventolin 100 mkg, terbutalin 0,25 mg, salben 200 mkg), membrana stabillovchilardan (intal 1 mg, ditek, zaditen)	Zarur paytda β_2 -aganistlar
II bosqich, yengil persistirlovchi kechishi	Yallig'lanishga qarshi preparatlar (tayled 2 martadan 2 mahal) IGKS (bekodisk yoki bekloforte, beklazon 200-500 mkg kuniga, ko'rsatma bo'lganda dozasini 800 mkggacha oshirish) yoki kombinirlangan aerazol ingalyator seretid evoxaler yoki diskus (IGKS – flyutikazon propionat 125, 250, 500 mkg + bronxodilatator – salmeterol 25, 50 mkg) Uzoq ta'sir etuvchi β_2 - aganistlar (serevent 25 mkgdan 2 marta, foradil 12 mkg 2 marta)	Bazis yallig'lanishga qarshi preparatlar (intal, tayled) Uzoq ta'sir etuvchi bronxodilatator-serevent (salmeterol) Davolash kamida 3 oy
III bosqich, o'rta og'irlikdagi persistirlovchi kechishi	IGKS (flikstid aerazol ingalyator diskxaler 400–1000 mkg kuniga, bekodisk yoki bekloforte 800-2000 mkg kuniga, kerak paytda) yoki kombinirlangan aerazol ingalyator seretid evoxaler yoki diskus (IGKS – flyutikazon propionat 125, 250, 500	Bazis yallig'lanishga qarshi preparatlar (beklokord, aldesin, beklazon, budesonid, pulmikort) Uzoq ta'sir etuvchi bronxodilatatorlar Davolash kamida 3 oy

	mkg + bronxodilatator – salmeterol 25, 50 mkg) Uzoq ta'sir etuvchi bronxodilatator-serevent (salmeterol) aerosol ingalyator yoki diskxaler 100-200 mkg kuniga	
IV bosqich, og'ir persistirlovchi kechishi	IGKS – fliksotid (flyutikazon propionat) aerazol ingalyator yoki diskxaler 800-2000 mkg kuniga, yoki kombinirlangan aerazol ingalyator seretid evoxaler yoki diskus (IGKS – flyutikazon propionat 125, 250, 500 mkg + bronxodilatator – salmeterol 25, 50 mkg) Uzoq ta'sir etuvchi bronxodilatator, asosan tunda simptomlar kuzatilganda serevent 100-200 mkg Qisqa muddatga tizimli GKS lar 1-2 mg/kg.	Yuqori dozada IGKS va ko'rsatma bo'lsa peroral steroidlar uzoq muddat davomida Uzoq ta'sir etuvchi bronxodilatatorlar. 3 oy va undan ko'p

Zamonaviy tamoyillarga ko'ra BAni davolash ikki komponentli – bazis patogenetik va simptomatik (bronxodilatatsiya) usulda olib boriladi. Bazis terapiyaning asosida yallig'lanish jarayoniga ta'sir etish yotadi.

Bazis davo. Bazis davo sifatida hozirgi kunda quyidagi guruh preparatlari ishlatiladi:

- * Natriy kromoglikat – (intal, ifirol, lomudal, kromolin, kropoz, spikas);
- * Natriy nedokromil (tayled);
- * Leykotriyen reseptorlari antagonistlari (akolat, singular);
- * Ingalyatsiyali glyukokortikosteroidlar (beklazon, bekotid, aldesin, beclo-forte, budesonid, flyutikazon propionat, ingakort);
- * Maxsus immunoterapiya.

Natriy kromoglikat (intal, ifirol, lomudal, kromolin, kropoz, spikas) ingalyatsiyalaridan doimiy foydalanish BA qo'zishi sonini kamaytiradi, kortikosteroidlar va bronxodilatatorlar dozasini kamaytirish imkonini beradi. Natriy kromoglikat farmakologik faolligi jihatidan steroidlarga

yaqin turadi. Shuning uchun BAning yengil kechishida va pediatriya amaliyotida keng qo'llaniladi. Preparatni qo'llash davoning samarasiga bog'liq bo'lib, kuniga 3-4 marta ishlatiladi va 1-3 oy davomida dozasi asta-sekin kamaytirib boriladi. U yallig'lanishga qarshi mahalliy ta'sir ko'rsatadigan va steroid bo'lmagan preparat hisoblanadi. Mahalliy ishlatilganda semiz hujayralar membranasini barqarorlashtiradi va biologik faol moddalar ajralib chiqishini oldini oladi.

Intal 20mg dan kapsulalarda (kukun holida) chiqariladi, spinxaler yordamida ingalyatsiya uchun kuniga 3-4 kapsuladan ishlatiladi. Intal-aerozol preparati esa 5 mgli 112 ta ingalyatsiya dozadan iborat bo'lib, kuniga 3-4 marta 2 ta ingalyatsiya holida qo'llaniladi.

Nojo'ya ta'sirlari (tomoq achishishi, yo'tal, bronxospazm) ning oldini olish uchun intalni ishlatishdan avval bronxodilatatorlardan (β 2-agonistlar) foydalanish o'rinlidir.

Kombinatsiyadagi preparatlar uch tomonlama – bronxolitik, yallig'lanish va allergiyaga qarshi ta'sir ko'rsatadi va samarasi yuqori. Bularga *aerokom* – tarkibi 1 mg natriy kromoglikat va 100 mkg doza salbutamol, *ditek* – tarkibida 1 mg natriy kromoglikat va 50 mg fenoterol, *intal plyus* tarkibida 1 mg kromoglitsinat kislota va 100 mkg salbutamol mavjud.

Natriy nedokromil (tayled) intalga qaraganda 4–10 baravar kuchliroq ta'sir etadi va yallig'lanishni keltirib chiqaruvchi turli hujayralardan ajraladigan faol moddalarga to'sqinlik qiladi. Tayled allergiya va u bilan bog'liq bo'lmagan BA da yaxshi samara beradi hamda uzoq muddat ishlatilganda ta'siri asta-sekin oshib boradi. Bu preparatni ishlatganda qisqa ta'sir etuvchi bronxolitiklardan voz kechish va kortikosteroidlar dozasini kamaytirish imkoniyati tug'iladi. U 2 ml 112 dozadagi aerezollar ko'rinishida chiqariladi va kunda 2 mahal 2 tadan ingalyatsiya qilish uchun buyuriladi.

Leykotriyen reseptorlari antagonistlari (akolat, singular) leykotriyen reseptorlarini bevosita bog'lab olish yo'li bilan bronxospazmga (bronxokonstriksiyaning ilk va kechki bosqichlariga) to'sqinlik qiladi, bronxlar shilliq pardasining shishini va shilliq modda ishlab chiqarilishini kamaytiradi. Bu guruh dorilaridan akolat (zafirlukast) va singular (montelukast) amaliyotda keng qo'llaniladi. Akolat 1 tabletkadan 2 marta, singular 1 marta ichishga tavsiya qilinadi va BAning jismoniy zo'riqish va aspirinli shakllarida qo'llaniladi.

Zaditen (ketotifen, pozitan) allergik reaksiyalarning patokimyoviy va potofiziologik bosqichlariga ta'sir ko'rsatadi. Uni BA allergik rinit bilan

birga kelganda va uning profilaktikasi uchun ishlatilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Preparatni 3 – 6 oy davomida 1 mg dan 2 mahal buyuriladi.

Ingalyatsiyada qo'llaniladigan glyukokortikosteroidlar

BA davolashda muhim o'rin egallaydi. Ular asosan kasallikning og'ir va o'rta og'ir, ba'zan yengil persistirlovchi kechishida uzoq vaqt davomida qo'llaniladi. Ushbu guruh dorilarining samaradorligi BA patogenezining turli xalqalariga ya'ni hujayralar membranasiga to'g'ridan – to'g'ri ta'sir o'tkazib, gistamin sintezini cheklab qo'yishiga, sAMF ko'payib borishiga yordam berishiga va T-limfotsitlar subpopulyatsiyasiga ta'sir etishiga bog'liq. IGKSlarni ishlatish tashqi nafas faoliyatini yaxshilaydi, nafas yo'llari giperreaktivligini, gormonlar ichishni, ularning asoratlarini, kasallik belgilarini, qo'zishini, xurujlar sonini kamaytiradi va pirovard natijada bemor hayot sifatini yaxshilaydi. Ularni ishlatishdan 5–15 daqiqa oldin bronxlar obstruksiyasini kamaytirish va kengaytirish maqsadida β_2 – agonistlari ishlatilsa dori o'rta va mayda kattalikdagi bronxlar bo'shlig'igacha yetib boradi. IGKS uzoq qo'llanilganda og'iz bo'shlig'i kandidozi, ovoz bo'g'ilishi va tomoq qurishi kabi nojo'ya ta'sirlar namoyon bo'lishi mumkin. Ushbu salbiy ta'sirlarning oldini olish maqsadida ingalyatsiyadan keyin tomoq va og'izni iliq suv bilan chayish kerak.

IGKSlar ta'sir davomiyligi bo'yicha ikki guruhga bo'linadi:

1. Qisqa ta'sir etuvchi IGKSlar – beklometazon dipropionat (beklazon, bekotid, aldesin, beclo-forte, beklamed, beblokord va boshqalar) 50, 100, 200, 250 mkgli dozalangan aerezollar holda chiqariladi. Ular kunda 4 marta va kasallikning og'ir-yengilligini hisobga olgan holda yuqoridagi jadvalda keltirilgan dozalarda qo'llaniladi.

Beklozon 100, 250 mkgli dozalangan aerezol bo'lib, kunda kasallikning og'ir-yengilligidan kelib chiqib 400–1500 mkggacha buyuriladi.

Beklokord 80, 250 mkgli dozalangan (200 doza) aerezol. Kunda 400 – 1200 mkggacha tavsiya etiladi.

Aldesin 50 mkgli 200 dozadan chiqariladi. Kunda 800–1200mkggacha ishlatiladi. Davo kursi boshlangandan so'ng, ta'siri 5-6 kundan keyin ma'lum bo'ladi.

2. Uzoq ta'sir etuvchi IGKSlar guruhiga – budesonid (pulmikort, benakort, budesonid forte), flyutikazon propionat (fliklotid), flunizolid gemigidrat (ingokort)lar kiradi. Ularning kunlik dozasi odatda 2 qismga bo'linib, ertalab va kechqurun ishlatiladi. Uzoq ta'sir etuvchi IGKSlarni BANing barcha bosqichlaridagi bemorlarga buyurish qulay bo'lib, ular

boshqa preparatlarga bo'lgan ehtiyojni va nojo'ya ta'sirlarni kamaytiradi. Masalan – IGKSlarni bir kunda 800 mkg qo'llash zarurati bo'lsa, uning uchun qisqa ta'sir etuvchi IGKS (bekotid, aldesin)lardan kunda 16 ingalyatsiya (50 mkg – 4 dozadan 4 mahal) qo'llanilsa, ulardan farqli o'laroq uzoq ta'sir etuvchi IGKS (ingakort, budesonid)lardan esa atigi 4 ingalyatsiya (2 ingalyatsiyadan 2 mahal) qo'llash yetarli bo'ladi. Uzoq ta'sir etuvchi IGKSlardan foydalanish davo kurslarini tannarxini kamaytirishda ham muhim ahamiyatga ega.

Budesonid forte 200 mkg li 200 dozadan iborat bo'lgan aerosol bo'lib, 12 soat ta'sir qiladi va 2 dozadan 2 mahal ishlatiladi. Kunlik dozasi 1600 mkggacha.

Ingakort 1 dozadasida 250 mkg flunizolid bor. Kunda 1000-2000 mkg gacha o'zi bilan birga sotiladigan speyzer yordamida buyuriladi. Beklametazon dipropionatdan farqli ravishda, bu preparat yillab ishlatilganda ham buyrak usti bezlari faoliyatini susaytirmaydi.

Pulmikort ikki xil shaklda chiqariladi. Nebulayzer yordamida ingalyatsiya qilinadigan suspenziya, bir millilitrda 0,125 mg; 0,25; 0,5 mg dan budesonid bor. Turbuxaler yordamida ingalyatsiya qilinadigan quruq kukun, 100 va 200 mkg li dozalarda.

Benakort ingalyatsiya qilish uchun ishlatiladigan quruq kukun bo'lib, har dozadasida sikloxalerga joylangan 200 mkg budesonid mavjud.

Fliksotid tarkibida 50; 125; 250 mkg dan flyutikazon propionat bo'lgan 60 ta dozadan iborat aerosol. Kunda 2 marta 1000-2000 mkg gacha bo'lgan dozalarda ishlatiladi. Bu preparat boshqa IGKS larga qaraganda yuqori mahalliy faollikka ega.

Azmakortni (triamsinolon atsetonid) kuniga 1000-2000 mkg gacha buyurish mumkin. Ushbu dori deyarli salbiy ta'sirlarga ega bo'lmasligi bilan boshqalardan ajralib turadi.

Yuqoridagilardan tashqari, kombinirlangan ingalyator aerazollardan seretid evoxaler – tarkibida IGKS – flyutikazon propionat 125, 250 mkg + bronxodilatator – salmeterol 25, seretid diskus IGKS – flyutikazon propionat 250, 500 mkg + bronxodilatator – salmeterol 50 mkg bo'lib, amaliyotda keng qo'llaniladi.

Maxsus immunoterapiya – allergik kasalliklarni, shu jumladan atopik BANi davolash uchun allergen ekstrakti ko'rinishida qo'llaniladi. U ixtisoslashtirilgan bo'limlarda kasallikning remissiya davrida olib boriladi. Ko'proq allergik rinitda samarasi yuqoriligi isbotlangan.

Tizimli glyukokortikosteroid (prednizolon, urbazon, polkortolon, deksametazon)larni kasallikning og'ir bosqichlarida peroral yoki

parenteral qo'llash tavsiya etiladi. Masalan, ulardan prednizolon kasallik kechishining og'ir-yengilligidan kelib chiqib 30 – 300 mg dozalarda buyuriladi. Og'ir davrida preparat vena ichiga bemor ahvoli mo'tadillashgandan so'ng tabletkalarda (kunda 30-40 mg har haftada dozasini 2,5 mg kamaytirish bilan), keyin IGKSda qo'llaniladi. Shu o'rinda preparat dozasi bemor ahvolidan kelib chiqib, individual tanlanishini yana bir bor eslatib o'tmoqchimiz.

GKSlar orasida deksametazonning yallig'lanish va allergiyaga qarshi ta'siri boshqalariga nisbatan kuchli bo'lib, 0,5 mg li tabletkalar va 4 mg ampula holida chiqariladi.

Simptomatik davolash. BAni simptomatik davosi sifatida bronxodilatatorlar ishlatiladi va ular 3 ta asosiy guruhga bo'linadi:

- * Selektiv β_2 – agonistlar;
- * Ingalyatsiyali M-xolinolitiklar (antimuskarin bronxodilatatorlar);
- * Metilksantinlar.

O'z navbatida selektiv β_2 – reseptor agonistlarining qisqa va uzoq ta'sir etuvchi turlari farqlanadi. Qisqa ta'sir etuvchi β_2 –agonistlarga salbutamol (ventolin, salben, salamol), terbutalin (brikanil), fenoterol gidrobromid (berotek N) lar kiradi va ular 4-6 soatgacha ta'sir qiladi. Bu preparatlar BA xurujlarini bartaraf etishda yuqori samaraga ega bo'lib, kunda 1 dozadan ko'p ishlatish talab etilsa, ularga bazis davolashni qo'shish kerak. Ularni kunda 4 ingalyatsiyadan ortiq ishlatmaslik lozim. Berotek N ning ana'naviy berotekdan farqi, bronxodilatatsiya ta'sirining yuqoriligidir. Uzoq ta'sir etuvchi β_2 –agonistlar rejali ravishda bazis terapiyaga qo'shib kunda 1-2 dozadan ishlatiladi va 12 soatdan ko'p ta'sir qiladi. Ular monoterapiya holida qo'llanilmaydi, chunki IGKS lar o'mini to'laqonli bosa olmaydi. Ushbu guruhga mansub salbutamol gemisuksinat (saltos) boshqalardan farqli o'laroq faqat tabletkalar holida ishlatiladi. Formoterol fumarat (oksis turbuxaler, foradil) ingalyatsiya holida qo'llaniladigan quruq kukun bo'lib, 1 kapsulasida 12 mkg preparat mavjud. Formoterolning o'ziga xos tomoni, ishlatilgandan 5 daqiqa o'tgach ta'siri boshlanadi va BA xurujini tez bartaraf etishi bilan boshqa uzoq ta'sir etuvchi ushbu guruh dorilaridan farq qiladi.

Salmeterol (salmeter, serevent)ning 1 dozasi 25 mkg salmeterol mavjud bo'lib, kunda 2 ingalyatsiyadan 2 marta qo'llaniladi.

Ingalyatsiya holida qo'llaniluvchi M-xolinolitiklarni surunkali bronxit negizida kechgan BA da qo'llash maqsadga muvofiq.

Ipratropium bromid (atrovent) bronxokonstriksiya surunkali bronxit bilan bog'liq bo'lganda va β_2 -agonistlar samara bermaganda

qo'llaniladigan antixolinergik bronxodilatator hisoblanib, 20 mkg li 300 dozadan iborat aerosol holida chiqariladi. Uni atropinga qarshi ko'rsatma bo'lgan hollarda ham ishlatish mumkin. Kuniga 2 ingalyatsiyadan (40 mkg) 3-4 marta tavsiya etiladi. Maximal samarasi 30-60 daqiqadan keyin yuzaga chiqadi va ta'sir davomiyligi 3-6 soat.

BA ni davolashda yuqoridagi doridan tashqari kombinatsiyali bronxodilatator berodual ham qo'llaniladi va 300 ingalyatsiyaga mo'ljallangan aerosol ko'rinishida chiqarilib, kunda 8 dozagacha ishlatish mumkin.

Metilksantinlarni (teofillin) BA ni davolashda keng qo'llamaslik maqsadga muvofiq. Chunki ular bronxlar silliq mushaklarini kengaytiribgina qolmasdan, kardiotsik va aritmogen ta'sir ko'rsatadi hamda miokardning kislorodga bo'lgan talabini oshiradi. Shuning uchun amaliyotda yoshi ulg'aygan bemorlarga ushbu guruh dorilarini kamroq qo'llash yoki umuman tavsiya etmagan ma'qul. Agarda ularni qo'llashga zarurat tug'lsa qondagi miqdorini 5-15 mg/l atrofida saqlab turish lozim, shunda nojo'ya ta'sirlari kamayib, sezilarli darajada bronxolitik samaraga erishiladi. Metilksantinlar ham qisqa va uzoq ta'sir etuvchi guruhlarga bo'linadi. Uning qisqa ta'sir etuvchi guruhiga teofillin, aminofillinlar (eufillin) kiradi va so'nggisi β_2 -agonistlarga chidamlilik bo'lganda, BA xurujini to'xtatishda muhim ahamiyatga ega. Tez samaraga erishish uchun odatda vena ichiga yuboriladi. Uzoq ta'sir etuvchilar guruhiga teopek, neoteopek, unifil, teodur-24, eufilonglar kirib, ular obstruktiv bronxitda va kechki bronxial astmada buyuriladi. Ular to'g'risida batafsil ma'lumot yuqorida keltirilgan.

BA ni metilksantinlar bilan davolashni uzoq ta'sir etuvchi guruhdan boshlash maqsadga muvofiq. Jumladan, ulardan teopek har 12 soatda 150 mgdan buyuriladi, agarda samaraga erishilmasa ushbu doza ikki martaga oshiriladi. Dori qabul qilish vaqtini kasallik xurujlaridan kelib chiqib (masalan; xurujlar tunda bo'lsa, kechqurunlari) buyurish kerak.

Kombinatsiyali terapiya ya'ni kichik dozalarda IGKS bilan uzoq ta'sir etuvchi β_2 -agonistlar keyingi paytlarda BA ni davolashda samarasi yuqoriligi tasdiqlangan. Jumladan Respublikamizda ulardan simbikort (pulmikort 160 mkg + oksis 4,5 mkg) va seretid (flyutikazon propionat + salmeterol) keng qo'llaniladi.

Quyidagi holatlar kombinatsiyali muolajalarni qo'llashga ko'rsatma hisoblanadi:

*IGKS larni monoterapiya holida qo'llaganda BA kechishini nazorat qilishning imkoniyati yo'qligi;

* IGKS yoki uzoq ta'sir etuvchi bronxodilatatorlar yaxshi samara bermasligi;

* Bemorni turli xil dorilardan tartibsiz foydalanganligi;

* BA ni nostabil kechishi;

* Muntazam tizimli kortikosteroidlar qabul qilib yurgan bemorlarda ularni dozasini kamaytirish maqsadida;


* BA boshqa kasalliklar bilan birga kechganda.

Antibiotiklar BAning infeksiyaga bog'liq shaklida bemor yiringli balg'am ajratganda, qon va balg'amda leykotsitlar soni oshganda, tana harorati yuqori bo'lganda buyuriladi.

4.2. Bronxial astmaning asoratlari. Status astmaticus. Etiologiya, patogenezi, klinika, birinchi yordam ko'rsatish va davolash prinsiplari

Asoratlari. Allergik astma insonning yurak-qon tomir kasalliklari uchun xavf omilidir. Nafas nafas yo'llarining allergik kasalligi bo'lib, unda 2-toifa yallig'lanish patogen rol o'ynaydi. Yurak-qon tomir kasalliklari (YURQTK) 1-toifa dominant yallig'lanish kasalliklari bo'lib, ularda 2-toifa sitokinlar ko'pincha himoya rolini o'ynaydi. Biroq, klinik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, allergik astma va u bilan bog'liq alergiyalar yurak-qon tomir kasalliklari, aorta kasalliklari, periferik arterial kasalliklar, o'pka emboliyasi, o'ng qorincha disfunktsiyasi, bo'lmacha fibrilatsiya, yurak gipertrofiyasi va hatto gipertenziya kabi YURQTK uchun muhim xavf omillari hisoblanadi. Mast hujayralari, eozinofillar, yallig'lanish sitokinlari va immunoglobulin (Ig) E astmatik o'pkada va yurak xuruji bilan og'riqan bemorlarning shikastlangan yurak va qon tomirlarida to'planadi. Klinik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ko'plab antiastmatik terapiya YURQTK xavfiga ta'sir qiladi. Shunday qilib, allergik astma va yurak-qon tomir kasalliklari umumiy patogen mexanizmlarga ega bo'lishi mumkin (54-rasm).

O'pka emfizemasi, pnevmotoraks, atelektaz, pnevmomediastinum, miokard distrofiyasi, bettolepsiya, ritm buzilishlari, nafas va yurak yetishmovchiligi, o'pkali yurak hamda astma statusi BAning asoratlariga kiradi.



54-rasm. Bronxial astmaning asoratlari

Tibbiy amaliyotda shifokor ko'proq astma statusi holatidagi bemorlar bilan to'qnashadi hamda ularga shoshilinch yordam ko'rsatishi lozim bo'ladi. Shuning uchun biz quyida ushbu asoratga batafsilroq to'xtalishni maqsadga muvofiq deb topdik. Astma statusi BANing surunkali kechadigan asorati hisoblanib, havo o'tuvchi yo'llarning obstruksiyasi, og'ir bo'g'ilish xurujlari va ularning uzoq davom etishi, odatdagi davo choralarining samarasizligi hamda o'tkir nafas yetishmovchiligi rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Quyidagilar astma statusiga olib keluvchi asosiy sabablar hisoblanadi:

- * Simpatomimetiklar va kortikosteroidlarni nazoratsiz qabul qilish va uzoq muddat qabul qilib yurilgan kortikosteroidlarni to'satdan to'xtatish;
- * Nafas olish tizimidagi o'tkir va surunkali yallig'lanish jarayonlarining qo'zishi;

- * Bemor qabul qilishi maqsadga muvofiq bo'lmagan preparatlarni (NYAQV, antibiotiklar va boshqalar) qo'llash hamda uxlatuvchi va tinchlantiruvchi dorilardan foydalanishni nazoratsiz qabul qilish;

- * Allergenlar (chang, ovqatlar) va nospesifik qo'zg'atuvchilarning (jismoniy zo'riqish, sovuq havo va boshqalar) ta'siri;

- * Asab-ruhiy holatlarga ta'sir etuvchi stress jarayonlar;

- * Bemor uchun monand davo tanlanmaganligi (nostabil astma).

Bronxial astma statusining tasnifi:

I – kompensatsiya bosqichi.

II – dekompensatsiya bosqichi.

III – giperkapnik koma bosqichi.

I bosqichda nafas siqishining uzayganligi, simpatomimetiklarga chidamlilik, majburiy holat, nafas olishni tezlashishi, qiyin ajraluvchi balg'am bilan kechuvchi xurujsimon yo'tal, taxikardiya, qon bosimi aksariyat hollarda ko'tarilishi kuzatiladi. O'rtacha arterial gipoksemiya, qonda karbonat angidridi ko'rsatkichi me'yorida yoki gipokapniya. II bosqichda bemor ahvoli og'ir, teri qoplamlari oqish-kulrang, sezilarli xansirash, auskultatsiyada "soqov o'pka", xirillash va nafas deyarli eshitilmaydi, tezlashgan va yuzaki puls, QB pasaygan. Sezilarli gipoksemiya (RO₂ 50 – 60 mm simob ustuniga teng), kuchayib boruvchi giperkapniya (RSO₂ 50 – 70 mm simob ustuniga teng).

III bosqichda bemor hushsiz, taxipnoe, yaqqol sianoz, kollaps belgilari. Og'ir arterial gipoksemiya (RO₂ 40 – 50 mm simob ustuniga teng), yaqqol giperkapniya (RSO₂ 80 – 90 mm simob ustuniga teng) va kislota-ishqor muvozanatining keskin buzilishi.

Astmatik statusda o'lim ko'rsatkichi 5-20%ni tashkil etib, uning sababi o'pka ventilyatsiyasining orqaga qaytmas o'zgarishlari oqibatida asfiksiya ro'y berishi hisoblanadi.

Bettolepsiya – sinkopal holat ("yo'talli hushdan ketish") bo'lib, ko'krak ichi bosimining keskin oshishi va qisqa muddatda miyada qon aylanishining buzilishi hisoblanadi. Xurujsimon yo'taldan keyin bemorlarda bosh aylanishi, ko'z oldi qorong'lashishi, kuchli holsizlik, quloqda shovqin, ko'ngil aynishi kuzatiladi. Undan so'ng bemor qisqa vaqt hushini yo'qotadi. Odatda, terisi rangpar, terlash, qon bosimining pasayishi, tezlashgan va kuchsiz puls, mushaklar tonusi pasayishi aniqlanadi. Ular gorizontal holatda yotqizilib, boshlarini pastga qaratganda tezda o'zlariga keladilar.

Astmatik statusni davolash tamoyillari.

- * Zudlik bilan reanimatsiya bo'limiga yotqizish.
- * Har 15-30 daqiqada NCHAT va IJNCHHni nazorat qilish.
- * B₂ – adrenomimetiklarni qo'llashga qarshi ko'rsatma bo'lmasa, ularni nebulayzer orqali va tizimli GKSlar bilan birga ishlatish.
- * Oksigenoterapiya.
- * Infuzion terapiya – kunda 3-5 litr glyukoza, natriy xlor eritmalari, metabolik atsidozni alkalozga aylanishini oldini olish uchun natriy gidrokarbonatlardan foydalanish.

*Glyukokortikoidlar ichishga yoki venaga (gidrokortizon 1mg/kg tana og'irligiga bir soat davomida, metilprednizolon 60–125 mg yoki prednizolon 30-60 mg har 4-6 soatda). Astmatik status bartaraf etilgandan

keyin gormon dozasi 25%ga, va undan so'ng bemor ahvolidan kelib chiqib har uch kunda $\frac{1}{4}$ tabletkadan kamaytiriladi.

* B_2 – adrenomimetiklar bilan nebulayzer yordamida davolash 72-96 soat davom ettiriladi va bu usul ballondagi ingalyatsiyada qo'llaniladigan aerzollarga qaraganda 7 marta samarali hisoblanadi.

* Kombinatsiyali β_2 – adrenomimetiklar – berodual.

* Metilksantinlar (qarshi ko'rsatmalar bo'lmaganda) – eufillin boshlang'ich dozasi 5-6 mg/kg, vena ichiga tomchilab, asta-sekin 20 daqiqa davomida, keyin 0,6-0,8 mg/kg. Kunlik dozasi 1,5-2,0 g dan oshmasligi kerak.

* Quyidagi holatlarda bemor o'pka sun'iy ventilyatsiyasiga o'tkaziladi- monand davo choralari qo'llanilishiga qaramasdan astma statusining zo'rayib borishi, giperkapniya va gipoksiyaning kuchayishi, markaziy asab tizimidagi buzilishlar hamda koma belgilarining paydo bo'lishi.

Yuqoridagilardan tashqari, astma xurujlarini bartaraf etishda adrenalinni vrach nazorati ostida quyidagi sxemada qo'llash mumkin: tana vazni 60 kg dan kam bo'lganda 0,3 mg, 60-80 kg bo'lsa – 0,4 mg, 80 kg dan og'ir bo'lganda – 0,5 mg teri ostiga.

Afsuski zamonaviy tibbiyot hozircha BA ni radikal davolash imkoniyatlariga ega emas. Ammo samarasi isbotlangan zamonaviy dorilar yordamida kasallikning klinik belgilarini bartaraf etish va xurujlarini oldini olish mumkin. Bu esa o'z navbatida bemorlarning hayot sifatini yaxshilashga va jismoniy faolligini oshirishga olib keladi.

Bronxial astmani prognozi. Kasallik prognozi uni o'z vaqtida aniqlash, o'qitish dasturlari va o'z-o'zini nazorat qilishga bog'liq. Eng muhimi bemorni o'z vaqtida tibbiy yordamga murojaat qilishi va qo'zg'atuvchi omillarni bartaraf etish hisoblanadi.

Bronxial astmani profilaktikasi. JSST ekspertlari tomonidan ishlab chiqilgan va uchta bosqichdan iborat: Birlamchi profilaktika – BA rivojlanishiga olib keluvchi xavfli belgilari bor shaxslarni o'z vaqtida aniqlash, atrof muhitni musaffo qilish, ishlab chiqarish, turmush, mehnat sharoiti, sport va tibbiy tadbirlarni tashkil etish. Individual profilaktikaga (gipoallergen parhez, allergenlardan saqlanish, chekishni tashlash, alkogolli ichimliklarni ichmaslik, sport va jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish) e'tiborni qaratish, homilador ayollarni turmush sharoitini yaxshilash va allergiya chaqiruvchi omillardan saqlanishga o'rgatish. Bronxial astma rivojlanishiga xavf tug'diruvchi hayvonlar (mushuk, it), qushlar bilan aloqani cheklash. Ota-onasida bronxial astma kasalligi

bo'lgan kishilarga xavf omillaridan saqlanishni tushuntirish. Nafas yo'llaridagi infeksiya o'choqlari va virusli kasalliklarga qarshi kurashish. Shu bilan birga vaqti-vaqti bilan o'tkaziladigan tibbiy ko'riklarni uyushtirish, kasallikning ilk belgilarini o'z vaqtida aniqlash va bemorni ishga to'g'ri joylashtirish. Ikkilamchi profilaktika – kasallikni erta aniqlash va o'z vaqtida monand davolash. Bunda kasallik xurujlari orasida tadbirlarni o'tkazish va qo'zishini ogohlantirish. Uchlamchi profilaktika – kasallik asoratlarning oldini olish, uni davolash, rehabilitatsiya va sanator-kurort tadbirlari, o'qitish dasturlari olib borishdan iborat.

4.3. Aspirinli bronxial astma. Etiologiya. Patogenez. Klinika. Tashxislash va davolash prinsiplari. Profilaktikasi

Aspirinli astma yoki aspirinli uchlikga BA, aspirin yoki boshqa yallig'lanishga qarshi nosteroid vositalar ta'sirida xurujlarning paydo bo'lishi, polipoz va rinosinusitlar mavjudligi kiradi. Ba'zan burun polipozi kuzitilmasligi ham mumkin. Ushbu shakl barcha BAga chalingan bemorlarning taxminan 8%da uchraydi.

Bronxial astma bilan og'rikan bemorlarning 4,3-21% da uchraydigan aspirin va boshqa steroid bo'lmagan yallig'lanishga qarshi dorilarga yuqori sezuvchanlik og'ir bronxial astma va burun poliplari bilan giperplastik rinosinusit rivojlanishi uchun xavf omilidir.

Bronxial astma bilan og'rikan ba'zi bemorlarda 30–120 daqiqadan so'ng aspirin yoki boshqa NYaQVlarni qabul qilish burunning nafas olishida qiyinchilik, rinoreya va tez rivojlanayotgan bronxial obstruktsiyani keltirib chiqaradi.

Ba'zi bemorlarda nafas olish reaktsiyalari ko'z, teri (qizarish, urtikariya yoki angioedema) yoki oshqozon belgilari bilan birga bo'lishi mumkin. Ko'pgina bemorlarda tipik sindromlar mavjud: poliplar bilan asoratlangan surunkali rinosinusit, aspirin va boshqa o'zaro ta'sir qiluvchi NYaQVlarga javoban og'ir astma va yuqori sezuvchanlik reaktsiyalari.

Rinosinusit/burun poliplari va astma bilan NYaQVlarga yuqori sezuvchanlik mavjudligi "aspirin triadasi" yoki "aspirin keltirib chiqaradigan respirator kasallik" ni anglatadi.

ABA – bronxial astmaning maxsus varianti, bemorda bronxokonstriktor omillaridan biri steroid bo'lmagan yallig'lanishga qarshi dorilar hisoblanadi.

Tarixi. Zamonaviy NYaQVlar davri 1899-yilda yallig'lanish kasalliklarini davolash uchun asos bo'lgan aspirin (atsetilsalitsil kislota) paydo bo'lishi bilan boshlangan. Faqatgina 1960-yillarga qadar xavfsizroq xususiyatlarga ega yangi NYaQVlar paydo bo'ldi. O'sha paytda NYaQVlarning ta'sir qilish mexanizmi to'liq tushuntirilmagan.

Belgilari – bezovtalik, qichishish, qizarish, pufaklar, toshmalar, hansirash, puls tezlashgan (1 daqiqada 80-90 martagacha), yurak og'rig'i, qizish, yurak qisishi, havo yetishmasligi, lab, qovoqlarning shishib ketishi, talvasa, qon bosimi ham past bo'lishi mumkin. Anafilaktik shok prodromal davrning mavjudligi bilan tavsiflanadi. Agar prodromal davr bo'lsa, uning davomiyligi bir necha soniyadan bir soatgacha o'zgarib turadi. Prodromal davr odatda bemorda issiqlik hissi, hayajonlanish yoki zaiflik va tushkunlik, ko'krak qafasidagi og'riqlar paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lib, ular siqilish, bosh og'rig'i va boshqa hodisalar sifatida tavsiflanishi mumkin. Prodromal davrda ko'pincha quyidagi hodisalar yuzaga keladi: terining qichishi, terlash va yo'tal (quruq). Terida toshma paydo bo'lishi mumkin, shish ehtimoli bor. Prodromal davr anafilaktik shokning haqiqiy klinikasi ko'rsatadigan alomatlar paydo bo'lishi bilan tugaydi.

Bemor asfiksiya alomatlari bilan 5-30 minut ichida vafot etishi mumkin, ba'zida 24-48 soatdan yoki undan ko'p 12 kungacha kech asoratlari – allergik miokardit, glomerulonefrit, gepatit, qorin bo'shlig'ida qon ketishi, miya shishi kuzatilishi mumkin.

Anafilaktik shok belgilari paydo bo'lganda bemorni yonboshi bilan yotqizib, oyoqlarini biroz ko'tarib qo'yish (bu nafas yo'llaridan bemalol havo o'tishini ta'minlaydi), lozim bo'lsa, sun'iy nafas oldirish kerak.

Anafilaktik shokning oldini olish uchun faqat kerakli dorilardan foydalanish zarur. Ba'zida bu reaksiyaning sababi hech qachon aniqlanmaydi. Ushbu turdagi anafilaksiya idiopatik deb ataladi.

Anafilaktik shok nafas olish qiyinlashuvi, qon bosimining pasayishi va boshqalar bilan birga keladi. Anafilaktik shokning bir necha darajalari mavjud: engil, o'rtacha, og'ir va o'ta og'ir. Anafilaktik shok ko'pincha juda tez rivojlanadi, shuning uchun uni oldindan aytish mumkin emas. Hatto hasharot chaqishi ham anafilaktik shokka olib kelishi mumkin.

Anafilaksiyaning eng sezgir belgilaridan biri bu qon bosimining pasayishi. Birinchidan, periferik qon aylanishi buziladi, so'ngra markaziyga o'tadi. Bu organizm hujayralari tomonidan ko'p miqdorda ishlab chiqariladigan gistamin va boshqa vositachilar ta'siri ostida ro'y beradi. Qon bosimining pasayishi tufayli terining rangi oqarib ketadi. Teri sovuq va nam bo'ladi. Shuningdek, qon aylanishining buzilishi tufayli miya va boshqa organlarda zararlanadi.

Nafas qisilishi anafilaktik shokning o'ziga xos xususiyati. Nafas olishda qiyinchilik bo'ladi, laringeal shish, bronxospazm tufayli yuzaga keladi. "Astmatik" shovqinli, tez tez nafas olish kuzatiladi. Teri rangpar

va lablar, barmoqlar, ko'zga ko'rinadigan shilliq pardalar oqimtir va qon bosimining pasayishi bilan tavsiflanadi.

Anafilaktik shok holatida bo'lgan ba'zi bemorlarda konvulsiyalar kuzatiladi, og'izdan ko'pik paydo bo'lishi, peshob ajralishi va defekatsiya o'z-o'zidan paydo bo'lishi mumkin, shuningdek, bachadondan qon kelishi mumkin.

Birinchi alomatlar nafas qisilishi, ko'krak qafasining siqilishi, bronxospazm yoki allergik laringeal shish tufayli yo'talish, ba'zida qorinda paroksismali og'riq, ko'ngil aynishi, diareya va qusish ko'rinishidagi oshqozon-ichak traktining disfunktsiyasining alomatlari bo'lishi mumkin. Og'izdan ko'pik, majburiy peshob ajralishi va defekatsiya kuzatiladi.

Ob'ektiv: teri va shilliq pardalarning rangsizlanishi, siyanoz, ba'zan terining o'tkir giperemiyasi. Tananing turli qismlarida allergik toshma va shish paydo bo'lishi mumkin.

EKGda miokard infarkti darajasigacha bo'lgan barcha o'zgarishlar bo'lishi mumkin.

O'pkaning perkussiyasi paytida qutichasimon perkussiya ovozi (o'tkir obstruktiv emfizema), auskultatsiya paytida nafas olishning turli darajalari uzayishi, qattiq quruq xirillashishlar eshitiladi.

Shokning og'irligiga qarab, qon bosimining pasayishi kuzatiladi. Bunga parallel ravishda, puls tezlashadi, og'ir holatlarda u aniqlanmaydi. Ongni yo'qotish bilan anafilaktik shok ayniqsa og'ir kechadi.

Anafilaktik shokning bir necha darajalari mavjud.

Shokning klinik belgilarining paydo bo'lishi vaqti allergenni organizmga kiritish usuliga bog'liq: tomir ichiga yuborish bilan, reaksiya 10–15 soniyadan keyin, mushak ichiga 1-2 daqiqadan so'ng, og'iz orqali 20-30 daqiqadan so'ng rivojlanishi mumkin.

Anafilaksiya belgilari juda xilma-xildir, ammo bir qator etakchi alomatlar aniqlanadi:

- gipotenziya, tomirlarning siqilishiga qadar
- bronxospazm
- oshqozon-ichak trakti silliq mushaklarining spazmini
- qon aylanish tizimining arterial va venoz qismlarida qonning turg'unligi

-qon tomir devorining o'tkazuvchanligi oshishi

Engil anafilaktik shok

Oddiy anafilaktik shokning engil darajasi quyidagicha tavsiflanadi:

teri qichimasi

bosh og'rig'i, bosh aylanishi,
issiqlik hissi, issiq chaqnashlar, shamollash,
aksirish va burundan shilimshiq chiqishi;
tomoq og'rig'i,
bronxospazm bilan nafas olish qiyinlashuvi,
qusish
kuchayib boruvchi zaiflik.

Anafilaktik shok – bu yuqori sezuvchanlik reaksiyasining bevosita turi va hayot uchun xavfli sharoitlarni anglatadi. Shokning to'liq klinik ko'rinishi bir necha soniyadan 30 daqiqagacha rivojlanadi.

Terining giperemiyasi (kam rivojlangan siyanoz), har xil og'irlikdagi toshma, ovoz balandligi, masofada eshitiladigan nafas, qon bosimining pasayishi (60/30-50/0 mm Hggacha), pulsatsiya va taxikardiya 120dan 220gacha.

O'rta darajadagi anafilaktik shok belgilari

tashvish, o'lim qo'rquvi
bosh aylanishi
yurak og'rig'i
qorin bo'shlig'ida to'kilgan og'riq,
beixtiyor qusish
havo etishmasligi hissi, bo'g'ilish.

Ob'ektiv: ongni tushkunligi, sovuq, yopishqoq ter, terisi oqargan, nazolabial uchburchak siyanozli, qorachiqlar kengaygan. Yurak tovushlari bo'g'iq, yurak urishi kuchaygan, aritmik, tez, qon bosimi aniqlanmagan. Spontan siyish va defekatsiya, tonik va klonik tirishishlar, kamdan-kam hollarda turli xil lokalizatsiyadan qon ketish mumkin.

Og'ir anafilaktik shok

Anafilaktik shokning og'ir kechishi quyidagicha tavsiflanadi: klinikasi juda tez rivojlanadi (bir necha soniyadan bir necha daqiqagacha) va hushini yo'qotish

Teri va ko'zga ko'rinadigan shilliq pardalarning siyanozi, terlashi, turg'un kengaygan shilliq qavatlar, tonik-klonik tirishishlar, nafas qisilishi bilan nafas olish qiyinligi, ko'pikli balg'am qayd etiladi. Yurak tovushlari eshitilmaydi, qon bosimi va periferik arteriyalarning pulsatsiyasi aniqlanmaydi. Jabrlangan odam, qoida tariqasida, to'satdan ongni yo'qotishi sababli shikoyat qilish uchun vaqt topa olmaydi, agar tibbiy yordam darhol berilmasa, o'lim ehtimoli yuqori.

Anafilaktik shokning og'irligi:

90/60 mm Hgga kamayadi.

60/40 mm Hgga kamayadi.

Ta'siri sekin, uzoq muddatli kuzatish talab etiladi

Ayrim manbalarga ko'ra quyidagicha og'irlik darajasi farqlanadi.

Birinchi engil darajasi. Anafilaktik shok bir necha daqiqadan ikki soatgacha davom etadi. Bunday holda, terining qichishi, terining giperemiyasi bilan tavsiflanadi. Bemorda bosh og'rig'i, bosh aylanishi, issiqlik hissi, taxikardiya, tanadagi noqulaylik, ko'kragida siqilish, nafas qisilishi va kuchsizlanish kuchayadi.

Ikkinchi o'rtacha og'ir daraja. Anafilaktik shok uchun, bu holda, engil daraja bilan solishtirganda, batafsilroq klinik ko'rinish xarakterlidir. U Kvinke shishi bilan namoyon bo'ladi (bu inson organizmidagi toshmalar bilan kechadigan o'tkir allergik reaktsiya, to'qima shishi bilan birga keladi), yurak urishi, aritmiya, yurakdagi og'riq va qon bosimining pasayishi. Bemorda hayajon, tashvish va qo'rquv hissi paydo bo'lishi mumkin. Uning eshitish qobiliyati pasayadi va boshida shovqin bo'lishi mumkin, oshqozon-ichak sindromi va buyrak sindromi kuzatiladi

Uchinchi daraja og'ir daraja. Bunday holatda anafilaksiya o'tkir yurak-qon tomir va nafas etishmovchiligining rivojlanishi bilan bog'liq. Bu qon bosimining keskin pasayishi, nafas qisilishi, stridor nafas olish bo'lishi mumkin. Ko'pincha og'ir anafilaktik shok, ongni yo'qotish bilan birga keladi.

To'rtinchi og'ir daraja. Anafilaktik shok kollapsning birdan rivojlanishiga olib keladi. Bu qon bosimining keskin pasayishi, tomir tonusining keskin pasayishi, qon aylanishining yomonlashishi bilan bog'liq bo'lgan tananing holati, buning natijasida hayotiy muhim organlar (masalan, yurakka venoz qon oqimi sezilarli darajada kamayadi, arterial va venoz bosim pasayadi va hokazo) miya gipoksiyasi bo'ladi. Shuningdek, bu holatda anafilaksiya komaga olib kelishi mumkin, bu bemorning ongini tezda yo'qotishi bilan bog'liq. Bunday holda siyish va defekatsiya yuzaga keladi.

Davolash. – davolanish juda shoshilinch bo'lishi kerak, chunki shifokorning biroz kechikishi va chalkashligi bemorni asfiksiya, miya shishi yoki o'pka shishi, siqilish, chap qorincha etishmovchiligidan nobud bo'lishi mumkin.

- 1. Allergenning qon oqimiga kirib borishini to'xtatishdir: allergen yutilishining oldini olish uchun inyeksiya joyini 0,1% adrenalini eritmasi (0,5 ml) bilan jgut va unga muz qo'yish.

-Xuddi shu dozani adrenalinni boshqa joyga, og'ir holatlarda esa 20 ml 40% glyukoza eritmasi bilan tomir ichiga kiritish.

-Bemor oyoqlariga iliqlik vanna qo'yish kerak, boshini yon tomonga o'girib, pastki jag'ni tilga tegmasligi kerak.

-Agar samarasi bo'lmasa, 0,5 ml 0,1% adrenalin in'ektsiyasini teri ostiga yoki 10–15minutdan keyin takrorlash, ammo agar qon bosimi ko'tarilmasa, noradrenalin eritmasi tomir ichiga yuboriladi – 5 ml 0,2% eritma. 500ml 5% glyukoza 40-50 tomchi / daqiqada. Dori vositasiga parenteral yuborilganda yoki hasharotlar tishlash (chaqish) paytida reaksiya bo'lsa – 25 minut davomida in'ektsiya joyining tepasida jgutni qo'llash (har 10 daqiqada 1-2 marta jgutni bo'shatish kerak).

Qon bosimini optimallashtirish – 2000 mlgacha bo'lgan eritmalar (5% glyukoza, Na xlorid), so'ngra 500 ml 5% glyukoza eritmasiga 400 mg dopamin qilinadi.

Organizmga allergiya kirishini to'xtatish lozim (antibiotiklar, venaga yuboriladigan, teriga surtiladigan, ichiladigan dorilar to'xtatiladi).

1. Agar zaharli hasharotlar chaqqan bo'lsa, yuqorisidan jgut tortiladi. Dori yuborilgan, hasharotlar chaqqan joyga 0.1% 0.2–1ml adrenalin qilinadi.

Glyukoza 5 yoki 40% – 300ml + Adrenalin 0.1% 0.2–1ml v/i/t (bolalarga glyukoza 10-20%-50ml + adrenalin 0.1% 0.2-0.5ml v/i/t) qon bosimi kuzatib boriladi.

3. Kordiamin 2ml m/o (bolalarga 0.2-0.8 ml m/o)

4. Eufullin 2.4% 10ml v/i sekinlik bilan (bolalarga eufillin 2.4% – 2.5ml v/i sekinlik bilan)

5. Suprastin 2% – 2ml m/o (bolalarga suprastin 2% – 1ml m/o) yoki Tavegil 2% – 2ml m/o (bolalarga tavegil 2% – 1ml m/o)

6. Hidrokortizon 3-5ml v/i/t sekinlik bilan (bolalarga 1-2.5ml)

7. Hiqildoq shishida, nafas olish qiyinlashgan paytda ko'rsatma bilan intubatsion nay qo'yiladi

8. Oyoq-qo'llarga issiq vannalar, isitgichlar qo'yiladi (pufaklar yo'q bo'lsa)

9. Kislorod terapiya 20 daqiqaga (bolalarga 5–10 daqiqa)

Anafilaktik shokning asoratlari

Anafilaktik shok juda jiddiy jarayon bo'lib og'ir asoratlarga olib keladi.

- miya shikastlanishi
- buyrak etishmovchiligi
- kardiogen shok
- aritmiyalar, yurak urishi juda tez yoki juda sekin bo'ladi.
- yurak xurujlari

- o'lim

Morfologiya

Shokning patoanatomik belgilariga 5 tur o'zgarishlar kiradi:

1. Hayotiy yoki o'limdan keyingi fibrinoliz tufayli murdaning tomirlarida qonning suyuq holati.

2. Tarqalgan tomir ichidagi koagulyatsiya sindromi. Mikroskopik jihatdan u mayda tomirlar va kapillyarlarda mikrotromblarning mavjudligi, shuningdek teri, shilliq pardalar va ichki organlarda keng tarqalgan perivaskulyar qon ketishlar bilan namoyon bo'ladi.

3. Qonning mikrosirkulyatsiya tizimida cho'kishi, bu ichki organlarning notekis qon ta'minlanishi va gipovolemiya belgilari bilan namoyon bo'ladi ("bo'sh yurak", katta venoz tomirlarda oz miqdordagi qon va boshqalar).

4. Qonning taqsimlanishi: kapillyarlar sonini kamaytirish, ularning qon bilan ta'minlanishi va organlarning asosan venular qismlarini qon bilan to'ldirish. Bu, birinchi navbatda, buyraklar, jigar va o'pkalarga xosdir.

5. Organlar gipoksik shikastlanishi va to'qimalarning shishishi (yurak, o'pka, oshqozon va ichaklar, miya, buyraklar). Miyokardda zararlanish o'choqlari paydo bo'lib, miokard infarkti rivojlanishi mumkin. Nafas olish yo'llarining shilliq qavatining shishishi (halqum, bronxlar), bronxospazm va shilliq qavatning gipersekretsiyasi bilan tavsiflanadi. O'pka va alveolalarning interstitsial to'qimalari shishib, atelektazi ("shok o'pkasi") paydo bo'lishi mumkin. Ovqat hazm qilish tizimining shilliq qavatida o'tkir eroziya va yaralar kuzatiladi, nekroz va qon ketishi rivojlanishi mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, yuqorida tavsiflangan morfologik o'zgarishlar turli darajada shakllanishi mumkin, bu anafilaktik shokning klinik ko'rinishini belgilaydi.

Anafilaktik shokdan vafot etgan bemorlarni patamorfologik ochilganda quyidagi morfologik o'zgarishlar aniqlanadi:

1. Yuqori nafas yo'llarining shishishi (laringeal) yallig'lanishga bog'liq emas;

2. Pastki nafas yo'llarining bronxospazmlari, shilimshiq sekretsiyasining kuchayishi, submukozal qatlamning shishishi, qon tomir turg'unligi va eozinofil infiltratsiyasi;

3. O'pka shishi, ba'zida o'pkadan qon ketish va atelektaz;

4. Qon tomir kanalidan plazma chiqishi bilan qon tomir o'tkazuvchanligini oshirish, periferik tomirlarning kengayishi, miokard ishemiyasi;

5. Jigar, taloq va ichak devorining zararlanishi;

6. Teri shishishi (dermis) va qon tomirlarining kengayishi;

7. O'lim holatlarida-yurak, ichak, buyrak va boshqalarda ishemik o'zgarishlar

Yurak- qon tomir tizimidagi zararlanishlardan o'lim 70%, nafas olish organlaridan o'lim 25% holatda kuzatilishi ma'lum bo'ldi. Ba'zida 15% otopsiyada sezilarli patologik kasalliklarni aniqlash mumkin bo'lmay qoladi; bunday hollarda o'lim yurak ritmining buzilishi natijasida yuzaga kelgan deb taxmin qilinadi.

ASHning patofiziologik mexanizmlari asosan tez va ko'p miqdorda qayta ishlab chiqilgan va yangi sintezlangan mediatorlarni to'qima bazofillaridan (semiz hujayralaridan) va qon bazofillaridan ajratishning fiziologik va farmakologik ta'siri bilan bog'liq. Ko'p sonli to'qima bazofillarini (semiz hujayralari) degranulyatsiya qilishning ikkita asosiy mexanizmi mavjud:

1) IgE-qaram (haqiqiy allergik);

2) IgE mustaqil (psevdoallergik);

IgEga bog'liq degranulyatsiya organizmga kirib, har ikki turdagi bazofillar yuzasida bo'lgan IgE molekulalariga bog'langan o'ziga xos allergenlar tomonidan boshlanadi. Ma'lumki, IgE aniqlash FC Fragment IgE (FcεRI) uchun semiz hujayra yuzasida maxsus retseptorlari yuqori mavjudligi tufayli sodir bo'ladi. Quyida allergenlarning misollari keltirilgan, ularning roli haqiqiy allergik ASHning rivojlanishida isbotlangan. Allergenlar, ularning roli haqiqiy allergik (IgE-qaramlik) rivojlanishida ash isbotlangan. To'liq oqsil antijenlari bo'lgan allergenlar:

1. Oziq-ovqat-tuxum, sigir suti, yong'oq, mollyuskalar.

2. Zaharlar-asalarilar, ari va boshqalar.

3. Vaktsinalar-qizamiq, gripp va x.k.

4. Gormonlar-insulin, kortikotropin, tirotropin

5. Zardoblar, globulin, zaharlarga qarshi antidotlar.

6. Fermentlar-streptokinaza

7. Lateks – jarrohlik qo'lqop, endotraheal moslamalar.

8. Allergen ekstraktlari-uy changlari – hayvonlarning kepaklari, gul chahglari

Gapten:

1. Antibiotiklar-penitsillin, sefalosporinlar.

2. Vitaminlar-tiamin
 3. Sitostatiklar-sisplatin, siklofosfamid, sitosin arabinozid
 4. Opiatlar
- Polisaxaridlar
1. Dekstran
 2. Temir o'z ichiga olgan dekstran
 3. Poligemin

Laboratoriya va instrumental diagnostika.

Anafilaktik shokdan tiklanish vaqtida kuzatilgan asoratlarni erta tashxislash uchun qo'shimcha tashxislar muhim ahamiyatga ega. Bemorlarda klinik umumiy qon tekshiruvi eozinofiliya, leykotsitoz, kam hollarda anemiya va trombositopeniyani ko'rish mumkin. Asoratlar rivojlanishi bilan kechsa bioximik qon tahlilida kreatinin, kaliy, bilirubin, transaminazalar (ALT, AST), kreatin fosfokinaza, ishqoriy fosfataza konsentratsiyasining oshishi va protrombin indeksining pasayishi kuzatilishi mumkin.

Ko'krak qafasi rentgenogrammasi interstitsial o'pka shishi belgilarini ko'rsatishi mumkin. Elektrokardiogrammada supraventrikulyar aritmiyalar va T tishning inversiyasi aniqlanadi. Bemorlarning to'rtidan bir qismida o'tkir miokard infarkti rivojlanishi mumkin (chuqur Q tishchanining paydo bo'lish, S-T segmentining ko'tarilishi). Ko'rsatkichlarga ko'ra, tor mutaxassislar (oftalmolog, nevrolog va boshqalar) ko'rigi belgilanadi. O'gir holatlarda shokning sababini aniqlash uchun shubhali allergenlarga xos IgE ni aniqlash radioallergosorbent, fermentga bog'liq tahlillar yordamida qo'llaniladi.

Diagnostika

Anafilaktik shokning diagnostikasi xarakterli klinik ko'rinishga asoslanadi, ularning asosiylari gipotenziya, ongni yo'qotish va dorilarni qabul qilish, oziq-ovqat iste'mol qilish, hasharotlar chaqishi va boshqalardan keyin rivojlanadigan shokning periferik belgilaridir. Tashxis formasi.

1. Asalari chaqishi natijasida anafilaktik shok, o'rtacha og'irlikdagi umumiy shakl.
2. Penitsillin in'ektsiyasiga anafilaktik shok, asfiksial shakl, engil kechishi.

Kechishi. Anafilaktik shok bemorning hayotiga tahdid soladigan holat bo'lib, shoshilinch davolanishni talab qiladi.

Shokni davolash to'g'ridan-to'g'ri uning joyida, jabrlanuvchini ixtisoslashtirilgan bo'limga olib kelishni kutmasdan boshlanadi.

Shokning natijasi birinchi yordam choralarining o'z vaqtida va etarli darajada bo'lishiga qarab belgilanadi. Bemorni yotqizish kerak, oyoqlarini ko'tarish, boshini yon tomonga burish kerak.

Hayotiy belgilarni diqqat bilan kuzatish davolanishning butun davri davomida va zarbadan xalos bo'lgandan keyin bir necha soat o'tgach amalga oshiriladi, chunki klinik belgilar kun davomida takrorlanishi mumkin. 50% holatlarda, dori-darmonlarni qabul qilish natijasida anafilaktik shok paydo bo'ladi.

Anafilaktik shok terapiyasining asoslari:

allergenni qabul qilishni darhol to'xtatish (masalan, hasharotni olib tashlash yoki preparatni qabul qilishni to'xtatish);

o'tkir nafas olish va gemodinamik buzilishlarni yengillashtirish
rivojlangan adrenokortikal etishmovchilik uchun kompensatsiya
allergik mediatorlarni anafilaksiya tizimli qon aylanishida va
antigen-antikor aloqalarini zararsizlantirish

hayotiy funktsiyalarni bajarish yoki kerak bo'lganda reanimatsiya
kislota- asos muvozanatini normallashtirish

umumiy periferik qon tomir qarshiligining ortishi

aylanma qon hajmini to'ldirish

Reanimatsiya bo'limiga kasalxonaga yotqizish va kecha- kunduz kuzatilishi o'rtacha yoki og'ir anafilaksiya bo'lgan bemorlarga, shuningdek tibbiy muassasalardan uzoqda bo'lganlarga ko'rsatiladi (chunki murakkab davolash 72 soat davom etadi).

Oqibatlar va asoratlar

Dorilarni qabul qilgan va hashoratlar chaqishi bilan anafilaktik shokdan o'lim 0,001-0,002%ni tashkil qiladi. O'limning asosiy sabablari o'tkir qon tomir etishmovchiligi, laringeal shish natijasida asfiksiya, og'ir bronxospazm va bronxlar bo'shlig'ining balg'am bilan tiqilib qolishi, qon tomirlarining trombozi va hayotiy organlarda (miya, buyrak usti bezlari va boshqalar) qon quyulishi natijasida kelib chiqadi..

Mumkin bo'lgan asoratlar (kechikishi, bir necha haftagacha rivojlanishi mumkin):

allergik miokardit,

Kvinki shishi,

takroriy Eshak yemi

o'pka shishi

miokard infarkti

yurak etishmovchiligi

surunkali allergik reaktsiyalarning rivojlanishi

bronxial astma

gepatit

glomerulonefrit

"Shok buyrak", " Shok o'pkasi", " Shok jigar"

turli xil lokalizatsiyadan qon ketish

nevrit, asab tizimining diffuz shikastlanishi, vestibulopatiya

epilepsiya

autoimmun kasalliklari

Bemorlarning 40% keyingi 2-3-yil ichida anafilaksiya takrorlanib turadi.

Etiologiyasi:

Asosan dori allergiyasi, bundan tashqari

- oziq -ovqat mahsulotlari

- ari chaqqanda

- asal ari chaqqanda

- spetsifik terapiyadan so'ng

- allergologik tekshirishda

- sovuq allergiyalarda anafilaktik shok kuzatiladi

Dori anafilaktik shoki eng xavfli bo'lib, bolalarda hozirgi davrda ko'p uchramoqda bu organizmning immunologik tizimi bilan bog'liq. Allergik asoratlari sonini oshishi turli xil dorilarni keng qo'llanilishi bilan bog'liq.

Dorilarga allergik reaksiyalar 71,5% holatlarda kuzatiladi. SHOK 5,5% holarda, letal oqibat esa 0,45% hollarda kuzatiladi.

Anafilaktik shok:

- antibiotiklar

- sulfanilamidlar

- vitaminlar

- rentgenkontrast moddalar qabul qilinganda bolalarda antibiotiklar, qon preparatlari, vaksinalar, zardoblar, gammaglobulin qabul qilinganda rivojlanadi.

Anafilaktik shok va boshqa allergik reaksiyalar rivojlanishida allergik konstitutsiya va irsiyat muhim ahamiyatga ega.

Xashoratlarning zahriga ham anafilaktik shok paydo bo'lishi aniqlangan. Insekt allergiya bilan xastalangan 300ta bemorni kuzatish natijasida anafilaktik shokni turli xilda namoyon bo'lishi kuzatilgan. Ovqat allergiyasiga anafilaktik shok ham kuzatiladi.

Sutni ko'tara olmaganda, beta-laktoglobulinga sensibilizatsiya ortadi.

Sovuq allergiyasida -anafilaktik shok sovuq suv havzalarida choʻmilganda tananing koʻp qismi sovuq qotganida kuzatiladi.

Anafilaktik shok spetsifik giposensibilizatsiya qilinganda va baʼzan allergologik tekshiruvlarda ham uchrashi mumkin.

Patogenezi:

Allergik shok rivojlanish jarayonida sistemali tez kechar allergik reaksiyalar muhim ahamiyat kasb etib, asosida reagin mexanizmi yotadi. Mediatorlar chiqishi natijasida tomirlar tonusi pasayadi va kollaps rivojlanadi. Mikrotsirkulyator tizimi tomirlarining oʻtkazuvchanligi oshishi hisobiga qonning suyuq qismi toʻqimalarga oʻtadi va qon quyushadi. Umumiy qon xajmi kamayadi. Odatda bemor shok holatidan shifokor yordamida, baʼzan mustaqil ham chiqishi mumkin. Yurak ikkilamchi zararlanadi. Gomeostatik mexanizmlar etishmovchiligi jarayonni rivojlanib ketishiga sabab boʻladi, jarayonga toʻqimalarda gipoksiya bilan bogʻliq moddalar almashinuvining buzilishi qoʻshiladi, shokning qaytmas oʻzgarishlar bosqichi boshlanadi.

Anafilaktik shok patogenezida biologik aktiv moddalar (gistamin, atsetilxolin, bradikinin va hokazolar) asosiy oʻrinni egallaydi.

Klassik anafilaktik shokda bir qator oʻzgarishlar kuzatiladi.

1. Lipolitik va proteolitik jarayonlarning buzilishi
2. Plazminogen va plazmin sistemasini buzilishi
3. Hujayra va membranalarning fermentativ aktivligini oʻzgarishi
4. Kinin sistemasidagi oʻzgarishlar va hokazolar.

Klinikasi. Sensibilizatsiyalangan organizmga spetsifik allergen tushgan zahoti reaksiya rivojlanadi:

- holsizlik
- koʻngil aynish
- kurak orti ogʻrigʻi
- hansirash
- oʻlimdan qurquv hissi
- qizish hissi
- sovuq ter chiqishi

Bir necha daqiqa mobaynida yuqoridagi holatlar kuchayib, bemor xushidan ketadi, tibbiy yordam berishga ulgurmaslik natijasida hatto oʻlim xavfi ham tugʻilishi mumkin.

Anafilaktik shok kechishining bir necha turlari tafovut qilinadi.

I. Gemodinamik turida:

- yurak qon-tomir tizimining faoliyati buzilishi
- yurak sohasida ogʻriq

- Arterial bosimni tushishi
- oqarish yoki giperemiya
- aritmiya

Bu holatlar ba'zan yurakning ishemik kasalligiga yoki infarktga sabab mumkin.

2. Serebral turida:

- markaziu nerv tizimining buzilishi (o'limdan qo'rqish)
- talvasa
- nafas aritmiyasi
- miya shishi simptomlari
- nafas to'xtashi va yurak faoliyatining buzilishi
- meningial simptomlar va hushdan ketish

3. Asfiksiya varianti:

- halqum shishi
- o'pka shishi
- bronxospazm

4. Abdominal turida:

- ko'ngil aynash
- qusish
- epigastral sohada og'riq (o'tkir qorin)
- ichak tutilishi
- defekatsiya paytida qon ketish
- qindan qon ketish

Anafilaktik shokda birinchi yordam ko'rsatish texnikasi

Anafilaksiyani davolash shokga qarshi qat'iy choralar, intensiv terapiya va bemorning shokdan chiqarish davridagi terapiyani o'z ichiga oladi.

Anafilaktik shokka qarshi chora-tadbirlar anafilaksiya rivojlangan joyida amalga oshiriladi va chora-tadbirlar bilish har qanday mutaxassis shifokorlar uchun majburiydir.

Ular quyidagicha:

1. Bemorni yotqizish va bosh tushirish. Bemorning boshini bir tomonga burash, protezlarni olib tashlash va tilni tortib ketmaslik uchun mahkamlash.

2. Antigen (dori, hasharotlar zahari) kiradigan joyning proksimal qismiga venoz jgutni (25-30 daqiqa davomida) qo'yish. 0,1% adrenalin eritmasi bilan qilish, hashorat chaqqan bo'lsa ignasini olib tashlash (hasharotlar chaqishi uchun) va muz qo'yish.

3. Adrenalinning 0,1%li eritmasini 0,3-0,5 ml miqdorida boshqa a'zoga (teri ostiga yoki mushak ichiga) yuborish. Uning takroriy in'ektsiyalari 5–15 daqiqadan so'ng amalga oshiriladi (maksimal umumiy doz – 2,0 ml). Shuni esda tutish kerakki, preparatning kichik dozalarini takroriy qo'llash katta dozani bir marta ishlatishdan ko'ra samaraliroqdir. Hech qanday ta'sir bo'lmasa, natriy xlor bilan 10 marta suyultirilgan adrenalin (0,1%) tomir ichiga yuboriladi.
4. Glyukokortikoidlarni tomir ichiga yoki mushak ichiga yuborish (prednizolon 90–120 mg, gidrokortizon gemisuksinat 200-400 mg, seleston 8–16 mg, deksametazon 8–16 mg).
5. Shokning og'irligiga qarab, klassik antigistaminlarni tomir ichiga yoki mushak ichiga yuborish (suprastin 2% – 1,0-2,0 va boshqalar) amalga oshiriladi. Fenotiazin hosilalarini (pipolfen, diprazin va boshqalar) qo'llash tavsiya etilmaydi, chunki ularning anti-adrenergik blokirovkalash faolligi tufayli gipotenziya rivojlanishi mumkin. Antigistaminlarni tayinlash allergiyaning teri ko'rinishlarini bartaraf etishi mumkin.
6. Agar shok penitsillin in'ektsiyasidan kelib chiqsa, penitsillinaza yuboriladi (1 mln. tomir ichiga 2 ml fiziologik eritma).
7. Namlangan kislorodni ingalatsiya orqali yuborish (5–10 l/min).
8. Bronxospazm uchun fiziologik yoki glyukoza eritmasi bilan suyultirilgan aminofillin (2,4% 10 ml) tomir ichiga asta-sekin yuboriladi.
9. Agar laringeal shish uchun terapiyaning ta'siri bo'lmasa, traxeostomiya ko'rsatiladi.
10. Klinik o'lim holatida sun'iy nafas olish va bilvosita yurak massaji o'tkaziladi.

Yuqoridagi barcha choralar qon bosimi normallashtirguncha va bemorning ongi tiklanmaguncha imkon qadar tezroq amalga oshiriladi. Majburiy antishok terapiyasidan so'ng bemor intensiv terapiya bo'limiga o'tkaziladi.

1. SHokka qarshi o'tkaziladigan terapevtik tadbirlar. SHok rivojlangan joyda o'tkaziladi. Preparatlar muskullar ichiga yuboriladi, chunki venani topish uchun vaqt ketadi.

Agar anafilaktik shok venaga dorilar yuborilayotgan bir paytda rivojlansa ninani venadan olmasdan turib shokka qarshi tadbirlar qilinadi.

2. Anafilaktik shok chaqirgan dorilarni organizmga yuborishni to'xtatish kerak.

3. Bemorni yotqizib, pastki iyagini ko'tarish kerak, chunki tili orqaga ketib asfiksiya kelib chiqishi mumkin. Agar bemorda tish protezlari bo'lsa, ulami olib tashlash kerak.

4. Adrenalin 1ml-0,1%. Agar arterial bosim ko'tarilmasa 10-15 min. o'tgach yana 0,5 ml yuboriladi.

5. Prednizalon (tana vaznining 1 kgga 1-2 mg), 4-20 mg deksametazon yoki 100-300 mg gidrokortizon yuborish mumkin.

6. Pipolfen 2, 5% 2-4ml

II. Intensiv terapiya

1. Agar shokka qarshi tadbirlar samara bermasa, maxsus bo'lim sharoitida intensiv terapiya o'tkaziladi.

2. Vena punksiya, vena seksiya qilinib dorilarni venaga yuboriladi.

3. Qon tomirlar tonusi kamayganda tomchi holatda 0,2% noradrenalin 1ml yoki 1ml 0, 1% adrenalin yoki 1-2 ml mezaton yuboriladi.

4. Dori anafilaktik shokning asfiksiya variantida bronxolitik preparatlar yuboriladi 10ml 2, 4% eufillin, 5ml 10% neofillin, 2ml -0, 5% izadrin, 1-2 ml 0, 05% alupent.

5. Gormonal preparatlar prednizalon 1-5 mg/kg, deksametazon 15-20 mg/kg, gidrokortizon 125-500 mg.

6. Antigistamin preparatlar (dimedrol 1ml yoki suprastin 2ml, pipolfen 2,5/ 5-6 m/l)

III. Reanimatsion tadbirlar

1. Yurakning yopiq massaji.

2. Sun'iy nafas oldirish (og'iz orqali), (62-rasm).



62-rasm. Sun'iy nafas oldirish

3. Intubatsiya yoki traxeostomiya.

4. O'tkir asfiksiyada sun'iy ventilyasiya qilinadi..

5. Markaziy venalardan birini infuzion terapiya qilish uchun kateterizatsiya qilinadi.

6. Yurak yopiq massajida har 5 minutda 4% natriy gidrokarbonat (2-2mg/kg).

7. Yurak faoliyati to'xtab qolganda yurak ichiga adrenalin yuboriladi.

8. Epileptik statusda (agar arterial bosim normada bo'lsa) 1-2ml 2,5% aminazin yoki 2-4 ml 0,5% seduksen yuboriladi.

9. Reanimatsion tadbirlar maxsus brigada shifokorlari yoki maxsus tayyorlov kursini o'tgan shifokor tomonidan o'tkaziladi.

Anafilaktik shok uchun harakatlar algoritmi

Birinchi, siz allergenning tanaga kirishini butunlay to'xtatishingiz kerak.

Dorilardan anafilaksiya yoki hasharotlar chaqishi natijasida bo'lsa, allergen kirib boradigan joyga adrenalin yuboriladi va muz qo'yiladi. Bu zararli moddaning so'rilish tezligini pasaytiradi.

Shundan so'ng, ular darhol tomir ichiga yuboriladi:

- adrenalin (tomchi);
- dopamin (tomchi);
- infuzion eritmalar;
- glyukokortikoid dorilar;
- kaltsiy xlorid;
- antigistaminlar – klemastin, difenhidramin va boshqalar. (mushak ichiga yuboriladi).

Shokka qarshi maxsus chora-tadbirlar yordamida shoshilinch yordam faqat tibbiyot xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Anafilaktik shokning kech oqibatlariga quyidagilar kiradi:

- Allergik miokardit;
- Nevrit;
- Glomerulonefrit;
- Vestibulopatiya;
- Gepatit.

Bu patologiyalarning barchasi bemorning o'limiga olib kelishi mumkin.

Anafilaktik shokning birlamchi va ikkilamchi profilaktikasini ajratish.

Boshlang'ich tarkibiga quyidagilar kiradi:

- Allergen bilan aloqa qilishning oldini olish;
- Tamaki chekish, giyohvandlikni bartaraf etish;
- Atrof muhitning kimyoviy moddalar bilan ifloslanishiga qarshi kurash;

- Oziq -ovqat sanoatida bir qator oziq -ovqat qo'shimchalarini ishlatishni taqiqlash;
- Bir vaqtning o'zida bir nechta farmakologik guruhlarining dori-darmonlarisiz bemorlarga retsept berishning oldini
- Shokning erta tashxisi va o'z vaqtida davolashi ikkilamchi profilaktika yordamida osoolish.nlashadi:
- Ekzema, pichan isitmasi, atopik dermatitni o'z vaqtida davolash;
- Allergenni aniqlash uchun allergik testlar o'tkazish;
- Allergik anamnezni to'liq yig'ish;
- Dori yuborishdan oldin sezuvchanlik testlari o'tkazish;
- Tibbiyot xodimlari bemorni in'ektsiyadan keyin yarim soat davomida kuzatishi.

Uchinchi darajali profilaktikani ham kuzatish kerak, bu anafilaktik shokning qaytalanish ehtimolini kamaytiradi:

- Shaxsiy gigiena qoidalariga doimiy rioya qilish zarur;
- Chang, hayvonlarning tuklaridan saqlanish;
- Xonalarni shamollatish; binolarni tez -teznam tozalash talab qilinadi;
- Yumshoq o'yinchoqlar, gilamlar, matoli pardalarni yashash joyidan olib tashlash;
- Qabul qilingan oziq -ovqat tarkibini doimiy ravishda kuzatib borish kerak;
- Gullash davrida niqob va ko'zoynak taqish kerak.

Profilaktika

Dori vositalaridan kelib chiqqan anafilaktik shokning oldini olish choralarini uch guruhga bo'lish mumkin.

1. Ommaviy. 2. Umumiy tibbiy. 3. Individual.

Ommaviy tadbirlarga quyidagilar kiradi: 1. Dori vositalari va immunizatsiya preparatlarini (vaksinalar, zardoblar, g-globulinlar va boshqalar) ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish.

2. Atrof-muhitni kimyo va farmatsevtika sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan ifloslanishiga qarshi kurash.

3. Dori qo'shimchalarini oziq-ovqat mahsulotlari (penitsillin, atsetilsalitsil kislotasi), vaksinalar (kanamisin, gentamitsin) va qon mahsulotlari (xloramfenikol) tarkibida konservant sifatida qo'llashni qat'iy tartibga solish yoki taqiqlash.

4. Dorixonalardan antibiotiklarni faqat shifokor ko'rsatmasi bo'yicha chiqarish.

5. Aholini va tibbiyot hamjamiyatini dori vositalariga salbiy reaktsiyalar, shu jumladan allergik reaktsiyalar haqida xabardor qilish.

Shokning umumiy tibbiy profilaktikasi quyidagi tadbirlardan iborat:

Shokning umumiy tibbiy profilaktikasi quyidagi tadbirlardan iborat.

1. Bemorlarga dori vositalarining tavsiyasini asosli retsepti.
2. Polifarmatiyaga qarshi kurashish, ya'ni bemorga bir vaqtning o'zida ko'p miqdorda dori-darmonlarni buyurish. Bunday holda, ularning ta'sirining kuchayishi va terapevtik dozalarni toksik dozalariga aylantirish mumkin.
3. Teri va uning ortiqlarining zambrug kasalliklarini o'z vaqtida tashxislash va davolash, ayniqsa penitsillinga allergiya uchun xavf guruhini tashkil etadigan bemorlar uchun.
4. Kasallik tarixining muqova sahifasida yoki ambulator kartada allergiya beradigan dori-darmonlarni qizil siyoh bilan belgilab qo'yish.
5. In'ektsiya uchun faqat bir martalik shprints va ignalardan foydalanish.
6. In'ektsiyadan keyin bemorlarni kamida 30 daqiqa kuzatib borish.
7. Har bir davolash xonasini shokka qarshi to'plam bilan ta'minlash. U quyidagi dori vositalari va asboblarni o'z ichiga oladi:
 - 1) ampulalarda adrenalina (0,1%) (№10);
 - 2) ampulalarda norepinefrin (0,2%) (№ 5);
 - 3) suprastin (2%) ampulalarda (№10);
 - 4) ampulalarda prednizolon (30 mg) (№ 10);
 - 5) deksametazon (4 mg) ampulalarda (№ 10);
 - 6) 100 mg ampulalarda gidrokortizon gemisuksinat (solucortef) (vena ichiga yuborish uchun № 10);
 - 7) ampulalarda aminofilin (2,4%) (№10);
 - 8) ampulalarda strofantin (0,025%) (№5);
 - 9) ampulalarda 40% glyukoza eritmasi (№ 20), ampulalarda natriy xlorid (0,85%) (№ 20);
 - 10) glyukoza eritmasi 5% –100 ml (№2 shishalarda);
 - 11) penitsillinaza 1 million dona. ampulalarda (№ 3);
 - 12) etil spirti 70°–100 ml;
 - 13) bir martalik shprints (1, 2, 5, 10, 20 ml) va ular uchun ignalar;
 - 14) tomir ichiga infuziyalar uchun bir martalik tizimlar (№ 2);
 - 15) rezina turniket;
 - 16) og'izni kengaytiruvchi vosita (1 dona);
 - 17) til ushlagichi (1 dona);
 - 18) og'izdan og'izga nafas olish uchun havo kanali;
 - 19) kislorod yostig'i (1 dona);
 - 20) skalpel (2 dona);
 - 21) elektr yoki mexanik assimilyatsiya moslamasi.

Dori allergiyasining individual profilaktikasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Allergiya tarixini diqqat bilan yig'ish. Bemor bilan suhbat chog'ida quyidagi holatlarga e'tibor qaratish lozim:

a) bemor va uning yaqinlari allergik kasalliklarga chalinganmi;

b) bemor ilgari buyurilgan dori vositasini olganmi; v) bemor uzoq va ko'p vaqt davomida qanday dorilar bilan davolangan;

d) dori-darmonlarni qabul qilgandan keyin allergik reaksiyalar kuzatilganmi. Antibiotiklar, sulfanilamidlar, analjeziklar, lokal anesteziklar, yod preparatlari va qon o'rnini bosuvchi vositalarni buyurishda nojo'ya reaksiyalar aniqlanishi kerak;

e) bemorda hayotida birinchi marta penitsillin preparatlarini qo'llashda allergik reaksiyalar xavfini oshiradigan teri va uning ortiqlarida zanbrug kasalliklari bormi;

f) giyohvand moddalar bilan kasbiy aloqa mavjudligi. Qoida tariqasida, bu farmatsevtika korxonalarini, omborlar, dorixonalar va tibbiyot muassasalari ishchilarida uchraydi;

g) bemorda epidermal sensibilizatsiya belgilari bormi.

• **Shokka qarshi to'plam**

- Dori vositalari va asboblarning ro'yxati.
- 1) ampulalarda adrenalin (0,1%) (№10);
- 2) ampulalarda norepinefrin (0,2%) (№ 5);
- 3) suprastin (2%) ampulalarda (№10);
- 4) ampulalarda prednizolon (30 mg) (№ 10);
- 5) deksametazon (4 mg) ampulalarda (№ 10);
- 6) ampulalarda gidrokortizon gemisuksinat (solucortef) 100 mg (vena ichiga yuborish uchun № 10);
- 7) ampulalarda aminofilin (2,4%) (№10);
- 8) strofantin (0,025%) ampulalarda (№5);
- 9) glyukoza eritmasi 40% ampulalarda (№20), ampulalarda natriy xlorid (0,85%) (№20);
- 10) glyukoza eritmasi 5 % — 100 ml (2-sonli shishalarda);
- 11) penitsillinaza 1 million dona. ampulalarda (№ 3);
- 12) etil spirti 70° – 100 ml;
- 13) bir martalik shpritslar (1, 2, 5, 10, 20 ml) va ular uchun ignalar;
- 14) tomir ichiga infuziyalar uchun bir martalik tizimlar (№ 2);
- 15) rezina turniket;
- 16) og'izni kengaytiruvchi (1 dona);
- 17) til ushlagichi (1 dona);

- 18) og'izdan og'izga nafas olish uchun havо kanali;
- 19) kislorod yostig'i (1 dona);
- 20) skalpel (2 dona);
- 21) elektr yoki mexanik assimilyatsiya moslamasi.

Nazorat savollari

1. Anafilaktik shok ta'rifini ayting?
2. Anafilaktik shok darajalarini ayting?
3. Anafilaktik shok patogenezi haqida nimalarni o'rgandingiz?
4. Anafilaktik shokning klinik belgilari haqida tushuncha bering?
5. Anafilaktik shokning asoratlari qaysilar?
6. Anafilaktik shokda birinchi yordam haqida tushuncha bering?
7. Anafilaktik shokni tashxislash va davolash haqida tushuncha bering?
8. Anafilaktik shokni profilaktikasini ayting.

VII BOB

7.1. Dori allergiyasi etiologiyasi, patogenezi, klinika, in vivo va in vitro tekshiruv usullari, davolash prinsiplari

Ta'rif. Dori allergiyasi (DA) – dori vositalari ta'siriga ikkilamchi yuqori darajadagi spetsifik immun reaksiya bo'lib, umumiy yoki mahalliy klinik belgilar bilan kuzatiladi.

Nojo'ya dori reaksiyasi oldindan aytib beriladigan 75% va 7–10% aytib berilmaydigan turlarga bo'linadi.

1) Oldindan aytib beriladigan reaksiyalar ma'lum farmakodinamik mexanizmlar bilan kechadi, dozaga qaram va moyilligi bo'lmagan shaxslarda rivojlanadi. Masalan, dozani oshirish, preparatning ikkilamchi ta'siri, ikki va undan ortiq dori vositalarining o'zaro ta'siri natijasidagi reaksiya.

2) Oldindan aytib berilmaydigan reaksiyalar ko'pincha moyillik shaxslarda vujudga keladi. Preparatning farmakologik ta'siri bilan mos kelmaydi va ko'pincha dozaga bog'liq emas. Mazkur reaksiyaning yuzaga kelishi uch turda bo'ladi:

a) Ko'taraolmaslik – terapevtik dozada nojo'ya reaksiya qatoriga kiradi (masalan, qusish – teofillinning kichik dozasi javob);

b) Ideosinkraziya – preparatning ma'lum farmakologik ta'siri bilan bog'liq bo'lmagan holda, unga oldindan aytib berilmaydigan notipik javob. Ideosinkraziya reaksiyasi nasliy asosda shakllanishi mumkin.

c) O'tasezuvchanlik – atipik javobga olib keluvchi immun reaksiya natijasida sodir bo'ladi. Bu holatning kutiladigan farmakologik ta'sirga aloqasi yo'q (masalan, penitsillin bilan chaqiriladigan Eshakyem).

Tarqalishi. Taraqqiy qilgan mamlakatlarda 15-35% aholi allergik kasallik bilan kasallanadi. Allergik kasallikning ko'payishi birqancha omillarga bog'liq: ekologik notinchlik, sotsial va oilaviy stress, noxush xayot sharoiti, ovqatlanishning buzilishi, salbiy odatlarning tarqalishi va x.k. Allergik kasalliklar orasida dori allergiyasi muhim o'rinni egallaydi. Dori allergiyasidan oldin doimo sensibilizatsiya davri vujudga keladi, bunda organizmning immun tizimi bilan dorining birinchi bog'lanishi kuzatiladi. Dori allergiya reaksiyasi faqat dorilarni qayta yuborganda rivojlanadi va 8–12% bemorlarda kuzatiladi. Yevropa mamlakatlarida DA erkaklarga nisbatan ayollarda ko'proq uchraydi.

Etiologiyasi. Xar bir dori vositalari organizmda ko'p o'zgarishlarga uchraydi: u parchalanadi, hosil bo'lgan xarbir metabolitga organizmda antitana ishlab chiqarilishi mumkin. Vaktsinalar, zardoblar, yot

immunoglobulinlar, oqsil tabiatiga ega bo'lgan modda sifatida – allergen hisoblanadi (organizmda antitanalar hosil bo'lishini chaqiradi) va ular bilan reaksiyaga kirishadi. Natijada dori allergiyasi asosini tashkil qiladigan antitana paydo bo'ladi va antigen takroran tushganda antigen antitana yig'indisi, birikmasi (kompleksi) yuzaga keladi. Allergik reaksiyalarni hamma preparatlar, shu xisobidan anti-allergik vositalar va glyukokortikoidlar ham chaqirishi mumkin. Past molekulyarli moddalarning allergik reaksiya chaqirish qobiliyati ularning kimyoviy tuzilishiga va dori vositalarning yuborish yo'liga bog'liq. Dori per os (ichishga) berilganda allergik reaksiya rivojlanishi past, mushak orasiga va ayniqsa vena ichiga yuborilganda xavf yuqori bo'lishi mumkin. Dori allergiyasiga xatar tug'diruvchi omillar: dori vositalari bilan kontaktda bo'lish (dori vositalariga sensibilizatsiya bo'lishi ko'pincha tabobat va dorixona xizmatchilarida), dorilarni uzoq vaqt va tez-tez qo'llash, polipragmaziya. Bundan tashqari dori allergiyasiga xatar nasliy zaif, teri zamburug'lari kasalligi, allergik kasalliklar (pollinoz, bronx astmasi va x.k.) va ovqat allergiyasi mavjudligida kuzatiladi.

Dorilarning nojo'ya ta'sir mexanizmlari har xil bo'lishi mumkin.

1) Toksik (zaxarli) reaksiyalar

a) Dori vositalarining yuqori miqdori (baland dozasi). Bu ko'pincha terapevtik amaliyotda uchraydi. Zaharlanish belgilari dorining bevosita farmakologik xususiyatlari bilan bog'liq – antikoagulyantlarning yuqori miqdorida qon ketishi, verapamilning yuqori miqdorda AV blokadasi (qamali) rivojlanishi vujudga keladi.

b) Terapevtik dozada toksik reaksiya sodir bo'lishi dorilar modda almashinuvining irsiy sekinlashi bilan bog'liq. Bunday bemorlarda zaharlanishning klinik ko'rinishi har xil va allergiyaga qabul qilinib, teri toshmasi bilan ifodalanishi mumkin.

v) Jigar va buyrakning funktsional yetishmovchiligi (zaharli moddalarning mavjud bo'lishi, dori yoki uning parchalanish mahsulotlarining vujudga kelishi) bilan bog'liq toksik reaksiyalar.

g) Yatrogen sababli reaksiyalar (davolashda polipragmaziya, masalan, miokard infarktida bemor 3-5 tadan ortiq dori vositalarini qabul qiladi; varfarin va simetidinni bir vaqtda qabul qilganda qon ketishi).

d) Uzoq vaqtdan keyingi toksik ta'sirlar: teratogenli dori vositalarning homila rivojlanishiga ta'siri natijasida bolani nogiron tug'ilishi; kantserogenlik – xatarli o'smalarning vujudga keltiruvchi xususiyati; ototoksik – quloqqa zaharli ta'siri.

2) Maqbul (kutilgan) ta'sir – dori vositalarining farmakologik xususiyatiga bog'liq (tsitostatikdan leykopeniya, antigistaminlarning sedativ – tinchlantiruvchi ta'siri)

3) Paradoksal (qarama-qarshi) ta'sir, masalan, dimedrol qabulida qo'zgalish holati.

4) Superinfektsiyalar va disbakteriozlar (mediatorlar – gistamin, bradikinin va boshqalar) ko'plab ajraladilar.

5) Psixogen (ruhiy) reaksiyalar ko'pincha dorilarga bir marta reaksiya bo'lgan shaxslarda keyinchalik dorilarni "ko'taraolmaslik" rivojlanadi. Mazkur holat vegetativ kriz ko'rinishida ifodalanadi va bosh aylanishi hamda og'rishi, darmonsizlik, terlash belgilari bilan kuzatiladi.

6) Dorilarni noto'g'ri yuborishda mavjud bo'ladigan reaksiyalar, masalan, eufullinning tomir ichiga yuborganda ko'ngil aynishi, qusish va arteriya bosimining pasayishi.

7) Enzimopatiya va soxta allergiyaga bog'liq odatdagidan tashqari reaksiyalar – rivojlanishida dori vositalarini semiz xujayralarga bevosita to'g'ri ta'siri va gistamin ajralishi muhim ahamiyatga ega.

Haqiqiy (chin) allergik reaksiyalardan tashqari soxta noimmun allergik reaksiyalar xam bo'lishi mumkin. Dorilarga bu turdagi reaksiyalar klinik ko'rinishidan farqlanmay, rivojlanish mexanizmi bo'yicha farqlanadilar. Soxta allergik reaksiyada quyidagilar bo'lishi mumkin:

a) dorini birinchi marta qabulidan so'ng mavjudligi;

b) har xil kimyoviy tuzilishdagi dorilarni, ba'zan platsebo qabuliga klinik belgilarni paydo bo'lish javobi;

v) dorini sekin yuborib anafilaktik reaksiya oldini olishi mumkin, chunki qonda dori miqdori jiddiy nuqtadan pastda qoladi va gistamin ajralishi sekin sodir bo'ladi.

Soxta allergik reaksiyaning bilvosita ko'rsatkichi bo'lib allergik anamnez hisoblanadi. Soxta allergik reaksiya rivojlanishga gipotalamik patologiya, qand diabeti, me'da-ichak va jigar kasalliklari va surunkali infeksiya (gaymorit, bronxit) qulay muhit hisoblanadi. Polipragmaziya, bemor tana vazniga va yoshiga mos kelmaydigan dozada dori vositalarini yuborish ham soxta allergik reaksiya rivojlanishini qo'zg'atadi.

8) Chin allergik reaksiyalar faqat antigen – antitana yoki antigen sensibilizatsiyalashgan limfotsit reaksiyasi natijasida mavjud, odatda oldindan aytib berilmaydi, dorining farmakologik ta'siri va dozasi (miqdori) bilan bog'liq emas.

Patogenezi. Soks 1930-yili allergik reaksiyalarni klinik belgilarining paydo bo'lish vaqtiga qarab 2 turga (tipga) bo'lgan:

tezlashgan tip (15-20 daqiqa) va sekinlashgan tip (1-2 sutka). Hozirgi vaqtda Gell va Coombs tasnifi tasdiqlangan (14-jadval).

14- jadval. Allergik reaksiyalar tipi (Gell, R. Coombs, 1975)

Tip	Reaksiyalar tipining nomi	Reaksiyaning immun mexanizmi
I	Anafilaktik	IgE va IgG antitana
II	Sitotoksik	IgE va IgM antitana
III	Artyus fenomeni- to'qimaning immun birikma bilan shikastlanishi	IgG va IgM antitana
IV	Susaytirilgan o'ta sezuvchanlik	sensibilizatsiyalashgan

Dori allergiyasi patogenezi asosida immunologik shikastlanishning hamma 4 tipi yotishi mumkin.

I- tip reaksiya IgE antitana bilan bog'langan va o'ta tezlashgan (dori yuborilagandan keyin bir necha soniyadan bir necha soatgacha) yoki tezlashgan reaksiya (rivojlanishi dori yuborilgandan keyin 1-72 soat oralig'ida) ko'rinishida ifodalanishi mumkin. Bunday reaksiyalarga anafilaktik shok, atopik bronxial astmasi, angionevrotik Kvinke shishi kiradi. Tezlashgan reaksiya – Eshakyem, dori isitmasi, laringospazm va gipotenziya rivojlanishi asosida yotadi.

II- tip reaksiya asosan IgG va IgM sitostatik antitanalar bilan bog'liq va gemolitik anemiya, agronulotsitoz va leykopeniya kabi gemolitik reaksiyalar rivojlanishga olib keladi.

III- tip reaksiya dori vositalaridan va IgG yoki IgM antitanalardan tashkil topgan immun birikmalar shakllanishi bilan bog'liq. Mazkur reaksiyalarga zardob kasalligi, allergik vaskulit, Artyus fenomeni kiradi.

IV- tip reaksiya T-limfotsitlar bilan bog'liq, sekinlashgan yoki kechki bo'ladi va dori yuborilgandan so'ng 48 soat va undan ortiq vaqt o'tgach rivojlanadi.

Dori vositalarining yon ta'sirini tasniflash

I. Toksik reaksiyalar:

1. Haddan tashqari doza tufayli;
Eshak emi kasalligi o'tkir va surunkali shakllarga ajratiladi. Eshak emining o'tkir shakli bir necha kun yoki bir-ikki hafta davom etadi. Surunkali shakli esa ko'plab oylar yoki hatto yillar davomida retsivlar bilan kechadi, u deyari har kuni toshma toshishi va turli davomiylikdagi toshmasiz kunlar bilan davom etishi mumkin.

«**Soxta eshak emi**» (sinonimlari: *soxta urtikariya, autografizm, urtikar dermografizm*) ham ajratiladi. Bunda terini ustidan biron nimani bosib o'tkazganda, masalan tirnoq bilan, uning ustida shishgan qavarchiqsimon chiziq paydo bo'lishi nazarda tutiladi. Oddiy eshak emi bilan og'rikan bemorlarda odatda shu kabi hodisalar tez-tez kuzatiladi.

Bundan tashqari, «**mastotsitoz**» deb nomlanadigan kam uchraydigan kasallik mavjud bo'lib, uning ba'zi shakllari ba'zan «**pigmentar urtikariya**» deb ataladi. Pigmentar urtikariyaning eshak emi bilan hech qanday aloqasi yo'q.

Eshak emi toshmasini davolash allergenni aniqlash va uni bartaraf qilishdan iborat. O'tkir eshakemiga nisbatan buni amalga oshirish odatda oson. Eshak emining surunkali kechishida chuqurroq tekshiruvlar o'tkazish, xususan kasallikning batafsil tarixi, qon, peshob va axlat tahlili, ba'zan esa rentgenologik tekshiruvlar ham kerak bo'ladi. Eshak emida sovuq kompresslar, qichishni kamaytiradigan losyonlar, antigistaminlar yordam beradi – bu kasallikni asosiy davolash usuli hisoblanadi. Jiddiy holatlarda ba'zida kortikosteroidlarga murojaat qilinadi. Agar shish

organizmning katta joylariga tarqalib, tananing shilliq qavatlarini ham qamrab olsa va hayot uchun xavf tug'dirsa, shoshilinch choralari – katta miqdorda faol steroidlar va adrenalin kiritishga to'g'ri keladi.

Klinik-patogenetik variantlarga ko'ra, eshak emining quyidagi turlari farqlanadi:

Jismoniy eshak emi

- **Dermografik eshak emi** – kasallik teri yuzasini bosish fonida paydo bo'ladi, qo'zg'atuvchi ta'siri bartaraf etilgach, bir necha soatda yo'qoladi;
- **Sovuqli eshak emi** – past harorat uzoq muddat ta'sir etganda 95% odamlarda paydo bo'ladi. Sovuq ta'sir etgan barcha teri qoplaminin gizarishi, shuningdek, qo'zg'atuvchi ta'siri o'tgach, terining qichishi bilan tavsiflanadi;
- **Vibratsion eshak emi** – teriga uzoq muddat vibratsiya ta'sir etganda yuzaga keladi. Ta'sir to'xtatilgach, tezda yo'qoladi.

Eshak emining maxsus shakllari

- **Xolinergik** – ruhiy va jismoniy tipdagi stressli vaziyatlarda (asabiylashish, sport bilan shug'ullanish) namoyon bo'ladi, terida ko'plab toshma toshishi va qichishish bilan tavsiflanadi;
- **Adrenergik** – xolinergik eshak emida bo'lgan kabi vaziyatlarda yuzaga keladi, faqat qizarish atrofida oq tasma mavjudligi bilan farqlanadi;
- **Kontaktli** – teri yuzasining ma'lum bir allergenlar bilan aloqa qilganida yuzaga keladi. Qo'zg'atuvchi ta'siri bartaraf etilganidan so'ng bir necha soatda o'tib ketadigan terining keskin qizarishi, eritrema va yaralar hosil bo'lishi bilan xarakterlanadi.
- **Akvagen** – juda noyob hisoblanadi. Terining suv bilan bevosita aloqa qilganida yuzaga keladi.

Eshak emining alomatlari.

Kasallikning og'irligi darajasiga qarab, eshak emining alomatlari turlicha bo'lishi mumkin. Ko'pincha kasallik teri qoplaminin gizarishi, gipertermiya va teri qichishi bilan tavsiflanadi. Qizarishlarga sezilari shishganlik, og'irroq darajalarda esa – qavarchiqlar hamrohlik qiladi. Ular teri yuzasida bir necha soatdan uch oygacha saqlanib turishi mumkin. Eshak emini boshqa teri kasalliklaridan ajratib turuvchi farqi – allergen bartaraf etilishidan yoki dori qabul qilishdan so'ng to'liq tiklanish xususiyatiga ega. Bolalarda eshak emi Kvinki shishi rivojlanishi mumkinligi bilan katta xavf tug'diradi.

Epidemiologiya

Allergik eshak emi – juda keng tarqalgan kasallik. Taxminan har uchinchi shaxs kamida bir marta hayot davomida eshak emini boshdan kechiradi. Eng ko‘pincha ushbu kasallik 20-60 yoshli ayollarda kuzatiladi, bu ularning neyroendokrin tizimi xususiyatlariga bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Eshak emida toshma toshishi sabablari

Eshakemi kasalligi rivojlanishidagi yetakchi mexanizm – bu reagin shikastlanish mexanizmi. Allergen sifatida dori-darmonlar (antibiotiklar, rentgen-kontrast moddalar va boshqalar), zardoblar, gamma-globulinlar, bakterial polisaxaridlar, oziq-ovqat mahsulotlari, insekt allergenlar ko‘p uchraydi. Shikastlanishning ikkinchi turi qon quyishda yuzaga kelishi mumkin. Immunokompleks mexanizmi bir qator dori vositalari, antitoksik zardoblar va gamma-globulin kiritilganda faollashishi mumkin.

Psevdoallergik eshak emi, gistamin liberatorlari, komplement tizimi aktivatorlari va kallokrein-kinin tizim aktivatorlari ta‘sirining oqibati hisoblanadi.

Tizimli kuzatuvlar natijasiga muvofiq, parazitlar surunkali eshak emining juda kam tarqalgan sababchisidir. Tadqiqot mualliflari infektsiya laboratoriya va anamnestik tekshiruvlar natijasida tasdiq topmagan hollarda surunkali eshak emi bo‘lgan bemorlarda sinovli antiparazitar davolashga qarshi chiqishmoqda (65-rasm).



**65-rasm. Eshak yemida har xil toshmalar
Patogenez**

Eshak yemi rivojlanishiga sabab bo'ladigan asosiy vositachi, mastositlarda hosil bo'ladigan va to'planadigan gistamin moddasidir.

Mastositlarning degranulyatsiyasi va gistaminining atrof to'qimalarga va qonga chiqarilishi ham immun, ham noimmun mexanizmlar (shu jumladan jismoniy va kimyoviy) tomonidan chaqirilishi mumkin.

Eshak emining barcha klinik turlari uchun umumiy patogenetik zanjir mikrosirkulaytor oqim tomirlarning o'tkazuvchanligi oshishi va ushbu tomirlar atrofida shishning faol rivojlanishi hisoblanadi.

Eshak emi kasalligini tashhislash

Kasallikni aniq tashhislash uchun quyidagi tablillar va tekshiruvlar talab etilishi mumkin:

Anamnez va shikoyatlarni yig'ish:

Toshmalar sababi, keltirib chiqaruvchi omili, chastotasi, joylashuvi, yo'qolishi va qaytalanishi vaqti aniqlanadi;

Eshak emi yaqin qaindoshlarda mavjudligi so'raladi.

Umumiy ko'rik;

Jarayonni tarqalganlik darajasi aniqlanadi;

Toshmalar ko'rib baholanadi: o'lchami, rangi, atrofida shish bor-yo'qligi;

Umumiy belgilarni rivojlanganlik darajasi baholanadi;

Allergologik tekshirish: allergenga sinama qo'yish (allergiya manbasini aniqlanganda qilinadi); issiq va sovuqqa provakatsion testlar, teriga qo'yiladigan testlar: prik-test («ukol test»), skarifikatsion yoki applikatsion teri usti testlari (patch-test), teri ichi testlari orkaziladi..

Eshak emi ko'p hollarda ikkilamchi xarakterga ega bo'lgani uchun bir qator laborator va funksional tekshiruvlar o'tkaziladi.

Asosiy laborator tekshiruvlar:

umumiy qon tahlili;

bioximik qon tahlili;

umumiy siydik tahlili;

qonni virusli gepatitga tekshirish (gepatit B va gepatit C);

qonni umumiy immunoglobulin IgE va spetsifik IgE allergenlariga tekshirish;

parazitlarga tekshirish: (ahlat taxlili, serologik va molekulyar tekshiruvlar).

Asosiy instrumental tekshiruvlar:

ichki a'zolarni ultratovushli tekshirish (UZI) (66-rasm).



**66-rasm. Ultratovushli tekshirish
fibrogastroduodenoskopiya (FGDS);
elektrokardiogramma (EKG) (67-rasm).**



67-rasm. Elektrokardiogramma

ko'krak qafasini rentgenologik tekshirish.

Boshqa mutaxassislar maslahati:

Revmatolog ko'rigi – toshma sababi kollagenozlar (ko'chuvchi to'qimalar va qon tomirlar kasalliklari) bo'lsa;

Gastroenterolog ko'rigi – allergiya sababi oziq-ovqatlar bo'lsa;

Allergolog immunolog ko'rigi;

Eshak emi davolash

Allergik toshmalarni davolash turlari:

simptomatik (kasallik belgisi davolanadi),

etiotrop (kasallik sababchisi davolanadi)

patogenetik (kasallikni chaqirishi mumkin bo'lgan agentga qarshi davolash o'tkaziladi).

Kasallik sababini yo'qotish (ovqat ratsionidan aromatizatorlar, bo'yoqlar va boshqa ozuqa qo'shimchalari olib tashlanadi).

Keltirib chiqaruvchi omillar to'xtatiladi (ma'lum oziq maxsulotlari, idish yuvishda ishlatiladigan ximiyaviy vositalar).

Antigistamin preparatlar (tabletkalar, eritma, malham yoki gel ko'rinishida).

Gormonal preparatlar (glyukokortikosteroidlar) antigistaminlar yordam bermaganda va kasallik og'ir kechib asoratlanganda.

Immunomodulyatorlar va immunosupressiv dorilar (siklosporin, metotreksat, takrolimus).

Eshak emi profilaktikasi

Krapivnitsani sababi aniqlanmaganda quyidagi profilaktik choralar ko'riladi:

Dori vositalari ta'qiqlanadi (og'riq qoldiruvchilar, nosteroid yalig'lanishga qarshi dorilar, antibiotiklar vaksinalar);

Stress holatlaridan qochiladi;

Zararli odatlari yo'qotiladi (chekish, alkogol);

Qizib ketish oldi olinadi (sauna va xammomlarga bormaslik);

Intensiv jismoniy zo'riqishdan cheklanish;

Oziq allergenlari kam parxez ovqatlar;

Turli xil xayvonlar bilan kontaktda bo'lmaslik;

Gipoallergen yostiqlar maxsus noallergik kosmetik vositalar tanlanadi;

Surunkali kasalliklar davolanadi.

Eshak emini davolash

Eshak emiga chalingan insonlar uchun terapiyaning asosi bemorni triggerlardan qochish va antigistaminlarni o'z vaqtida qabul qilishni o'rgatish hisoblanadi. Eshak emi – infeksiyon emas, balki allergik kasallikdir, ya'ni u bir kishidan boshqa kishiga yuqmaydi.

Davolash qiyin bo'lgan surunkali eshak emi mehnat qobiliyatining sezilarli darajada yo'qotilishiga olib kelishi mumkin. O'tkir shakldan farqli o'laroq, surunkali eshak emi bilan kasallangan bemorlarda 50-80% hollarda aniq triggerlarni aniqlab bo'lmaydi. Surunkali eshak emi bilan kasallangan kishilarning 50% 1-yil davomida remissiya davrida hisoblanadi. Umuman olganda, davolash simptomatik bo'ladi. Surunkali eshak emidan aziyat chekuvchi odamlar kasallik alomatlarini nazorat qilish uchun antigistaminlardan tashqari qo'shimcha ravishda boshqa preparatlarga ham ehtiyoj sezishlari mumkin. Eshak emi kasalligi Kvinki shishi bilan kechadigan bemorlarga tezkor yordam bilan vena ichiga epinefrin (adrenalin), prenizolon (Medopred) kiritish va kislorod ingalyatsiyasi kerak bo'ladi. Surunkali eshak emi davosi bo'yicha tavsiyalar allergolog va dermatologlarning professional guruhlari tomonidan nashr etilgan. 2014-yil holatiga ko'rsa, kasallikni davolashning amerika amaliyoti bosqichma-bosqich yondashuvni o'z ichiga oladi:

1-bosqich. Ikkinchi avlod H_1 -gistaminoblokatorlardan iborat. Tizimli glyukokortikosteroidlar kasallikning og'ir epizodlarida qo'llanilishi ham mumkin, ammo ular nojo'ya ta'sirlari tufayli uzoq vaqt qo'llanilmasligi kerak.

2-bosqich. Antigistaminlar dozasini oshirish, boshqa antigistaminlarni qo'shish yoki leykotrien retseptorlari antagonistini (montelukast) qo'shishdan iborat.

3-bosqich. Mazkur terapiyaga gidroksizin (Ataraks) yoki doksepin (Sinekan) qo'shish yoki ulan bilan o'rnini almashtirishdan iborat. Agar bemor 1-3-bosqichga samarali davo bermasa, unda refrakter simptomlar mavjud deb hisoblanadi. Bunday holda yallig'lanishga qarshi preparatlar (dapson, sulfasalazin) va immunosupresantlar (siklosporin, sirolimus, omalizumab) ishlatilishi mumkin. Ushbu variantlar quyida batafsilroq yoritiladi.

Antigistaminlar

Gistaminning H_1 -retseptorlarini bloklaydigan antigistaminlar terapiyaning birinchi qatoridir. Difengidramin (dimedrol) yoki gidroksizin (Ataraks) kabi birinchi avlod antigistaminlar ham markaziy, ham periferik H_1 retseptorlarini bloklaydi, shuning uchun ular juda sedativ bo'lishi mumkin. Loratadin (Klaritin), tetirizin (Zirtek) yoki dezloratadin (Klarineks) kabi ikkinchi avlod antigistaminlar faqatgina periferik H_1 retseptorlarini bloklaydi va shuning uchun kamroq antixolinergik va sedativ hisoblanadi va odatda birinchi avlod antigistaminlardan afzalroqdir. Maksimal terapevtik ta'sirni olish uchun antigistaminlarni faqatgina kasallikning xuruji vaqtida emas, balki doimiy ravishda qabul qilish muhim. H_1 -antigistaminlarning maksimal dozasiga reaksiya bermaydigan bemorlar H_2 -antigistaminlarni olishi mumkin. Biroq, uning barcha kombinatsiyalari ham foydali emas. Tadqiqotlar natijasida simetidinning bilan gidroksizinning kombinatsiyalari eng yaxshi natija ko'rsatdi, ammo tetirizin va simetidinning kombinatsiyasi natijasi qoniqarsiz deb topildi.

Tizimli steroidlar

Oral (ya'ni og'iz orqali qabul qilinadigan) glyukortikoidlar surunkali eshak emi alomatlari bilan kurashishda samarali hisoblanadi, biroq ular keng ko'lamli nojo'ya ta'sirlarga ega, jumladan buyrak usti bezi funksiyasining ingibitsiyasi, tana massasining ortishi, osteoporoz, giperglikemiya. Shu sababli, ularning qo'llanilishi bir necha hafta bilan cheklangan bo'lishi kerak. Bundan tashqari, tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, tizimli glyukokortikoidlar antigistaminlar bilan birgalikda faqat

antigistaminlardan foydalanish bilan solishtirganda simptomlarni kamroq yengillashtiradi.

Leykotrien retseptorlari antagonistlari

Leykotrienlar mastositlardan gistamin bilan birga chiqariladi. Montelukast (Singulyar, Montelar) va zafirlukast (Akolat) kabi preparatlar leykotrien retseptorlarini bloklaydi va terapiya uchun qo'shimcha sifatida yoki eshak emi bilan og'rikan bemorlarda alohida usul sifatida ishlatilishi mumkin. Shuni ta'kidlash joizki, bu preparatlar nosteroid yallig'lanishga qarshi preparatlar qabuli tomonidan chaqirilgan eshak emini davolashda boshqa vositalarga nisbatan foydaliroq bo'lishi mumkin.

Atopik dermatit

Atopik dermatit teri va uning shakllari yer yuzida keng tarqalgan. Lekin uning nechog'lik keng tarqalganligini aniqlash juda murakkab. Chunki dermatit tashxisini qo'yishda aniq standartlar va hamjihatlik hujatlari ishlab chiqilmagan. Xozirgi vaqtda atopik dermatit kech go'daklik va erta bolalik davrining kasalligi sifatida qabul qilinadi va yer yuzining turli mamlakatlarida bolalarning 10%dan 40%igacha undan aziyat chekadi. Atopik dermatit yoshlar orasida (25 yoshgacha bo'lgan davr) tarqalgan kasalliklar ichida sakkizinchi o'rinni egallaydi. Erta bolalik davrida kasallikka muhtalo bo'lganlarning 40%-60% katta bo'lgandan keyin ham uning mavjud bo'lishi xamda persistik ravishda davom etishi ehtimoli juda yuqori. Hamma allergik kasalliklar singari atopik dermatit xam yer yuzida keyingi 40-yil ichida avj olib bormoqda. Inson tanasi tashki qoplamasida turli ko'rinishlarda namoyon bo'lib hayot sifatiga salbiy ko'rsatadigan bu kasallik uning asab tizimini va ruhiy holatini xam shikastlaydi. Shu bilan birga atopik dermatit boshqa turdagi atopik kasalliklar, xususan astmaning atopik shakli va allergik rinit kasalliklari uchun yo'nalish nuqtasi bo'lishi ham mumkin. Bunday holat atopik dermatitni tibbiyotda hal qilinishi zarur bo'lgan dolzarb masalalar qatoriga qo'yadi.

Atopik dermatitning tasnifi

Atopik dermatit terining surunkali yallig'lanishi kasalligi bo'lib atopiyaga irsiy moyilligi bo'lgan odamlarda erta bolalik davridan rivojlanadi va odam yoshiga qarab tananing turli soxalarida turli morfologik ko'rinishda terining qichishishi, simptomlarning takrorlanib turishi bilan namoyon bo'ladi. Atopik dermatitning yana bir tarqalgan nomi atopik ekzema. Ekzema so'zi yunon tilidan olingan bo'lib qaynab chiqish ma'nosini anglatadi va tanadagi har qanday toshmaga nisbatan

qo'llanilib kelinadi. Ekzema so'zi tanadagi toshmalarning immunologik va patogistalogik asoslari hali to'liq o'rganilmagan davrda tibbiyot amaliyotiga tatbiq qilingan. Atopik dermatit ekzemaning bolalar orasida eng ko'p tarqalgan shakli bo'lib ba'zan "ekzematoz dermatit", "infantil ekzema", "bolalik ekzemasini" deb ham ataladi. Bunday xilma xil talqinlar kasallik patofiziologiyasini tushunishdagi mavhumlikni aks ettiradi va uning rivojlanishi mexanizmlarini to'liq qamrab ololmaydi. Atopik dermatit/ekzemaning kamida ikkita turi mavjudligi klinik izlanishlar natijasida isbotlangan. Bular allergik (ekzogen) va noallergik (endogen) dermatit/ekzemalar. Bemorlarning 70-85% dermatit asosida allergik jarayon yotadi: ularda ma'lum ekzoallergenlarga bog'liqlik, allergik sinamalarning musbat javobi va immunoglobulin E miqdorining oshganligi qayd qilingan. 15-30% bemorlarda esa bunday holat kuzatilmagan va ularning holati noallergik dermatit tushunchasi ostiga kiritilgan. Lekin amaliy shifokorlar uchun ADES atamasi ancha noqulayliklar tug'diradi va undan deyarli foydalanishmaydi. Kasalliklarning xalqaro tasnifi 10 qayta ko'rib chiqilishi vaqtida qabul qilingan xujjatga binoan kasallikka nisbatan atopik dermatit iborasi qo'llaniladi.

ATOPIK DERMATIT/EGZEMA SINDROMI (ADES)

Allergik ADES Noallergik ADES

Ig-E vositali ADES Ig-E vositsizi ADES

Allergik ADES bemor anamnezida atopiyaga moyillik bo'lgan, ekzoallergenlar bilan bog'liq holda rivojlangan vaziyatlarni nazarda tutadi. Bunda bemor qonida maxsus Ig-E aniqlansa Ig-E vositali ADES deyiladi. Allergik dermatitning boshqa guruhi, uning Ig-E vositasiz shakli asosida 143 hujayra vositali immune mexanizmlar yotadigan allergik dermatitlar kiradi. Bunda bemorning sinamlari musbat ko'rsatkichlarga ega bo'ladi, terisidan olingan bioptatlarda yoki qonida maxsus allergenli T hujayralar ko'rinadi, lekin qonida maxsus Ig-E topilmaydi. Noallergik ADES tushunchasi endogen yoki kriptogen allergik dermatit iboralarini o'miga qo'llanilishi kerak.

Atopik dermatitning kechishi, davrlari va og'irlik darajasi bo'yicha tasnifi (2002-yil)

1. Kasallikning yoshga binoan davrlanishi

I davr (2 yoshgacha) go'daklik

II davr (2 yoshdan 13 yoshgacha) bolalik

III davr (13 yosh va undan kattalar) o'smirlik davri va kattalar

2. Kasallikning bosqichi

Avj olish

Remissiya (to'liq bo'lmagan remissiya yoki to'liq remissiya)

3. Jarayonning tarqalganligiga qarab

- chegaralangan (hududiy)

- tarqoq (chegaralanmagan) diffuz

4. Jarayonning og'irlik darajasiga ko'ra

- yengil kechuvi

- o'rta og'irlikda kechuvi

- og'ir kechuvi

ATOPIK DERMATITNING ETIOLOGIYASI.

Hamma allergik kasalliklar singari atopik dermatitning asosida ham irsiy omillar, murakkab immunologik jarayonlar va tashqi muhit omillarining o'zaro xamkorlikdagi ta'siri yotadi. Atopik dermatit omillarini ikkiga bo'lish mumkin: atopik dermatit rivojlanishiga moyillik omillari; xatarli (qaltis) omillar;

Atopik dermatitning etiologik omillari atopik dermatit rivojlanishiga moyillik omillari, atopik kasalliklarga irsiy moyillik kseroz (terining quruqligi)

Atopik dermatit rivojlanishini chaqiruvchi omillar:

1. Bakterial bo'lmagan allergenlar

a). Ovqat allergenlari

b). Ingalyasion (uy changlari kanalari, uy hayvonlarining yungi va epidermisi, suvarak allergenlari, usimliklarning changgi) allergenlar

2. Bakterial va zamburug' allergenlar

a). Staph. Aureus

b). Candida albicans

3. Autoantigenlar

Atopik dermatit chaqirish xatari mavjud omillar

1. Homiladorlik davridagi kasalliklar va toksikoz

2. Homiladorlik va bolani emizish davrida parxezni buzish, chekish va boshqa turdagi zararli odatlar

3. Bolani ovqatlantirishda sun'iy boqish uslubidan juda erta foydalanish.

4. Ijtimoiy va ekologik omillar (yomon xayotiy shart sharoitlar).

5. Ovqat xazm qilish tizimidagi a'zolarning surunkali va funktsional kasalliklari

6. Parazitar invaziyalar.

7. Infektsiyaning surunkali o'choqlari

Kseroz (terining quruqligi) atopik dermatitning asosiy belgilaridan biri hisoblanadi. Terining xaddan ziyod quruq bo'lishi uning himoya vazifasini izdan chiqaradi va teri aeroallergenlar va irritantlarning o'tib ketishiga to'sqinlik qila olmay qoladi. Atopik dermatit bilan og'riqan bemorlarning ko'pchiligida kseroz tug'ulishi bilan yoki bir oz muddat o'tgach paydo bo'ladi va butun umr, atrof muhit sharoitlariga bog'liq ravishda, goh susayib (issik va nam fasllarda), goh avjiga chiqib (sovuq va quruq fasllarda) davom etadi.

Atopik dermatit omillari

Nobakterial allergenlar. Ovqat allergenlari go'daklarda va hayotining dastlabki yillarini yashayotgan kichik yoshdagi bolalarda atopik dermatit rivojlanishini boshlab beruvchi eng asosiy omil hisoblanadi.

Ovqat allergiyasi bo'lmagan yoki ozuqa mahsulotlariga nisbatan gipersezuvchanligi bo'lmagan holatlarda ham ba'zi ovqat mahsulotlari atopik dermatit kechishini og'irlashtirishi mumkin. Issiq va achchiq, ovqatlar terida eritema chaqirib atopik dermatitning qichimasini kuchaytirishi, tarkibida salisilatlar tutadigan mahsulotlar (ayniqsa mevalar) esa semiz xujayralardan gistamin ajralishini rag'batlantirib atopik dermatitni avj oldirishi mumkin.

Atopik dermatitning rivojlanishi va uning avj olishiga eng ko'p sabab bo'ladigan ingalyasion allergenlar uy changlari kanalari (*Dermatophagoides pteronissinus* va *farinae*) hamda uy xayvonlari epidermisi hisoblanadi. Atopik dermatitning tananing shu allergenlar bilan eng ko'p muloqot qilishi mumkin bo'lgan qismlarida: yuzda, bo'yinda, boshda va qo'llarda rivojlanishi aynan o'sha allergenlarga nisbatan sezuvchanlikning oshib ketganligi ehtimolini oshiradi. O'simliklar changgi, xususan boshokliklarning changgi va atopik dermatit o'rtasida bog'liqlik borligini 1949-yilda Tuft L. namoyish qilib bergan. Mavsumiy atopik dermatitga chalingan bemorlarda o'simlik changi bilan o'tkazilgan allergik sinamlarning musbat natijalari, ba'zi bemorlarda allergik dermatit simptomlarining daraxtlar gullashi davrida avj olishi bu bog'liqlikni tasdiqlaydi.

Bakterial va zamburugli allergenlar. Keyingi yillarda atopik dermatit patogenezida mikroorganizmlarning ahamiyati keng ko'lamda o'rganilmoqda. Mikroorganizmlar atopik dermatit kechuviga asoratlar chaqiruvchi omil sifatida, allergen sifatida va superantigenlik xususiyatiga ega toksinlar ishlab chiqaruvchi omil sifatida ta'sir etishi

ma'lum. Mikroorganizmlardan eng ahamiyatli va eng ko'p o'rganilgani oltintusli stafilokkok (*Staphylococcus aureus*) hisoblanadi. Atopik dermatitga chalingan bemorlar terisining shikastlangan va shikastlanmagan qismlarida *S.aures* koloniyalari soni ortadi. 10ta kasaldan 9 tasida teri qoplamasining 90% bu mikroorganizmlar tomonidan egallab olingan bo'ladi.

Asabiylashish atopik dermatitning avj olishiga sabab bo'ladigan muhim ruhiy omil hisoblanadi. Aksariyat bemorlarda kasallikning avj olishi asabiylashish holatidan so'ng kuzatiladi. Bolalarda gipotalamus adrenal tizimi oxirigacha rivojlanib ulgurmaganligi tufayli asabiylashish vaqtida ularda noradrenalin ishlab chiqarilishi va shu tariqa dermatitdagi teri yallig'lanishi belgilarini kamaytirilishi yetarli darajada bo'lmaydi. Oqibatda ruhiy aziyat chekish bolalardagi atopik dermatit belgilarini kuchliroq avj oldiradi. O'rta og'ir va og'ir turdagi atopik dermatitda bemorlarning tungi uyquasi buziladi va kunduz kundagi faolliklari salbiy tarafga o'zgaradi. Bu uz navbatida depressiya holatini chaqiradi.

ATOPIK DERMATITNING TASHXISIIY MEZONLARI.

1980-yilda Hanifin va Rajica atopik dermatitning tashxisiy mezonlarini taklif qilishgan. Bu mezonlarga bir necha bor o'zgartirishlar kiritilgan va to'ldirilgan. Amerika Dermatologlar akademiyasi 2003-yilda atopik dermatitga bag'ishlangan konferentsiyada tashxis mezonlarining eng zamonaviy shaklini taklif qildi:

Atopik dermatitning klinik va davriy mezonlari (Eichenfield L.F., 11 a n if In J. M. et al, 2003), (16-jadval).

Bunda atopik dermatitning asosiy 6 ta belgisi:

1. eritema (giperemiya)
2. shish/papula
3. eksudasiya/qatqaloq
4. ekskorsiyasiya
5. lixenifikasiya
6. teri quruqligi asos qilib olinadi.

16- jadval. ADning yoshga bog'liq davriy belgilari

ADning belgilari	I-davr (go'daklik) To'g'ilishdan 2 yoshgacha	II-davr (bolalik) 2 yoshdan 12- 13 yoshgacha	III-davr (o'smirlik va yetuklik) 12 yoshdan kattalar
Qichishish	+++	-/+	-

Toshmalar	Eritema, papula, vezikula	turgun	O'rta og'ir va og'ir
Eksudasiya/Lixenifikatsiya	++/-	-/++	
Surunkali shakl olinishi	-	++	++
Terining yorilishi	-	++	-
Shikastlanish soxalari	Yanoqlar, iyak, boshning sochli qismi, peshona, ensa soxasi	Tirsak, bilak bo'g'imi, taqim, bilak kaft bog'imi	Tananing yuqori qismida
Facies atopicus	shakllanmaydi	shakllanadi	Shakllanishi mumkin

Atopik dermatitning asoratlari

1. Eritrodermiya.
2. Ikkilamchi infeksiyalar: bakterial, zamburug'li va virusli infeksiyalarning qo'shilishi.
3. Ko'zda namoyon bo'ladigan asoratlari.
4. Ruxiy holat asoratlari.
5. Bolalarning o'sishida ro'y beradigan asoratlari.

Eritrodermiya atopik dermatitning eng og'ir asoratlaridan biri hisoblanadi U bemor teri qoplamasi umumiy maydonining eritema, ekksudasiyali infiltrasiya, lixenifikasiya va qipiqlanish ko'rinishida namoyon bo'ladi. Shikastlanish zaxarlanishning umumiy belgilari: tana haroratining ko'tarilishi, et ivishishi, limfadenopatiya, qon formulasining o'zgarishi bilan boradi. Bunday holat juda og'ir bo'lib, ba'zan bemorning o'limi bilan yakunlanishi mumkin.

Atopik dermatitda maxsus allergologik tekshiruv

Terida allergik sinamalar o'tkazish, allergenlar vositasida sun'iy ravishda kasallik chaqirish (provokasion sinama) uchun sinamalar o'tkazish hamda laborator uslubda maxsus allergenli IgE-antitelolar mavjudligini aniqlash kiradi. Atopik dermatitning o'rta og'ir va og'ir turlariga chalingan bolalarning uchdan bir qismida ovqat allergenlariga nisbatan sezuvchanlik baland bo'ladi va bu sezuvchanlik bilan atopik dermatit orasida bevosita bog'liqlik kuzatiladi. Bunday bemorlarda qaysi maxsulotlarga nisbatan sezuvchanlik mavjudligini aniqlash va shunga binoan eliminasiya tadbirlarini qo'llash atopik dermatitdagi teri belgilarini keskin kamayishiga yordam beradi. Ovqat allergenlariga nisbatan sezuvchanlik oshib ketganligini aniqlash uchun ovqat allergenlari bilan teri sinamalari va provokasion sinamalar o'tkaziladi. Ovqat mahsulotlariga nisbatan sezuvchanlikning oshib ketishi odatda go'daklarda hamda kichik yoshdagi bolalarda kuzatiladi. Katta yoshli

bolalar va kattalarda sezuvchanlik asosan ingalatsion allergenlarga nisbatan rivojlanadi va ularda allergiya faqat atopik dermatit ko`rinishida emas balki respirator belgilar bilan xam namoyon bo`lishi mumkin. Ingalatsion allergenlarga sezuvchanlikning oshib ketganligini shu turdagi allergenlar vositasida terida allergik sinamalar o`tkazish, va agar respirator belgilar ham kuzatilsa, zaruriyatga qarab, provokasion sinamalar o`tkazish bilan aniqlaniladi. Atopik dermatitda hamma sinamlar kasallikning remissiya davrida, teri sinamalari esa terining shikastlanmagan sohalarida o`tkazilishi kerak bo`ladi.

ATOPIK DERMATITNI DAVOLASH VA OLDINI OLISH

Davolashning umumiy tadbirlari: maxsus allergologik sinamalar natijasida aniqlangan allergenlarga nisbatan eliminasiya tadbirlar maxsus bo`lmagan iritiantlardan muhofazalanish terini namlashga va uni yumshatishga yo`naltirilgan choralar katta yoshli bemorlarga va atopik dermatitga chalingan bolalarning ota onalariga parvarish usullarini o`rgatish. Ovqat allergenlari tufayli rivojlangan atopik dermatit va ovqat mahsulotlariga sezuvchanligi oshib ketgan, lekin asosida allergik jarayonlar yotmaydigan allergik dermatitda maxsus eliminasion parxez buyurish maqsadga muvofiq bo`ladi. Bu parxezda bemor faqat uzida kasallikning belgilari avj olib ketishiga sabab bo`ladigan mahsulotlarni iste'mol qilishdan saqlanadi. Atopik dermatitga bevosita aloqasi yo`q bo`lgan ovqatlardan uzoq vaqt saqlanib yurish, boshqacha aytganda, maxsus bo`lmagan parxez bemorda vitaminlar va minerallar tanqisligini keltirib chiqarishi va tegishlicha, davo samarasini pasaytirishi mumkin. Gipoallergen parxez kasallik "avj olgan davrda buyuriladi, boshqa vaqtlarda uni kengaytirish kerak bo`ladi. Bemorlar gistaminga boy mahsulotlarni yoki gistamin ishlab chiqarilishini rag`batlantiradigan mahsulotlarni, issiq va achchiq taomlarni iste'mol qilmasliklari lozim. Ba'zi mahsulotlarni, masalan beta kerotinga boy bo`lgan sabzi sharbati, asosiy yog kislotalari tutadigan mahsulotlarni (qora smorodina urug`ining yogi, lasos balig`ining moyi) iste'mol qilib turish tavsiya qilinadi. Dengiz suv o`tlari yod va boshqa minerallarga boyligi bilan foydali hisoblanadi. B guruxi vitaminlari, ayniqsa V6 va V5, A vitamini, E hamda S vitaminlari atopik dermatitda samarali.

Uy changlari kanalariga nisbatan sezuvchanligi oshib ketishi natijasida rivojlangan atopik dermatit va respirator belgilar bilan hamkorlikda kechayotgan atopik dermatitda eliminasiya tadbirlari kanalarni yo`qotishga qaratilgan bo`lishi kerak. Buning ahamiyati katta, chunki bemorda keyinchalik respirator allergiya, xususan bronxial astma

rivojlanishining oldini oladi. Atopik dermatitda teri parvarishi tadbirlari terlashga sabab bo'ladigan jismoniy mehnat va mashqlar bilan shug'ullanmaslik. Qattiq va yengli matolardan tikilgan kiyimlar kiyimaslik. Yotoqxonalarini sovuqroq ushlash (20° S darajadan baland emas). Yuvinish vaqtida qattiq va dag'al mochalkalar bilan ishqalanmaslik. Vanna yoki dush qabul qilishda suvni isitib yubormaslik tavsiya qilinadi.

Atopik dermatitli bemorni davolashni tashkil qilishning asosiy maqsadlari:

- bemorni sezgirlashtirishning birlamchi oldini olish (davolash terapiyasi);
- hamroh kasalliklarni tuzatish;
- teridagi yallig'lanish reaksiyasini kamaytirish yoki allergik yallig'lanish holatini nazorat qilish (asosiy davolash);
- immun tizimdagi buzilishlarini tuzatish;

Umumiy terapiyani tayinlashda doimiy avlodlarda (2 haftadan 3-4 oygacha) tayinlanadigan antigistaminlar turli avlodlarning antigistaminlarni (ertalab/tushdan keyin diazolin-kechasi tavegil) tayinlagan holda beriladi. Semiz hujayra membranalariga barqarorlashtiruvchi ta'sir ko'rsatadigan ketotifen (zaditen, astafen)ning alohida ta'siri qayd etilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, birinchi avlod antigistaminlari har 7-10 kunda bir marta ishlatiladigan preparatlarga navbat bilan buyurilishi kerak. Bir kunlik foydalanish imkoniyatini ta'minlaydigan, uzoq muddatli ta'sirga ega Zertekdan amaliy foydalanish qulay. O'rtacha atopik dermatitning farmakoterapiyasi desloratadinni 0,005 g dan 1,5 oygacha og'iz orqali, loratadin 0,01 g dan kuniga 7 marta, 10 kun davomida 0,001 g dan kuniga 2-3 marta. 7-10 kun, xloropiramin 0,025 g dan kuniga 3 marta 7-10 kun, ebastin 10 mg dan kuniga 1 marta 7-10 kun. Difengidraminni (1% - 2 ml mushak ichiga, № 10-15), klemastinni (0,1% - 2 ml mushak ichiga, № 10-15), xloropiraminni (2% - 2 ml mushak ichiga, № 10-15) parenteral yuborish mumkin. Natriy tiosulfatning (30% 10,0eritmasi, 10-15 ta), izotonik natriy xlorid eritmasi (tomir ichiga tomchilatib yuboriladi, haftasiga 2-3 marta 200-400 ml, № 4-7), polividon (har biri 200-400). ml haftasiga 2-3 marta, № 4-7). 2-4 xafta davomida buyuriladigan sedativ va psixotrop dorilarga muhim ahamiyat beriladi (valerian ildizi, persen, relanit, fenazepam, mezapam). Vitamin preparatlari guruhidan atopik dermatit bilan og'rigan bemorlarda retinol asetat va retinol palmitat (kapsulalar, tomchilar) shaklida buyurilgan A vitamini mavjud. Boshqa vitamin preparatlarini tayinlashga ehtiyotkorlik

bilan yondashish kerak, chunki atopik dermatitli bemorlarda ko'pincha ba'zi vitaminlarga, ayniqsa B guruhiga yuqori sezuvchanlik mavjud.

Og'ir, doimiy holatlarda, atopik dermatitning eritrodermik shakllarida GKSni tizimli ravishda ishlatish kerak. Prednizolon, deksametazon, metilprednizolon steroidlarni fiziologik ishlab chiqarishning kunlik ritmini hisobga olgan holda o'rtacha boshlang'ich dozalarda (kuniga 30-40 mg) buyuriladi. Ikkilamchi infeksiyalarning rivojlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun ko'pincha davolanishning alternativ usuli qo'llaniladi (har kuni ikki marta sutkalik doza). Kortikosteroidlarni yuqori dozalarda tayinlashda asoratlarning oldini olish uchun kaliy preparatlari, antatsidlar, anabolik steroidlar berish kerak..

Atopik dermatitning og'ir turida siklosporin kuniga 5 mg/kg tana vaznining maksimal dozasida kapsula yoki eritma shaklida belgilanadi, so'ng uning minimal qo'llab-quvvatlanishigacha kamayadi. Shuni yodda tutish kerakki, agar 6 hafta davomida preparatning maksimal dozasi fonida hech qanday ta'sir bo'lmasa, ushbu preparatni qo'llashni to'xtatilishi kerak.

Ekstrakorporal detoksifikatsiya kursi, ayniqsa plazmaferez shaklida, og'ir atopik dermatitda foydali bo'lishi mumkin. Ba'zi hollarda ikkilamchi infeksiya paydo bo'lishi sababli antibiotiklardan foydalanish zarurati paydo bo'ladi. Ushbu holatlarda eng mos keladigan narsa: eritromitsin (kuniga 1 g 5-7 kun). Muqobil dorilar sifatida tetratsiklinni qo'llash mumkin. Antibiotiklarni buyurayotganda, ichak mikrobiotsenozining an'anaviy profilaktikasi zarurligini yodda tutish kerak.

Davolashning fizioterapiya usullaridan ultrabinafsha nurli terapiya keng qo'llaniladi. Oddiy kvarts lampasi, PUVA terapiyasi yoki tanlab olingan fototerapiya yordamida ultrabinafsha nurlanishining kurslari davomiyligi bo'yicha (ko'rsatkichlarga qarab) teridagi immun yallig'lanish jarayonlarini sezilarli darajada pasaytiradi va qichishishni kamaytiradi. Shuni unutmaslik kerakki, tabiiy quyosh nuri atopik dermatitga qarshi mukammal terapevtik ta'sirga ega, shuning uchun yozda bemorlar o'zlarini yaxshi his qilishlari mumkin. Elektroterapiya, galvanizatsiya, elektr uyqu, darsonvalizatsiya usullaridan foydalaniladi. Ular terining tomirlarini yaxshilaydi, asab tizimining holatini barqarorlashtiradi va shu bilan butun terapevtik chora-tadbirlar samaradorligini oshiradi.

Atopik dermatitni davolashda lazerli terapiya va refleksologiya (akustika, lazer va elektropunktura) muhim o'rin tutadi.

Nazorat savollari

1. Qavarchiqlar haqida tushuncha bering?
2. Eshak emi ta'rifini ayting?
3. Eshak emi patogenezi haqida nimalarni o'rgandingiz?
4. Eshak emi klinik belgilari haqida tushuncha bering?
5. Eshak emi asoratlari qaysilar?
6. Atopik dermatitlar haqida tushuncha bering?
7. Atopik dermatitlar asoratlari qaysilar?
8. Atopik dermatitlar tashxislash va davolashda qaysi usullardan foydalanish mumkin?
9. Atopik dermatitlar profilaktikasini ayting?
10. Atopik dermatitlarda fizioterapiya usullarini sanang?

GLOSSARIY

1. Immunoglobulinlar(I)- inson qon zardobidagi antitelolar faolligiga ega bo'lgan globulyar oqsillar guruhi. Biologik xossalari (platsenta orqali o'tishi, sekretlarga tushishi, to'qimalarda paydo bo'lishi, komplement tizimining faollashuvi yoki biologik faol moddalarning ajralishi) molekulyar konstant qismining tuzilishi orqali aniqlangan. I. ning tegishli 5 sinfini hosil qiladi: IgG, IgM, IgA, IgD, IgE. I. limfa hujayralarida sintezlanadi va immunitet hosil bo'lishida ishtirok etadi; ular, asosan, qonda, qisman so'lak, o't, orqa miya suyuqligi, siydik, turli sekretlar va b. to'qima suyuqliklarida bo'ladi. I. ning asosiy effektor reaksiyalari har bir antigenga o'ziga xos antitelolar ishlab chiqish orqali amalga oshadi. Uning bu xususiyatidan tibbiyotda ayrim infeksiyon kasalliklarni (masalan, ko'k yo'talga, stafilokokka qarshi I.) davolashda foydalaniladi.

2. Polimeraza zanjirli reaktsiya (PZR)-molekulyar biologiyaning tadqiqot usullaridan biri hisoblanib, nuklein (DNK) yoki (RNK) kislotalarning ma'lum bir fragmentlarni million – milliard marotaba ko'paytirib beradi. PZR juda ko'p sohalarda qo'llaniladi: sud ekspertizada, irsiy kasalliklarni aniqlashda va otaliqni aniqlashda ham qo'llaniladi.

3. Interferon (IF) (lot. inter – o'zaro va ferio – uraman, shikastlayman) – viruslar yoki sintetik polinukleotidlar toksinlar, antimetabolitlar va b. kirishiga javoban hujayrada hosil bo'ladigan oqsillar guruhining umumiy nomi. I. o'tkir virusli infeksiyadan organizmning asosiy himoya vositasi hisoblanadi. I. yoki uning hujayrada hosil bo'lishini tezlashtiruvchi moddani organizmga kiritish orqali virusli infeksiyaning oldini olish yoki uni davolash mumkin

4. Atopik (A)-Atopik (Atopiya) qadimgi yunoncha atopos so'zidan olingan. Atopos "g'alati" yoki "g'ayritabiiy" degan ma'noni anglatadi. Allergik holatlar bilan kechadi.

5. Angioedema(AO)- angionevrotik shish yoki Kvinke shishi turli xil biologik va kimyoviy omillar ta'sirida organizmda kelib chiqadigan reaksiya, ko'pincha allergik xususiyatga ega. Angionevrotik shish terida, teri osti to'qimalarida va bemorning ichki a'zolarining shilliq pardalarida o'zini namoyon qiladi. Kvinke shishi, birinchi navbatda, traxeyaning siqilishi va nafas olish yetishmovchiligi tufayli halqumga tarqalishi bilan xavflidir.

6. **Astma(A)**- (yunoncha asthma — halloslash, bo'g'ilib qolish) — bronxlarning to'satdan torayib qolishi yoki yurak kasalliklari natijasida bo'g'ilish xuruji paydo bo'lishi.

7. **Interleykin(IL)**-asosan leykotsitlar tomonidan sintezlanadigan sitokinlar guruhidir (shuning uchun "leykin" ildizi tanlangan). Shuningdek, mononuklear fagotsitlar va boshqa to'qimalar hujayralari tomonidan ishlab chiqariladi. Interleykinlar immunitet tizimining bir qismidir.

7. **Antigen(AG)** – ma'lum sharoitda immun javob berish va maxsus antitelolar ishlanib chiqishi, yot hujayralarni yemirib limfotsitlar hosil bo'lishi, immunologik holat yoki tolerantlik shakllanishiga sabab bo'ladigan turli moddalar.

8. **Antitelo(AL)**- immunitet hosil qiladigan moddalar. Antitelo teri ostiga yoki tomirga oqsil tabiatli modda antigen kiritilganda, unga qarshi hosil bo'ladi. Antitelolar, asosan, qon zardobida to'planadi.

9. **Prostaglandin** – prostaglandinlar tanadagi ko'plab reaktsiyalarda ishtirok etadigan gormonlardir. Prostaglandinlarning ingibitorlari va sintetik hosilalari farmatsevtikada ko'plab muolajalar kontekstida qo'llaniladi.- Prostaglandinlar lipozda eriydigan (ya'ni yog'da eriydigan) sitokinlardir. Yallig'lanish, koagulyatsiya, ko'payish, oshqozon shilliq qavatining saqlanishi ...

10. **Leykotrien(LT)** -organik birikmalar, 20 a'zoli uglerod zanjiriga ega bo'lgan araxidon kislotasidan organizmda hosil bo'lgan yuqori faol lipid moddalar guruhi. Leykotrienlarning kichik sinfi prostanoidlar bilan birgalikda eykozanoidlar sinfiga kiradi. Leykotrienlarning asosiy ta'siridan biri bronxospazm bronxial astma patogenezi asosida yotadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Aliyev Sh.R. Klinik immunologiya. Darslik. 2020-yil.
2. Аралов Н.Р., Окбоев Т.А. Бронхиал астманинг замонавий диагностика ва даволаш усуллари. Монография. Самарканд. Zarafshon 2017. 172 b.
3. Kovalchuk L.V., Gankovskaya L.V., Meshkova R.Ya.. Umumiy immunologiya asoslari bilan klinik immunologiya va allergologiya. Darslik. 2011 (elektron).
4. Nazarov O. A., Nazarov J. A., Nizomov K.F. "Allergologiya klinikasi". Darslik – Toshkent. "FAN". 2014-yil.
5. Назаров О. А., Юлдашева Ф. У. Аллергология. Дарслик. – Тошкент. «FAN» 2001 й.
6. Oqboev T.A., Xoljigitova M.B., Dusanov A.D. Bronxial astma rivojlanishining genetik asoslari. Monografiya. Samarqand 2022. 92 bet.
7. Хаитов Р. М. Клиническая аллергология. Учебник. – Москва. «ГЕОТАР медиа» 2009 г.
8. Холжигитова М.Б., Зиядуллаев Ш.Х., Дусанов А.Д. Пульмонолог амалиётида сурункали обструктив бронхитни эрта ташхислаш ва даволаш. Монография. Самарканд 2022. 85 бет .
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 20.04.2017-yildagi PQ-2909-son «OLIY TA’LIM TIZIMINI YANADA RIVOJLANTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA»
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 11.05.2018-yildagi PQ-3715-son «ALLERGIK KASALLIKLARNI PROFILAKTIKA QILISH, ULARGA TASHXIS QO‘YISH VA DAVOLASHNI TUBDAN TAKOMILLASHTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO‘G‘RISIDA»

Qo‘shimcha manbalar

1. Гадаев А.Г. Ички касалликлар. Дарслик. -Тошкент. Турон Замин Зиё нашриёти. 2018 й.
2. Гадаев А. Г., Каримов М. Ш. Ички касалликлар пропедевтикаси. Дарслик. -Тошкент. Мухаррир нашриёти. 2012 й.
3. Гадаев А.Г., Ахмедов Х.С. Умумий амалиёт врачлари учун амалий кўникмалар тўплами. Ўқув кўлланма. -Тошкент. Мухаррир нашриёти. 2010 й.
4. Dusanov A.D., Xoljigitova M.B., Safarova M.P., Yuldasheva D.A., Oqboev T.A. Jigarning surunkali kasalliklari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent – 2022. 149 bet.

5. Назаров О.А., Назаров Ж.А., Низамов К-Ф- Клиник аллергология. Дарслик. – Тошкент. “Янги аср авлоди” 2016 й.
6. Xoljigitova M.B., Mamurova N.N., Maxmatmuradova N.N., Zakiryaeva P.O., Nosirova D.E. O‘pka kasalliklari bilan bemorlarni olib borish asoslari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent – 2022. 291 bet.
7. Xoljigitova M.B., Dusanov A.D., Safarova M.P., Yuldasheva D.A. Ichki kasalliklar fani boyicha amaliy ko‘nikmalar. O‘quv uslubiy qo‘llanma. Toshkent – 2022. 55 bet.

**M. B. Xoljigitova, J. A. Ismailov, Sh. X. Ziyadullaev,
R. B. Abdullaev**

KLINIK ALLERGOLOGIYA

Darslik

**Muharrir M. Talipova
Tex. muharrir N. Niyazova
Sahifalovchi B. Haydarov**

Bosishga ruxsat etildi 08.04.2024.
Qog'oz bichimi 60x84^{1/16}. TIMES garniturasini,
Shartli bosma tabog'i 14,5. Nashr tabog'i 11,9
Adadi 100. Buyurtma № 08-08/24

«DIMAL» OK nashriyoti
100140, Toshkent sh., Huvaydo ko'chasi, 2A-25
T.:77-404-99-09

«DIMAL» OK matbaa bo'limida chop etildi.
100140, Toshkent sh., Huvaydo ko'chasi, 2A-25

ISBN 978-9910-723-08-7



9 789910 723087